2. Badiiy obraz – narsa-predmetning san'atkor tomonidan yaratilgan tasviri.

3. Istiora – badiiy adabiyotda bir narsa predmet o'rniga ikkinchi mos narsa predmet nomining qo'llanilishi.

4. Iyhom – badiiy adabiyotda bir so'zning bir o'rinda qo'llangani holda ikki ma'noni ifodalashi.

5. Transfigurasiya – bir narsa predmetning boshqa narsa predmet shakliga o'tishi.

6. Epos – boshlanishi, rivojlanishi va yakuni ifodalangan asar.

7. Lirik – ichki kechinma, his-tuyg'u ifodalangan asar. Bunday asarlarda voqea tasviri nisbiy bo'ladi.

8. Drama – sahnada ko'rsatish mo'ljallangan asar {xalq dramasi, askiya}.

9. Qo'shaloqlashtirish – ertak va dostonlarda qo'llanadigan usul. Ularda asar qahramoni vazifasi murakkablashtiriladi. {qahramon uch yo'l qarshisidan chiqadi: borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas –qo'shaloqlashtirish}.

10. Paralellizm – tasvirlangan qahramon taqdirining narsa, predmet bilan taqqoslanishi. {tokchadagi qaychi – yangi tushgan kelin}.

11. Turkumlilik – bir necha asarning shahar nomi, geografik nomi, narsa-predmet nomi bilan umumlashuvi.

12. Improvizasiya – badihago'ylik.

Referat mavzulari

1. Ifodali o'qish xususiyatlari
2. Sharhli o'qish haqida ma'lumot
3. Badiiy o'qish shartlari
4. She'r yodlash texnologiyasi
5. Ovozdan foydalanish usullari
6. Ovozni tarbiyalash usullari
7. Badiiy o'qishning ta'lim tizimidagi o'rni
8. Badiiy o'qish tarixi
9. Amir Temur va Boburning badiiy o'qishdai ibratlari
10. Badiiy o'qish jarayonidagi tipik xatolar
11. Badiiy o'qish ustalari

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Inomxo'jaev S. Badiiy o'qish asoslari. T., 1978
2. Oripov K. Obidov M. Ifodali o'qish asoslari. T., 1978
3. Jalilov B. Badiiy o'qish sirlari. A., 1994
4. Adamovich N.A. Karsnaya T.M. Varazitolnoe chtenie v nachal'nykh klassix, M., 1963
5. Tolutkov. Metodika prspodovakiya literatur. M., 1962
6. Jo'raev K. Ifodali o'qish va hikoya qilish usullari. T., 1964
7. Zuxqulov A. Qodiriy asarlari tilining metodikasi. T., 1989
8. Inomxo'jaev S. Zulunov A. Ifodali o'qish asoslari. T., 1978

TAYaNCh KONSPEKT

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: O`qish turlari: oddiy o`qish, ifodali o`qish, shartli o`qish, badiiy o`qish.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: O`qish turlari: oddiy o`qish, ifodali o`qish, shartli o`qish, badiiy o`qish haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g`oyalarini bolalarga singdirishni o`rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma`naviy yetuk, axloqli, e`tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an`analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an`analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o`zligini anglatish, milliy g`urur, milliy iftihar tuyg`ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o`rgatish.

Darsning turi: Noan`anaviy

Darsning uslubi: diologik yondashuv, muammolai ta`lim, munozara, "klaster", ma`ruza, o`z-o`zini nazorat

Darsning jihozi: Ko`rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

**Fanlar aro bog`lanish:** adabiyotshunoslik, xalq og`zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqloq g`oyasi

Natija: Darsga qo`yilgan maqsadlarga to`liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o`qib, konspekt qilish. Amaliy mashg`ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o`qishni o`rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas`ul
1-bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi: Badiiy o`qish fanining ta`lim tizimidagi o`rni, uning tarixi, qadriyatlarimiz bilan bog`liqligi, adabiyot o`qitishdagi ahamiyati, o`quvchilar estetik tarbiyasida badiiy o`qishning ahamiyati haqida tushunchalar beriladi	Oqituvchi
2-bosqich 30 daqiqa	O`qish turlari: oddiy o`qish, ifodali o`qish, sharhli o`qish, badiiy o`qish haqida ma`lumotlar beriladi. Badiiy o`qish san`atini egallash zaruriyati uqtiriladi. O`qish turlari misollar yordamida izohlanadi. Dars shakli: tushuntirish va baholash Vositalar: badiiy o`qish namunalari aks etgan disklar, ovozli yozuvlar, kitoblar Metod va usullar: tinglash, ularga baho berish, ularni qiyoslash	Oqituvchi
3-bosqich 15 daqiqa	She`r yodlash usullari haqida ma`lumot beriladi. She`r yodlab bo`lingach, tikka turib aytib ko`rish, boshqalarga o`qib berish. She`r yod o`qilayotganda diqqatni jamlash	
4-bosqich	Badiiy o`qish fani bo`yicha o`quv qo`llanmalar sharhlanadi. Ularning yutuq va kamchiliklari izohlanadi.	Oqituvchi

10 daqiqa	ulardan faoydalanish usullari	
5-bosqich 10 daqiqa	Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun vazifalar beriladi. Fan bo'yicha o'quv qo'llanmalarini jamlash. Aruz, barmoq, erkin sher tizimlariga mansub bittadan she'rni yod olish. Dramatik turga mansub asarlardan maqola, dialog, poliloglarni yodlash	Oqituvchi

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: O Badiiy o'qish vositalari: ovoz, intolasiya, urg'u, pauza, talaffuz, temp, mimika.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftihar tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: dialogik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqloq g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: **Uyga vazifa:** Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi: Badiiy o'qish vositalari haqida ma'lumotlar berish, talabalarda bu vositalardan foydalana olish ko'nikmasini hosil qilish. Badiiy o'qish vositalari: ovoz, intonatsiya, urg'u, pauza, talaffuz, temp, imo-ishora, xatti-harakat haqida ma'lumot berish	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	Badiiy o'qish vositalaridan foydalanish usullari. Ovoz va uning xususiyatlari. Ovozdan foydalanishda makon va ishtirokchilari soni. Ovozdan foydalanishda she'r tizimining o'rni. Ovozdan foydalanishda band mazmuni. Badiiy o'qishda intonatsiyaning ahamiyati. Urg'u va	Oqituvchi

	uning turlari. Tilimizdagi urg'u olmovchi unsurlar. Pauza va uning turlari	
3 bosqich 20 daqiqa	Badiiy o'qishda temp va talaffuz. Imo-ishora, xatti-harakatdan foydalanish usullari. Imo-ishora, xatti-harakatni amalga oshirishda talabalarda uchrovchi tipik xatolar	Oqituvchi
4 bosqich 15 daqiqa	Quyidagi band talabalarga yozdirilib, badiiy o'qish vositalarini qo'llab o'qish talab etiladi. Ko'rmay desam, ko'zim ko'r emas, Yurmay desam, oyog'im butun Lekin qalblar ortiq jo'r emas, Xayollarga bo'laman tutqun. Talabalarga o'qitilib, ularning yutuq, kamchiliklari ko'rsatib beriladi.	Oqituvchi, talabalar

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Barmoq she'r tizimidagi she'rni ifodali o'qishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan qoidalar haqida.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftihor tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: dialogik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich	Dars maqsadi, barmoq, erkin she'r tizimlari, dramatik turga mansub matnlarni badiiy o'qishga tayyorlay olish ko'nikmasini	Oqituvchi

15 daqiqa	hosil qilish. She'r tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida, dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.	
2 bosqich 30 daqiqa	Barmoq she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yodlash. Matndagi fonitek va logik urg'ular qo'yib olish. Har misraning turoq tizimini aniqlash orqali pauzalar o'rmini belgilash. Har bir banddagi tempni aniqlash. Bandlar mazmuniga xos imo-ishora, xatti-harakatni aniqlash	Oqituvchi
3 bosqich 20 daqiqa	Erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yod olish. Xajmi katta she'rlarni, dostonlari guruhlariga bo'linib yodlash. Erkin she'r tizimida pauzaning ahamiyati. Bu tizimdagi she'rlarni o'qishda ovozdan foydalanish usullari.	Oqituvchi
4 bosqich 15 daqiqa	Dramatik turga mansub matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. Monolog, dialog, poliloglarni tayyorlash usullari. Ular ijrosida foydalanish mumkin bo'lgan vositalar: kitob, doska, stol, stullar. Imo-ishoralar, xatti-harakatning o'ziga xos ifodalarini bera olish	Oqituvchi

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Aruz she'r tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Aruzdagi matnlarni o'qish.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftihar tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: *diologik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat*

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi: aruz she'r tizimining o'ziga xos xususiyatlarini yodga keltirish, aruz she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qiy oladigan suxandonlar, aktyorlar mahorat sirlarini o'rganish	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	Aruz she'r tizimida bir unlining matnda turli cho'ziqlikda o'qilish xususiyati, uning sababi Navbahor ochildi gullar sabza bo'ldi bog'lar Suhbat aylanlik kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar Mana shu bayt o'qilishi misolida yuqoridagi xususiyatlar oydinlashtirildi. Dars shakli: tushuntirish va o'qib ko'rsatish Vositalar: kitob, disklar, ovoz eshittirish vositalari Metod va usullar: o'qib ko'rsatish, talabaga o'qitirish, tahlil	Oqituvchi, talaba
3 bosqich 40 daqiqa	Tarkibida qo'sh undosh bo'lgan so'zlarining o'qilish usullari Ishq istar bo'lsa Majnun aylagay payrovg'ining Yo'lni ne bilgay kishi to rahnamo ko'rsatmagay. Ishq aro yuz ming malomat o'qiga bo'ldim nishon Bir kamon obro'da tuzliqdin nishona topmadim Ikkala baytdagi "Ishq" so'zi o'qilishi misolida masala oydinlashadi. Oqituvchi o'qib bergach, talabaga ham o'qitib ko'radi. Tarkibida "ng" tovushi, "i" belgichi bo'lgan so'zlarning o'qilish usullar	Oqituvchi, talaba
4 bosqich 5 daqiqa	Bahru bayt o'yini qoidalari. Bahru bayt turlari. Bahru bayt namunasi o'qituvchi tomonidan o'qib ko'rsatiladi. Bahru bayt o'yiniga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifa qilib beriladi.	

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Erkin she'r tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Erkin she'r tizimi oid matnlarni o'qishda pauzaning ahamiyati..

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftihar tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: dialogik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlool g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi, erkin she'r tizimlari, matnlarni badiiy o'qishga tayyorlay olish ko'nikmasini hosil qilish. She'r tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida, erkin she'r tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yodlash. Matndagi fonitek va logik urg'ular qo'yib olish. Har misraning turoq tizimini aniqlash orqali pauzalar o'rnini belgilash. Har bir banddagi tempni aniqlash. Bandlar mazmuniga xos imo-ishora, xatti-harakatni aniqlash	Oqituvchi
3 bosqich 20 daqiqa	Erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yod olish. Xajmi katta she'rlarni, dostonlari guruhlarga bo'linib yodlash. Erkin she'r tizimida pauzaning ahamiyati. Bu tizimdagi she'rlarni o'qishda ovozdan foydalanish usullari.	Oqituvchi
4 bosqich 15 daqiqa	Dramatik turga mansub matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. Monolog, dialog, poliloglarni tayyorlash usullari. Ular ijrosida foydalanish mumkin bo'lgan vositalar: kitob, doska, stol, stullar. Imo-ishoralar, xatti-harakatning o'ziga xos ifodalarini bera olish	Oqituvchi

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Badiiy o'qish vositalarini nasriy asar o'qishda qo'llash usullari

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftihar tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: dialogik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlool g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi, nasriy asar matnlarni badiiy o'qishga tayyorlay olish ko'nikmasini hosil qilish. Nasriy asarning o'ziga xos xususiyatlari haqida, tushunchalar hosil qilish.	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yodlash. Matndagi fonitek va logik urg'ular qo'yib olish. Har misraning turoq tizimini aniqlash orqali pauzalar o'rnini belgilash. Har bir banddagi tempni aniqlash. Bandlar mazmuniga xos imo-ishora, xatti-harakatni aniqlash	Oqituvchi
3 bosqich 20 daqiqa	Nasriy asar matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. She'r tanlash, yod olish, guruhlariga bo'linib yodlash, pauzaning ahamiyati. Bu nasriy asarni o'qishda ovozdin foydalanish usullari.	Oqituvchi
4 bosqich 15 daqiqa	Nasriy asar matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. Monolog, dialog, poliloglarni tayyorlash usullari. Ular ijrosida foydalanish mumkin bo'lgan vositalar: kitob, doska, stol, stullar. Imo-ishoralar, xatti-harakatning o'ziga xos ifodalarini bera olish	Oqituvchi

DARSNING TEXNOLOGIK HARITASI

Darsning mavzusi: Dramatik asarlarni o'qishga tayyorlashda matn ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

a) Ilmiy maqsad: Mavzu haqida bilim berish hamda gumanizm, erksevarlik va vatanparvarlik g'oyalarini bolalarga singdirishni o'rgatish.

b) Tarbiyaviy qism maqsadi: yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqli, e'tiqodli, izlanuvchan, milliy qadriyatlar va an'analarni davom ettiruvchi kitobxon va mutaxassis qilib tarbiyalash. Talabalarni milliy an'analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) Rivojlantiruvchi maqsad: voqealarni bildirish orqali ularni o'zligini anglatish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini singdirishni, tarixiy faktlarni baholay olishni o'rgatish.

Darsning turi: Noan'anaviy

Darsning uslubi: dialogik yondashuv, muammolai ta'lim, munozara, "klaster", ma'ruza, o'z-o'zini nazorat

Darsning jihozi: Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Fanlar aro bog'lanish: adabiyotshunoslik, xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik masalalari, badiiy tahlil asoslari, milliy istiqlol g'oyasi

Natija: Darsga qo'yilgan maqsadlarga to'liq erishish, har bir talabaga yetib borib, baholash.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, konspekt qilish. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish. Badiiy asarni yod olish va ifodali o'qishni o'rganish

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 15 daqiqa	Dars maqsadi, Dramatik asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash olish ko'nikmasini hosil qilish. Dramatik asarlarni o'qish qoidalari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	Dramatik asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash olish ko'nikmasini hosil qilish. Dramatik asarlarni o'qish qoidalari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish, pauzalar o'rnini belgilash, tempni aniqlash. Dramatik asar mazmuniga xos imo-ishora, xatti-harakatni aniqlash	Oqituvchi
3 bosqich 20 daqiqa	Dramatik asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash, tanlash, yod olish, guruhlarga bo'linib yodlash, pauzaning ahamiyati. Dramatik asarlarni o'qishda ovozdan foydalanish usullari.	Oqituvchi
4 bosqich 15 daqiqa	Dramatik turga mansub matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash usullari. Monolog, dialog, poliloglarni tayyorlash usullari. Ular ijrosida foydalanish mumkin bo'lgan vositalar: kitob, doska, stol, stullar. Imo-ishoralar, xatti-harakatning o'ziga xos ifodalarini bera olish	Oqituvchi

Amaliy mashg'ulotlar uchun

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqiqa	Darsning maqsadi: talabalarda aruz she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qish ko'nikmalasini hosil qilish Bu bosqichda o'qituvchi aruz she'r tizimidagi matnlarni o'qishdagi asosiy qoidalarni yodga soladi. O'zi bir g'azalni badiiy jihatdan o'qib, namuna ko'rsatadi	Oqituvchi
2 bosqich 60 daqiqa	Talabalar navbatma-navbat she'r o'qiydilar. Talaba she'rni o'qib bo'lgach, uning o'qilishi tahlil qilinadi. Masalan, talaba quyidagi baytni shunday o'qiydi. Jonga qo'ygach naqdi ishqing qildi ko'ngilni halok O'lturur mahramni sulton ganji pinhon aylagach Bu yerda tarkibida qo'sh undosh bo'lgan so'zlar noto'g'ri o'qildi. Bu yerdagi qoida talabadan so'raladi. U bilmasa, talabalarga murojaat etiladi. Bayt to'g'ri o'qib ko'rsatiladi. Ana shu tarzda she'rlar to'g'ri o'qilishi ko'rsatilib, baho darsiga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqituvchi, talaba
3	Darsga yakun yasaladi. Eng yaxshi she'r o'qigan talabalar	Oqituvchi

bosqich 10 daqqa	ko'rsatilib, ularning yutuqlari ibrat qilib ko'rsatiladi. She'rni yomon o'qigan talabalar familiyalari aytilib, o'sha xatolarni qaytarmaslik uchun nima qilish zarurligi uqtiriladi.	
------------------------	---	--

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqqa	Darsning maqsadi: talabalarda aruz she'r tizimini badiiy o'qish ko'nikmasini hosil qilish. Oqituvchi asosiy qoidalarini yodga qolib, she'r o'qish namunasini ko'rsatadi.	Oqituvchi
2 bosqich 60 daqqa	Talabalar navbatma-navbat tayyorlab kelgan she'rlarini o'qiydilar. Har bir talabaning yutuq va kamchiligi ko'rsatilib, olgan bahosi e'lon qilinadi. Talaba she'rni to'la yod etib, badiiy o'qish vositalarini 100% amalda qo'llay olsa, "a'lo" baho qo'yiladi. Talaba she'rni yod olib, badiiy o'qish vositalarini 80 % amalda qo'llay olsa, "yaxshi" baho qo'yiladi. Talaba she'rni yod aytib, badiiy o'qish vositalarini 60% amalda qo'llay olsa, "qoniqarli" baho qo'yiladi.	Oqituvchi, talaba
3 bosqich 10 daqqa	Oqituvchi darsga yakun yasaydi. Eng yaxshi she'r o'qigan talabalar familiyalari aytilib, ularning ibratli tomonlari ko'rsatiladi. Darsda eng yomon she'r o'qigan talabalar ko'rsatilib, ularning asosiy xatolari aytilib, uni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi. Darsda "yomon" baho olgan talabalar kamchiliklarni qayta ishlab, darsdan tashqari paytda she'r topshiradilar.	Oqituvchi

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqqa	Dasrning maqsadi: talabalarda aruz she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qiy olish ko'nikmasini mustahkamlash. o'qituvchi bahru bayt o'yini qoidalarini talabala yodiga soladi.	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqqa	Oqituvchi va butun guruh ishtiroksida o'yin boshlanadi. Oqituvchi o'yinni boshlaydi, sezgan talaba o'rnidan turadi, o'yinni davom ettiradi. Talabalardan bayt chiqmay qolgan o'rinlarda o'qituvchi o'yinni davom ettiradi.	Oqituvchi, talabalar
3 bosqich 30 daqqa	Guruh ikkiga bo'linib, ular o'rtasida o'yin davom etadi. Guruh g'olibi aniqlangach, eng faol talabala doskaga qilib, avval bir guruh, so'ng butun guruh bilan o'yin o'ynaydi.	Talabalar
4 bosqich 10 daqqa	Oqituvchi o'yinga yakun yasaydi. Eng faol talabalar darsda kam qatnashgan talabalar familiyalari ko'rsatib o'tiladi. Har bir talaba baholanib, baholar e'lon qilinadi. "Yomon" baho olgan talabalar tayyorgarlik ko'rib, darsdan tashqari vaqtlarda o'yin bo'yicha baho olishlar zarur ekani aytib o'tiladi.	

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqiqa	Dars maqsadi: talabalarda barmoq she'r tizimidagi she'rlarni badiiy o'qish ko'nikmasini hosil qilish. Oqituvchi barmoq she'r tizimidagi she'rlarni badiiy o'qishdagi asosiy qoidalarni talabalar yodiga solib, bir she'rni namuna uchun badiiy jihatdan o'qib beradi.	Oqituvchi
2 bosqich 30 daqiqa	Talabalar navbatma-navbat yodlab kelgan she'rini doskada o'qib beradilar. Oqituvchi talabalar ishtirokida she'r o'qilishining yutuq va kamchiliklarini muhokama etadi. Bu dars mashq darsi bo'lib, talabalar baholanmaydilar.	Oqituvchi, talaba
3 bosqich 30 daqiqa	Oqituvchi darsga yakun yasaydi. Eng yaxshi va yomon tayyorgarlik ko'rgan talabalar familiyalari aytilib, ular rag'batlantiriladi. Tanbeh beriladi. Navbatdagi dars baho darsi ekani e'lon qilinadi.	Oqituvchi

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqiqa	Dars maqsadi: talabalarda barmoq she'r tizimidagi she'rlarni badiiy o'qish ko'nikmasini hosil qilish. Oqituvchi asosiy qoidalarni yodga solib, bir she'rni badiiy jihatdan o'qib beradi.	Oqituvchi
2 bosqich 60 daqiqa	Talabalar she'rlarni tinglanib, ular baholanadi. Eng ibratli yutuqlar, qo'l qo'yilgan tipik xatolar aytib beriladi.	Oqituvchi, talaba
3 bosqich 10 daqiqa	Oqituvchi darsga yakun yasaydi. Eng yaxshi baho olgan, "qoniqarsiz" baho olgan talabalar darsdan tashqari paytda she'rlarni topshirishi zarur ekani e'lon qilinadi.	Oqituvchi

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqiqa	Oqituvchi bu tizimdagi she'rlarni badiiy o'qishdagi asosiy qoidalarni yodga soladi. Ibrat uchun bir she'rni badiiy o'qib beradi.	Oqituvchi
2 bosqich 60 daqiqa	Talabalar navbatma-navbat yod olgan she'rlarni o'qiydilar. Oqituvchi ularni baholab boradi. Bu jarayonda eng ibratli, eng qo'pol xatolarni qayd etib boradi.	Oqituvchi, talaba
3 bosqich	Oqituvchi darsga yakun yasaydi. Eng qoniqarli o'qigan, eng yomon o'qigan talabalar familiyalari aytilib, "qoniqarsiz" baho	Oqituvchi

10 daqiqa	olgan talabalar darsdan tashqari paytda she'r topshirishi zarurligi aytiladi.	
-----------	---	--

t/r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1 bosqich 10 daqiqa	Dars maqsadi: talabalarda monolog, dialog, poliloglarni badiiy o'qish ko'nikmasini hosil qilish. Oqituvchi asosiy qoidalarni yodga solib, namuna uchun bir monolog o'qib beradi.	Oqituvchi
2 bosqich 60 daqiqa	Talabalar tayyorlab kelgan monolog, dialog, poliloglar eshitilib, baholanadi. Eng ibratli tomonlar, eng yomon xatolar ko'rsatib beriladi. Talabalar olgan baholar e'lon qilib boriladi.	Oqituvchi, talaba
3 bosqich 10 daqiqa	Dasrga yakun yasaladi. Eng namunali o'qigan talabalar familiyalari aytilib, ular rag'batlantiriladi. "Yomon" baho olgan talabalar familiyalari aytilib, ular darsdan tashqari paytda matn topshirishi uqtiriladi.	Oqituvchi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“IFODALI O'QISH” FANIDAN MA'RUZA MATNI

ANDIJON - 2013

“Badiiy o’qish” kursiga kirish.

R Ye J A :

1. Badiiy o’qish tarixi va uning bugungi ta’lim tizimidagi o’rni
2. Kursning nomlanishi, maqsad va vazifalari.
3. Yod o’qish –badiiy o’qishning muhim sharti

Inson har jihatdan komil bo’lib tug’ilmaydi. Undagi fazilatlarining ko’pchiligi tarbiya vositasida yuzaga keladi. Insonlar kamolotisiz jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi haqida so’z bo’lishi mumkin emas.

San’atning barcha turlari insonni barkamol qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so’z san’atining inson kamolatidagi o’rni va roli beqiyosdir. So’z san’atining asosiy quroli bo’lgan badiiy so’zining sehri, ta’sir kuchi hamma jamiyatlarda ham tan olingap. Alisher Navoiy uqtirganidek:

Donau dur so’zni afsona bil,

So’zni jahon bahrida durdona bil.

So’zning kuchi, qudrati va ahamiyatini Navoiy ana shunday ta’riflaydi:

So’z durki, nishon berur o’lukka jondin,

So’z durki, berur jonga xabar janondin.

Insonni so’z ayladi judo hayvondin

Bilki, guhari sharifroq yo’q ondin.

So’zlarda ifodalanayotgan ma’noni chuqur his qilish, uni boshqalarga yetkaza olish san’ati hammaga ham nasib etavermaydi. Bunday iste’dodga ega bo’lgan kishilar hamisha ardoqlangan. Qadimda shohlar saroyida farmonlarni o’quvchi maxsus kishilar saqlangan. Badiiy asarlarni maromiga yetkazib o’quvchilar: roviylar, qissaxonlar yuksak qadrlangan.

Qadimgi Gretsiya, Rimda badiiy so’zdan foydalanish, notiqlik san’ati yuksak darajaga ko’tarilgan. Aristotel notiqlik san’ati haqida «Ritorika» nomli maxsus qo’llanma yaratgan. Demosfen, Sitseron kabi jahonga mashhur notiqalar nomi tarixda qolgan.

Badiiy so’z qudratini anglash, o’z faoliyatida uning kuchidan foydalanish bizning otabobolarimizga ham xosdir. Mana bir misol; Bobur Hindistonda Rano Sango qo’shinlariga qarshi olib borgan janglardan birida uning lashkarlari orasida sarosima, parokandalik yuzaga keladi. Vaziyatni tushungan Bobur lashkarlari oldida otashin nutq so’zlaydi. U, jumladan, shunday deydi: “Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur oxir dunyo g’amxonasidin kechkusidir, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o’lgan yaxshirok... Tangri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibdur va mundoq davlatni bizga qarayib aylabtur. O’lgan shahid va o’ldirgan g’oziy, barcha tangrining kalomi bilan ont ichmoq kerakkim, hech kim bu qotildin yuz yondurur xayol qilmay to badanidin joni ayrilmaguncha bu muhoriba va muqotiladin ayrilmagay».¹

Boburning bu da’vatidan so’ng tarqalish arafasida turgan lashkarlar shiddat bilan jangga otlanadilar va g’alaba qiladilar.

Badiiy so’zdan foydalanish san’ati bizning davrimizga kelib maxsus fan sifatida shakllandi. Mazkur fan maktab, litsey va kollejlarda, muallimlar tayyorlash oliy o’quv yurtlari, universitetlar dasturlaridan joy olgan bo’lib, u bo’lajak muallimlar, tarbiyachilarga so’z san’atidan mohirona foydalanish ko’nikmalarini berishga da’vat etilgan. O’rta maktablarning yangi dasturlarida badiiy o’qish va bahru bayt uchun 20 soat vaqt ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang’ich sinflardagi o’qish soatlari bunga kirmaydi.

O’zbekistonda mazkur fanni o’qitish yuzasidan darslik yaratilmagan bo’lsa-da, qator metodik qo’llanmalar tayyorlangan bo’lib, ular yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda ma’lum xizmat qilmoqda. K. Jo’raevning «Ifodali o’qish va hikoya qilish usuli» (1961 y.) nomli qo’llanmasi

¹ Gulbadanbegim.yu Humoyunnoma, Toshkent, 1959, 21-bet

boshlang'ich sinflar muallimlari uchun mo'ljallangan. Unda ifodali o'qishni amalga oshirish yuzasidan nazariy ma'lumotlar, mashqlar uchun materiallar berilgan.

S.Inomxo'jaevning «Badiiy o'qish asoslari» (1978 y.) qo'llanmasi teatr va pedagogika institutlari hamda madaniy-oqartuv texnikumlari uchun yaratilgan. S.Inomxo'jaev, A. Zunnunovlarning «Ifodali o'qish asoslari» (1978 y.) qo'llanmasi esa pedagogika bilim yurti talabalariga mo'ljallangan.

Yuqoridagilardan ko'inib turibdiki, mavjud qo'llanmalar nashr qilingan paytdan buyon oradan ancha vaqt o'tdi. O'zbekistonning mustaqil bo'lishi, ijtimoiy turmushda ro'y bergan bir qator voqealar fan va madaniyat sohasida juda ko'p masalalarni qayta tahlil etishni, hozirgi davr ruhiga moslashni taqozo qilmoqda.

Biz yuqoridagi qo'llanmalardagi qimmatli fikrlarga tayangan holda Andijon Davlat pedagogika institutida mazkur kursni o'tish yuzasidan to'plangap ko'p yillik tajribalarimiz asosida mazkur ma'ruza matnini yaratishiga jazm qildik. Qo'llanmaning yuqoridagi ishlardan farqi shundaki, unda nazariy materiallar, metodik ko'rsatmalar milliy zaminga tayangan holda bevosita o'rganilgan dars tajribalari asosida yoritildi.

KURSNING NOMLANISHI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Mazkur fan ilmiy-metodik adabiyotlarda turlicha nomlangan. Jumladan, bu fan «Deklomatsiya», «Adabiy o'qish», «Ifodali o'qish», «Ongli o'qish», «Badiiy o'qish» nomlari bilan atalgan. Fanning nomi turlicha atalishining sababi shundaki, bu fanni ko'pchilik turlicha tushunadi va shu bois, turlicha nom bilan ataladi. Mazkur atamalar ichida eng ommalashgani ifodali o'qishdir. Bizningcha, kursning nomini «Ifodali o'qish» deb nomlash to'g'ri emas. S.Inomxo'jaev qo'llagan «Badiiy o'qish» atamasi kurs mohiyatini to'g'ri ifoda qiladi.

O'qishning quyidagi turlari mavjuddir:

1. Oddiy o'qish.
2. Ifodali o'qish.
3. Sharhli o'qish.
4. Badiiy o'qish.

Oddiy o'qish deganda, harf tanuvchi, savodli odamning o'qishi tushuniladi. Oddiy o'qish jamiyatdagi barcha kishilarga xos bo'lgan, eng ko'p tarqalgan o'qish turidir. Bunda ma'lum qonuniyatlar, shartlar o'qish uchun asos bo'lmaydi. Demak, oddiy o'qish o'qishning birinchi bosqichidir.

O'qishning ikkinchi bosqichi ifodali o'qishdir. Ifodali o'qish deyilganda, ma'lum grammatik qonunlarga, tinish belgilarga rioya qilib o'qishni tushunamiz. Ifodali o'qish namunasini radio va oynai jahon suxandonlarining «Axborot» eshittirishlari va ko'rsatuvlaridagi chiqishlari misolida ko'rish mumkin.

Savodxon jamiyat fuqarosi, aqalli, ifodali o'qishning uddasidan chiqishi kerak. Ayrim mashhur kishilarning radio va oynai jahon orqali chiqishlarida o'z fikrini qog'ozga yozilgan matn vositasida ham to'la ifoda qila olmasligi kechirilmas holdir.

O'qish turlari ichida sharhli o'qish muhim rol o'ynaydi. Sharhli o'qish badiiy o'qishga o'tishdagi muhim bosqichdir. Sharhli o'qish deyilganda, matndagi so'zlar, iboralar ma'nosi, mazmunini o'qish jarayonida izohlanishi tushuniladi.

Sharhli o'qish o'zbek xalqi hayotida chuqur ildizlarga egadir. O'tmishda kishilarimiz navoiyxonlik, bedilxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik kechalariga yig'ilganlar. Sandal atrofidagi gurunglarda yuqoridagi nomlari qayd etilgan shoirlar ash'orlari o'qilib, ularning ma'no va mazmuni sharhlangan. Bunday suhbatlar adabiyot ixlosmandlarining fikrlash doirasini kengaytirgan, adabiy faktlarni har tomonlama tushunishga imkon bergan.

Andijonlik zukko adabiyotshunoslar Ulfat, H. Razzoqov, Boqir, Eshon aka, N.Qobulovlar bilan ko'p hamsuhbat bo'lganman. Navoiyning 525 yillik to'yi munosabati bilan oynai jahonda tashkil etilgan «O'tkir zehnlilar mushoirasi» ko'rsativiga tayyorgarlik jarayonida ustozlardan ko'p narsa o'rganganmiz.

Suhbatlarning birida Ulfat domla sharhli o'qishga doir ibratli bir misolni so'zlab bergan edi. U misol Fuzuliyning quyidagi bayti haqida:

Azal kotiblari ushshoq baxtin qora yozmishlar,
Bu mazmun ila xatt ul safxai ruxsora yozmishlar.

Bu baytdagi «qora» so'z i, avvalo rangni ifoda etadi. Sababi ikkinchi misradagi xatt (lab ustidagi yangi sabza urgan tuklar) «qora» bilan mos kelib, tanosub san'atini yuzaga keltiradi. Ulfat domla bilan birga madrasada tahsil olayotgan talabalar «qora» so'zidagi boshqa ma'nolardan kelib chiqib, bu yerda faqat tanosub san'atini emas, iyhom san'atining ham borligini, ochib, birinchi misrada: «Azal kotiblari oshiqlar baxtini qora yozganlar», — degan fikrdan tashqari quyidagi mazmunlarni ham kashf qilganlar:

2. Azal kotiblari oshiqlar baxtini qora (azim, katta) yozmishlar.

3. Azal kotiblari oshiqlar baxtini qora (qorga) yozmishlar.

Ulfat domlaning aytishicha, mumtoz adabiyot namunalari tahlilida zukko adabiyotshunos faqat bir mazmun bilan cheklanib qolmaydi. Zero, usta san'atkor yozuvchilar asl muddaoni, maqsadni so'z bag'ridagi keyingi ma'nolarda ifoda qiladilar. Bu esa sharhli o'qish asosida yuzaga keladi.

Sharhli o'qish faqat mumtoz adabiyot namunalarini tushunishdagina bo'lmasdan, zamonaviy adabiyot namunalarini tushunishda ham zarurdir. Badiiy o'qishga tayyorlanish jarayonida talabalar A.Oripovning «O'zbekiston» she'rini sevib yod oladilar, o'qiydilar. Mazkur she'rni badiiy o'qishga tayyorlash jarayonida sharhli o'qish talab qilinadi. Masalan:

Yurmasman hech behishtni izlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam, —

bayti o'qilgach, talabadan «behisht» so'zining ma'nosini, ikkinchi misra mazmunini so'rayman. Talaba «Behisht» so'zining mazmunini uyda lug'atdan topib kelgan bo'lishi kerak. Bu so'z «Jannat» degan ma'noni ifoda qiladi. Agar talaba ikkinchi mnsra mazmunini sharhlay olmasa, ustozning o'zi tushuntirib beradi.

A.Oripov bu misrada Hofiz Sheroziy, uning qishlog'i, uning mashhur g'azaliga ishora etmoqda. Hofiz Musallo qishlog'ini, Ruknobod arig'ini o'z g'azallarida ko'p tilga olgan. Masalan, uning mashhur;

Agar ko'nglimni shod etsa, o'shal Sheroz jononi,
Qora holiga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni, —

matla'li g'azalida shunday bayt bor:

So'n, ey soqiy, mayning oxirgacha jannatda topmaysan.
Bu Ruknobod qirg'og'idagi so'lim Musalloni.

A.Oripov jannatni izlab yurmaydi, O'zbekistonning o'zi — jannat. Musallo deb qalam yo'nmaydiki, O'zbekiston — Musallodan alo.

O'qishniig oliy bosqichi badiiy o'qishdir. Talaba ifodali o'qishni o'rgangach, sharhli o'qish orqali matn mazmunini o'zlashtirgach, ularga his-hayajon, yuz va ko'z harakati, imo-ishora — barcha badiiy o'qish vositalarini qo'shgach, badiiy o'qish yuzaga keladi.

Ko'pgina qo'llanmalar «Ifodali o'qish» deb nomlanishi bilan kelishib bo'lmaydi. Fanning nomini «Badiiy o'qish» - deb nomlamoq kerak. Chunki ifodali o'qish badiiy o'qishga o'tishdagi bir bosqich, xolos. O'zbekiston oynai jahoni suhandoni F.Bobojonovning «O'zbekiston axboroti» ko'rsatuvidagi chiqishi ifolali o'qish bo'lsa, uning «Bir aktyor ijrosi» ko'rsatuvidagi chiqishi badiiy o'qishga misoldir. Demak, kursning oldiga qo'ygan maqsadi — bo'lajak muallimga, adabiyotshunosga adabiy matnning mazmunini har tomonlama tushuntirish, vazifasi esa — ularda badiiy o'qish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Badiiy o'qish deganda faqatgina she'riy asarlarini me'yoriga yetkazib o'qishgina tushunilmasdan, nasriy, dramatik asarlarni ham me'yoriga yetkazib o'qishni tushunmoq kerak. Badiiy o'qishniig muhim xususiyatlaridan biri tinglovchiga ta'sir etadi. Uning qalbida go'zallikni anglash, tushunishga mayl, rag'bat uyg'otadi.

Tajribada shu narsa aniqlandiki, adabiy matnni badiiy o'qish undagi ayrim nuqsonlarni berkitganday bo'ladi. Men H. G'ulom va T.To'laning ayrim she'rlarini o'qiganimda, ular menga o'ta jo'n ko'ringan. Xuddi shu she'rlarni H.G'ulom T.To'la o'zi o'qiganda esa menda boshqacha taassurot qoldi. Masalan, H.G'ulomning «Diydorlashuv» she'rini o'rtamiyona she'r deb baholaganman. H. G'ulom kulliyotimiz mehmoni bo'lganda, bu she'rini shunday o'qidiki, avvalgi taassurotlarimni o'zgartirib yubordi.

Shoirni she'r yozishi boshqa olamu, she'r o'qishi boshqa olamdir. Aksar shoirlar bir qolipda she'r o'qiydilar. H. Xudoyberdieva, T.Sodiqova kabi shoirlarning she'r o'qishida H. G'ulom, T.To'la an'analarini ko'raman.

Ro'yi-rost aytish kerakki, bugun badiiy o'qish masalasi maktab va oliy o'quv yurtlarida zamon talabi darajasida olib borilmayapti. To'g'ri, maktabda ham, oliy o'quv yurtida ham matnni badiiy o'qiy oladigan, o'quvchi va talabani orqasidan ergashtira oladigan muallimlar bor. Ammo ular ozchilikni tashkil qiladi. Men xizmat qilayotgan kafedrada muallimlarning ellik foizi badiiy o'qishni uddalay olsalar, qolgan muallimlar bu masalada talabga javob bermaydilar.

Darslarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ko'pincha u yoki bu shoir lirikasi haqida to'qson minut va'z aytiladiyu, to'qqiz qator she'r yod o'qilmaydi (hali badiiy o'qish haqida gap yo'q). Bu ahvolni tubdan o'zgartirish kerak. Adabiyot o'qitadigan muallim talabalar huzurida qog'ozdan she'r o'qimasligi zarur.

Badiiy o'qishni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri matnni yod o'qishdir. Badiiy o'qishni o'rganmoqchi bo'lgan talaba quyidagilarni yodda tutmog'i kerak. Inson miyasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz umr davomida miya hujayralarining yarmini ham ishlatmaymiz. Bizning ota-bobolarimiz she'r yodlash borasida ibratli, hayratomuz faoliyat kursatishgan. Biz uzoq yillar davomida eski maktab, madrasadagi yod olish masalasini beomon tanqid qilib keldik. Holbuki, yod olish aqlni, hofizani charxlaydi, so'z boyligini oshiradi, nutqni ravon qiladi.

Bobomiz Aruziy Samarqandiy «Chahor maqola» risolasida shoir bo'lishning shartlaridan biri salaflar ijodidan 20 ming, zamondosh shoirlar ijodidan 10 ming bayt she'r yod bilish ekanligini uqtirgan. Alisher Navoiy «Muhokamat-ul lug'atayn» asarida shunday yozadi: «Yigitligim zamoni va shabob ayyomida avonida ko'proq she'rda sehroz va nazmda fusun pardozi sharoning shirin ash'ori va rangin ab'yotidin ellik mingdan ortiq yod tutubmei va alar zavq va xushholligidin o'zumni ovutupmen».

Mirzo Bobur «Boburnoma» asarida shoir Hiloliy haqida ma'lumot berib, uning hofizasi kuchli ekanini shunday ta'kidlaydi: «Yana Hiloliy edi. Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttiz-qirq ming bayt yodida bor emish».

Badiiy o'qish darslarida Navoiy, Hiloliy snngari kishilarning minglab bayt yod bilishini ibrat qilib ko'rsatib, talabalarining ko'p she'r yodlashga rag'batini hosil qilindi.

Bunday faktlar faqatgina o'tmishgagina mansub bo'lmasdan, bizning davrimizga ham xosdir. Shaxmat bo'yicha jahon chempioni G.Qasparov Ye.Yevtushenkoning barcha she'rlarini yod biladi. O'zbekiston xalq shoiri A.Oripov juda ko'p she'rlarni yod o'qiy oladi Marhum shogirdimiz O.Hamraqulov E.Vohidov ijodini to'la yod biluvchi edi. Shunday shoirlar borki, davraga chiqib, o'z she'rini ham qog'ozga qarab o'qib berishadi. Buxorolik keksha shoirlardan biri Safo Mahsum qog'ozga qarab she'r o'qiydiganlarni «nimcha shoir» (notugal shoir) derdi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar ikki xil usulda she'r yodlaydilar. Ayrimlari to she'r yod bo'lmaguicha qayta-qayta o'qiyveradilar. Boshqalari esa avval ikki misra yodlab, so'ng yana ikki misra qo'shadilar. Bandni qayta-qayta o'qib, tayyor qilgach, yana ikki misra yod oladilar. Avvalgi bandga buni qo'shib qaytarib ko'radilar. Bizningcha, keyingi usul she'r yodlashdagi maqbul usuldir.

Badiiy o'qishni o'rganishga kirishgan talaba hech qachon matnni ichida o'qimasligi kerak. Ovoz chiqarib o'qish, o'zining ovozi nazorat qilish badiiy o'qishni egallashda yaxshi natija beradi. Badiiy o'qiyotgan kishi qachonki o'zi o'qishidan zavqlansagina bu tuyg'u boshqalarga ham «yuuqadi».

Badiiy o'qishni o'rgatishda adabiyot muallimi asosiy rol o'ynaydi. Oliy va o'rta maktablardagi adabiyot muallimi kiyinishi, yurish-turishi, so'zlashi, xususan, matnni o'qishi (she'riy matnlarni, albatta, yod o'qish) jihatdan boshqalardan ajrab turishi zarur.

Adabiyot muallimi yoshlarga badiiy o'qishni o'rgatish orqali ularni go'zallikni tushunadigan, undan zavq ola biladigan, eng muhimi, hayotda go'zalliklarni yaratishga, uni ko'paytirishga xizmat qiladigan qilib tarbiyalashi zarur.

Adabiyot muallimi talaba xatosini aytib, uning sababini tushuntirishning o'zi yetarli emas. Uqituvchi matnni qanday o'qish kerakligini amalda ko'rsatib berishi kerak. Shundagina talaba badiiy o'qish yo'llarini o'rganadi. «Undoq o'qi», «Bundoq o'qi» singari buyruq berish bilan badiiy o'qishni o'rgatib bo'lmaydi.

Badiiy o'qishning ahamiyatini anglamoq uchun quyidagi faktga murojaat etaylik. Alisher Navoiy «Majolis-un nafois» tazkirasining yettinchi majlisida Temur Ko'ragon haqida fikr yuritib, shunday yozadi: «Agarchi nazm aytmogga iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrlarni andoq xo'b maxal va mavqida o'qubturlarkim, aningdek bir bayt o'qig'on ming yaxshi bayt aytqoncha bor».

Qarangki, Navoiy Temur singari bir baytni me'yoriga yetkazib o'qishni ming bayt she'r aytgandan ustun qo'ymoqda. Ha, badiiy o'qish ana shunday zo'r san'at hisoblanadi.

Badiiy o'qishning qiyin san'at ekanligini tushunish uchun quyidagi holatni solishtiraylik. Aktyor sahnaga chiqar ekan, unga rejissyor ko'rsatma beradi, sahna matn mazmuniga qarab jihozlanadi, maxsus kostyum tikiladi, matn mazmuniga mos musiqa, nurdan foydalaniladi. Adabiyot muallimi esa oddiy xonada, ovoz va iste'dodi orqali badiiy o'qishni yuzaga keltirishi zarur.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, ustozning, hurmatli kishining ibrati, da'vati ko'pchilikning rag'batiga sabab bo'ladi. Amir Temurning birinchi piri Shamsiddin Kulol bo'lsa, asosiy piri Sayid Baraka edi. Temur faoliyatidagi ko'p ishlar Sayid Baraka maslahati, da'vati bilan amalga oshgan. Shuning uchun ham Amir Temur o'z jasadini pirining oyoq tomoniga qo'yilishini buyurgan edi.

1391 yili Amir Temurning Ural bo'yidagi To'xtamishxon bilan bo'lgan jangida Temur askarlari og'ir ahvolga tushib qoladi. Shunda Sayid Baraka otdan tushib mayda toshlar teradi. Otga minib, duo qiladi va mayda toshlarni dushman tomon otib: «Yog'i qochdi», — deydi. Temur askarlari ana shu da'vatdan ilhomlanib, muhim g'alabani qo'lga kiritadilar.

Bog'chadagi tarbiyachi, maktab va oliy o'quv yurtidagi adabiyot muallimi ana shunday da'vatkor vazifasini o'tashi kerak.

Badiiy o'qish kursi oliy maktabda adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, adabiyot o'qitish metodikasi, til o'qitish metodikasi singari fanlar bilan zich bog'liqdir. Badiiy o'qish kursi faqat mazkur kurs o'qilayotgan bosqichda cheklanib qolmasdan, sinov, imtihon jarayonida, amaliy mashg'ulotda, darsdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda ham davom etishi kerak.

Badiiy o'qish vositalari.

R Ye J A :

1. Ovoz va undan foydalanish vositalari
2. Urg'u va pauzaning badiiy o'qishdagi o'rni
3. Temp va diktsiya
4. Mimika va imo-ishora

BADIY O'QISH VOSITALARI

Badiiy o'qish ko'nikmasini egallash uchun badiiy o'qish vositalarini bilmoq, ularni amalda qo'llay olmoq zarur. Badiiy o'qish vositalariga quyidagilar kiradi: ovoz, intonatsiya, urg'u, pauza, talaffuz, temp, yuz-ko'z harakati, imo-ishora.

O V O Z

Adabiyot o'qituvchisining ovozi jarangdor, yoqimli bo'lmog'i kerak. Ovozida nuqsoni bo'lgan muallimlar uni kamchiliklardan holi bo'lishiga erishmoqliklari zarur. Hamisha ovoz chiqarib o'qish, tovush paychalarini zo'riqtirmaslik, shamollatmaslik, mashq qilish orqali ovozdagi

nuqsonni yo'qotish, aqalli, o'quvchi sezmaydigan darajaga keltirish mumkin. Mashq jarayonida H.Umarov, Q. Maxsumov, A.Rafikov, T.Tojievlar ijrosidagi asarlarni tinglash yaxshi natija beradi.

Ovoz past-baland, ingichka-yo'g'on, jarangdor-jarangsiz, yoqimli-yoqimsiz, mayinlik-qo'pollik xususiyatlariga ega. Ovozning bu xususiyatlaridan ijobiy ma'nodagilarini egallash, matn mazmunidan kelib chiqib, o'qish jarayonida ulardan mahorat bilan foydalaniish zarur.

Badiiy o'qish jarayonida ovozdan foydalanishda quyidagilarga e'tibor bermoq kerak.

1. Matn o'qilayotgan joy va tinglovchilar soni hisobga olinadi. Universitet katta majlislar xonasida ovoz boshqacha berilsa, adabiyot to'garagi qatnashchilariga matn o'qilayotganda boshqacha ovoz ishlatiladi. Matn o'qiyotgan kishi ovozini oldingi qatordagi o'quvchi ham, orqa qatordagi o'quvchi ham bemalol eshitishi kerak.

Ba'zan hayron qolaman. Pedagogika muallimlari: Q.A., M.A.lar darsini butun koridorda eshitish mumkin. Ular o'z nazdida jon kuydirib, bor ovoz bilan yaxshi dars o'tayapman, deb o'ylaydi. Aslida-chi? Ovozni me'yoridan ortiq baland qo'yish, birinchidan, muallimni charchatadi. Ikkinchidan esa, tinglovchilarning eshitish, qabul qilish a'zolarini shu qadar toliqtiradiki, ular keyingi soatdagi darsni yaxshi qabul qila olmaydilar. Shuning uchun ovozdan yuqoridagi shartlar bo'yicha me'yorida foydalanish kerak.

2. Ovozning past yoki baland qo'yilishi o'qilayotgan matn mazmuniga bog'liqdir. Agar lirik kayfiyat ifodalovchi, sevgi, ezgulik kabi mazmundagi bandlar, matnlar o'qilayotgapda ovoz bosiq, mayin bo'lmog'i talab qilinadi. Masalan:

Ko'rmay desam, ko'zim ko'r emas,
Yurmay desam, oyog'im butun.
Lekin qalblar ortiq jo'r emas,
Hayollarga bo'laman tutqun.

(Mirtemir).

Matn mazmunida g'urur, iftixor, shodlik singari kayfiyatlar ifodalansa, ovoz baland, jarangdor bo'lishi zarur.

Amerika sehrli diyor
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor.
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston — Vatanim manim.

(A. Oripov).

3. Ovozning past yoki baland qo'yilishi she'r tizimiga ham bog'liq. Aruz she'r tizimida ovoz o'rtacha, mayin tarzda beriladi:

Ko'rgali husningni zoru muhtalo bo'ldim sango,
Ne baloliq kun edikim oshno bo'ldim sango.

(A. Navoiy).

Erkin she'r tizimiga mansub she'rlarda xitob, chaqiriq, jo'shqin kayfiyatlar ifodalangani uchun ularda ovoz baland, shiddatli beriladi:

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llardir...
Konfutsi, shomoni, islom va budda,
But va tasbeh yuklangan karvonlar...
Xuddi shu yo'ldan zang urib,
Childirma qoqaroq,
Takbirlar hayqirib,
Qurbon, — deb
- Qurbon, — deb kechmishdir.

(G'. G'ulom).

4. Bir she'r bir xil ovozda o'qilmaydi. Bandlar mazmunidan kelib chikib, har band o'zgacha ovoz bilan o'qilsa, ta'sirchanlik ortadi. Bir xil ovozda o'qilgan she'r tinglovchini zeriktiradi, she'rdagi g'oyaviy niyat, his-hayajon to'la ifodalanmaydi. A. Oripovning «O'zbekiston» she'ridagi yonma-yon keluvchi quyidagi; bandlar ikki xil ovozda o'qiladi. Quyidagi bandda ovoz qat'iy, jarangdor bo'ladi:

Tinch turarmi bu ko'hna olam
Tinch turarmi dog'uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon
Qonim oqdi Dantsigda manim
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezoymas g'anim
O'zbekiston — Vatanim manim.
O'zbekiston atalgan bog'da.

Mana bu bandda esa ovoz mayin, dardchil berilmog'i kerak:

Kech kuz edi, men seni ko'rdim!,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz,
Deding: «Paxtam qoldiku axir,
Yig'ishtirmay kelmasdan ayoz».
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston — Vatanim manim.

INTONASIYA

Ovozga daxldor bo'lgan badiiy o'qish vositalaridan biri intonatsiyadir. Intonatsiya lotincha so'z bo'lib, ma'lum vaqt doirasida ovozning tebranishidir. Badiiy o'qishda ovozni past yoki baland qo'yishdan tashqari banddagi mazmun, ruhiy kayfiyatdan kelib chiqib, ovozni tebrantira olish muhimdir. Intonatsiya orqali banddagi mazmun konkretlashadi. Bir matnning o'zida intonatsiyani o'zgartirish orqali quvonch, g'urur, mamnuniyat va aksincha, g'azab, nafrat, iztirob singari tuyg'ularni ifodalash mumkin.

«Yana keldingizmi?» — so'roq gapidan intonatsiyani o'zgartirish orqali yuqoridagi mazmunlarni yuzaga chiqarish mumkin.

Intonatsiya o'rinli qo'llansa, matndagi g'oyaviy niyat tinglovchiga lo'nda, ta'sirchan holda yetib boradi. G'. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ridagi quyidagi parchada intonatsiya to'g'ri qo'llansa, parchadagi fashizmga — Gitlerga bo'lgan kuchli nafrat, g'azab yorqin ifodalanadi:

Ota-onasining
Tayini ham yo'q,
Sut ko'r qilgur, haromi
Gitler oqpadar —
Farzandning qadrini
Qaerdan bilsin?

H. Olimjonning she'ridan olingan quyidagi bandda esa intonatsiya butunlay boshqacha bo'lishi talab qilinadi. Ovoz tebranishi orqali lirik qahramonning ma'shuqasiga bo'lgan yuksak mehr-muhabbati kuchli lirik ohang orqali ifodalanadi:

Kechir meni, nozli malagim,
Seni maqtay olmasim tayin.
Senga shuncha chiroy bergan kim?

Aytib bergin, uni maqtayin.

Ovozni tebrantira olish ko'nikmasini hosil qilishda kundalik mashqlardan tashqari badiiy o'qish ustalari ijrolarini tinglash ham yaxshi natija beradi. Ardoqli suhandon Q.Mahsumov, Milliy teatri aktyori M.Abduqunduzov ijrolaridan intonatsiyadan qanday foydalanish mahoratini o'rganish mumkin.

U R G' U

Badiiy o'qish vositalaridan biri urg'u hisoblanadi. Urg'uning to'g'ri qo'llanishi bandlar mazmunidagi g'oyaviy niyatni, ta'kidni yuzaga chiqaradi. Badiiy o'qishda urg'uning ikki turi: fonetik urg'u va mantiqiy urg'udan foydalaniladi.

Fonetik urg'u so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqalarga nisbatan kuchliroq talaffuz etilishini ifodalaydi. Misra tarkibidagi bo'g'inlar soni unililar soni bilan o'lchanadi. Masalan: Jayrondek termulgan Cho'lponlarning bor (M. Yusuf) misrasida o'n bir unli mavjud bo'lib, bo'g'inlar soni ham o'n bittadir.

Bo'g'in deyilganda, bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasi tushuniladi. Bo'g'inlar ochiq yoki yopiq, cho'ziq va qisqa shakllarga ega bo'ladi. Agar bo'g'in unli tovush bilan tugasa, ochiq, undosh tovush bilan tugasa, yopiq bo'g'in sanaladi. Lo-la, o-na kabi bo'g'inlar ochiq va cho'ziq bo'g'inlardir. Bir, qiz kabi bo'g'inlar yopiq va qisqa bug'inlar hisoblanadi. Bo'g'inlarning cho'ziq yoki qisqaligi aruz she'r tizimida alohida ahamiyatga egadir. Fonetik urg'u olgan bo'g'in ustiga chiziqcha qo'yiladi.

Fonetik urg'u o'zbek tilida, asosan, so'zning (o'zakning) oxirgi bo'g'iniga tushadi. Kitob, qalam kabi. Ammo tilimizda shunday so'zlar ham borki, fonetik urg'u birinchi yoki ikkinchi bo'g'inlarga ham tushishi mumkin. Aslo, ammo, hamisha kabi.

Fonetik urg'uni qo'llashda quyidagi holatni ham hisobga olish zarur. O'zbek tilida urg'u olmovchi bo'g'inlar ham mavjuddir. Ularni bilmaslik, avvalgi aytilgan qoidalarga binoan, urg'u qo'llash badiiy o'qishga putur yetkazadi. Q.Jo'raevning «Ifodali o'qish va hikoya qilish usuli» nomli kitobida urg'u olmaydigan bo'g'inlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:

1. -mi, -chi, -u, -yu, -ku, -da, -gina (-kina, -qina) yuklamalari.
2. To'liqsiz fe'lniig qisqargan formalari: borarkan, borarmish.
3. -.ma bo'lishsizlik qo'shimchasi.
4. «Bilan» ko'makchisining qisqarishidan hosil bo'lgan -la shakli.
5. -cha, dek qo'shimchalari.
6. Ot kesimdagi kesimlik qo'shimchasi, Men talabaman.
7. Sonlardagi -ta qo'shimchasi.
8. Familiyalarning oxiriga qo'shilib keladigan -ov, -ova ko'shimchalari.
9. Buyruq fe'lining tuslovchi qo'shimchalari:

Shunday o'lka doim bor bo'lsin.

Shunday o'lka elga yor bo'lsin-

(H. Olimjon).

Misra tarkibidagi so'zlardan birining boshqalarga nisbatan kuchli ohang bilan talaffuz qilinishi mantiqiy urg'u sanaladi. Mantiqiy urg'u olgan so'z misradagi mazmunni, muallif g'oyaviy niyatini ifodalovchi asosiy so'z bo'ladi. Masalan:

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

(H. Olimjon).

Birinchi misradagi «Bir tup», ikkinchi misradagi «oppoq» so'zlari mantiqiy urg'u oladi. Bayt o'qilayotganda bu ikki so'zning boshqa so'zlarga nisbatan kuchli ohang bilan o'qilishi shoir muddaosini yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy o'qishga tayyorlanayotgan matnda uyushiq bo'laklar, takrorlangan so'zlar bo'lsa, ularning har biri mantiqiy urg'u oladi. Urg'u avvalgisiga nisbatan keyingisida kuchayib boradi. Masalan:

Bu yerda na g'urbat, na ofat, na g'am.
Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat,
Va mehnat nonini ko'ramiz baham.

(G'. G'ulom).

Bu bandda uyushiq bo'laklar mantiqiy urg'u olmoqda. O'qishda ohang «g'urbat»dagidan «ofat» so'zida, bu so'zdan «g'am» so'zida kuchli bo'ladi. Keyingi uyushiq bo'laklarda ham shunday ohang bo'lishi shart.

Kaddu xating bila ko'zu yuzing, ey sarvi siymin tan,
Biri sarvu, biri rayhon, biri nargiz, biri gulshan.

(Bobur).

Ikkinchi misradagi «biri» so'zi takrorlanayotgani uchun mantiqiy urg'u oladi.

Badiiy o'qishga tayyorlanayotgan matndagi bo'g'inlarga fonetik urg'u, so'zlarga mantiqiy urg'u qo'yilib, o'qish jarayonida unga amal qilinsagina, badiiy o'qish darajasiga erishish mumkin.

P A U Z A

Badiiy o'qishning ta'sirchan chiqishida pauza (lotincha so'z bo'lib, nutq orasidagi to'xtam, sukut) muhim rol o'ynaydi. To'xtamning uzoq va qisqaligiga ko'ra oddiy pauza, katta pauzalarga bo'linadi. Matnda oddiy pauza tikka chiziq bilan, katta pauza ikkita shunday chiziq bilan belgilanadi.

Pauza bundan tashqari grammatik pauza va mantiqiy pauzalarga bo'linadi. Grammatik pauza tinish belgilar asosida yuzaga keladi. Tinish belgilardagi pauza o'rni, darajasi S.Jo'raning «Tinish belgilarning majlisi» she'rida shunday ifodalanadi:

Fikrlarning stantsiyasi — nuqtadirman,
Har darak gap oxirida to'xtaydirman.
Parovozlar yo'l olgandek stantsiyadan
Menga yetgach, olmoq kerak to'lik bir dam!
Verguldan keyingi pauza haqida shunday yozilgan:
Fikrlarning «raz'ezdi»man, menda bir pas,
Olib o'tar har o'chuvchi yarim nafas.

Ko'rinadiki, nuqtadan so'ng to'liq nafas olinib, pauza qilinsa, verguldan so'ng yarim nafas olinib, pauza qilinadi. Nuqta va verguldan keyingi pauzalar oddiy pauza sanaladi. Ikki nuqta, teng bo'laklar orasida ishlatilgan tiredan so'ng ham oddiy pauza qilinadi.

Mana G' rais: G' «Vaqt tamom, to'xtangiz», —
deb qoldi-ku. Mayli endi yo'q gapimiz.

(S. Jo'ra).

«Haydar otasidan qolgan meros — G' tegirmonni aylantirib kun ko'rar edi», (A. Qahhor).

Uch nuqtadan so'ng katta pauza qilinadi. Katta pauzada yutinish, nafas rostdash, labni til yordamida ho'llab olish mumkin.

Konfutsi, shomoni, islom va budda,
But va tasbih yuklangan karvonlar... G`G`

(G'. G'ulom),

G'.G'ulomniig «Sei yetim emassan», «Turksib yo'llarida», H.Olimjonning «Baxtlar vodiysi» singari she'rlarini o'qishda ta'sirchanlikni ifodalash uchun katta pauzalardan o'rinli foydalanish talab etiladi.

Pauzaniig ikkinchi turi mantiqiy pauza bo'lib, gap yoki misradagi so'z gruppalarini bir-biridan ajratib, ulardagi mazmunni yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

Barmoq vaznidagi she'r tizimida mantiqiy pauzaning quyidagi ko'rinishlari bor. Misra ichidagi mantiqiy pauza o'rnini turoqlar belgilaydi.

«Vodiylarni yayov kezganda» misrasida 9 ta bo'g'in bo'lib, 4 Q 5 shaklidagi 2 ta turoqdan iborat. Misra bir sidrasiga o'qilmasdan birinchi turoqdan (vodiylarni) keyin oddiy pauza qilnnadi. So'ng mantiqiy mauza misra oxirida va bandlar o'rtasidagi pauza misra oxiridagi pazuga nisbatan kattaroq bo'ladi.

She'riing mazmuni va bandlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish asosida ayrim bandlar o'rtasida pauza bo'lmasligi ham mumkin. A.Oripovning «Munojot»ni tishlab» G'she'rining birinchi va ikkinchi bandlari o'rtasida pauza bo'ladi. Ikkinchi bandning oxiridagi «Xayommikin dod» so'zlaridan keyin pauza qilinmasdan, uchinchi, to'rtinchi bandlar o'qiladi. To'rtinchn banddagi «Jallodsan, dunyo!» so'zlaridan so'ng katta pauza qilinadi. She'r o'quvchi to'xtab, nafasini rostlab, birinchi bandni qanday sokin boshlagan bo'lsa, oxirgi bandni ham o'sha tarzda o'qiydi.

Aruz she'r tizimida mantiqiy pauza o'rni ruknlarga bog'liqdir. Misra necha rukndan tashkil topgan bo'lsa, ular teng bo'linib, o'rtada pauza qilish ta'sirchanlikni orttiradi. A. Navoiyning «Mehribone topmadim» g'azalining birinchi misrasida mantiqiy pauza quyidagicha bo'ladi. Avvalo, misra ruknlarga ajratiladi:

Mehr ko'p ko'rgazdim ammo — mehribone — topmadim. Misrada to'rtta rukn bor ekan, demak ikkinchi rukndan so'ng pauza qilinadi.

Mehr ko'p ko'rgazdim ammo G' mehribone topmadim.

Baytlar oxiridagi pauza yuqoridagi pazualarga nisbatam hajm jihatidan kattaroq bo'ladi. Aruz she'r tizimida ham ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida baytlar o'rtasida pauza qilmaslik mumkin. Bunda yuqoridagi bayt bir so'z bilan tugasayu, keyingi bayt o'sha so'z bilan boshlansa, pauza qilmay o'qish maqsadga muvofiq bo'ladi

Eshigingda it bikin / bosdim necha yil qovrilib /
Ushbu holimni ko'rib / kofir, musulmon yig'ladi.
Yig'ladi hatto raqibning / rahmi kelgandin mengo /
Bori un qattiq ko'ngillik / chinmi, yolg'on yig'ladi/
(Sakkokiy).

Erkin she'r tizimida pauza o'rni o'zgachadir. Bu she'r tizimida bir so'z ham bir misrani tashkil qilishi mumkin.

Shuning uchun ularda misra oxirida hamisha pauza qilinmasdan, pauza ma'lum fikr tugalligi ifodalangandan so'ng qilinadi.

Jahonning fотиhi Iskandar!
Rum qaysari, qotil Chingiz, Botu, Jo'ji,
Temurlang qoldirib kimsasiz iz!
Chindan mo'g'ul o'chi borliqni jonliga qilib tang
—Qon — deya
—Qon — deya bosaroq kechmishdir!

Mantiqiy pauza o'rnining ko'chishi gapdan anglashilayotgan mazmunni butunlay o'zgartirib yuboradi. Quyidagilarga e'tibor bering:

Aldasam / sizni yer yutsin.
Aldasam sizni / yer yutsin.
(«Maysaraning ishi» operasidan)

«Bir kuni Afandi a'lam bilan gaplashib o'tirganda, ularning gaplari bir-biriga to'g'ri kelmay qolibdi. Shunda afandi a'lamni «Siz amoq odamsiz», — deydi. A'lam uni podshoning oldiga sudraydi. Podsho Afandiga do'q-po'pisadan keyin:

Hozir jallod chaqiraman, — deydi.

Afandi a'lamga qarab:

— Siz ahmoq / odam emassiz / , — deydi»/

TALAFFUZ

Talaffuz so'z tarkibidagi unli va undosh tovushlarni, matn tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ohang bilan o'qilishini yuzaga chiqaradi. Talaffuz fonetik urg'u olgan bo'g'inlar, mantiqiy urg'u olgan so'zlar ohangidagi farqlarni ko'rsatadi. Bo'g'in va so'zlarning to'g'ri talaffuzisiz badiiy o'qish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Tajribada shu narsa kuzatilganki, ayrim maktab o'quvchilari, hatto talabalar talaffuzida nuqsonlar uchraydi. Eng ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri «r» tovushini «y» tovushiga monand holda talaffuz qilishdir. Masalan: «bir» — «biy», «kar» — «kay», «arra» — «ayya» kabi. Shuningdek, «s» «l» tovushi talaffuzida ham nuqsonlar uchraydi.

Talabalarga, o'quvchilarga shuni uqtirish zarurki, talaffuzdagi tug'ma nuqsonni mashq orqali yo'qotish mumkin. Jahonga mashhur notiq afinalik Demosfen bolaligida juda nimjon va kasalmand bo'ladi. U hayotiy ehtiyoj tufayli notiqlik san'atiga doir nazariy kitoblarni astoydil o'rganadi, talaffuzidagi nuqsonlarni yo'qotish uchun tinimsiz mashq qiladi. Og'ziga tosh solib olib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. «r» tovushini to'g'ri talaffuz etish uchun kuchuk bolasining irillashini soatlab kuzatadi, o'zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi. Oqibat, ana shu mashqlari tufayli jahonga mashhur notiq bo'lib yetishadi.

Talaffuzida «r» tovushini ayta olmaydigan talaba har kuni tarkibida «r» tovushi bo'lgan uchtdan so'zni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilib borsa, talaffuzidagi nuqsonni yo'qotishi mumkin. Masalan, bir kun «arra», «karra» «marra» so'zlari talaffuzini mashq qilishi mumkin.

T Ye M P

Badiiy o'qish vositalaridan biri temp lotincha so'zdan olingan bo'lib, sur'at, daraja degan ma'nolarni ifodalaydi. Temp badiiy o'qishda nutq tezligini ifoda qiladi. Nutq tezligi sekin, o'rta, tez singari darajalarga bo'linadi.

Badiiy o'qish bilan shug'ullanayotgan odam she'r bandlarida ifodalangan mazmundan kelib chiqib, har bir bandni turlicha tezlikda o'qiydi. Agar she'r bir xil tezlikda o'qilsa, ta'sir kuchini yo'qotadi. Masalan, A.Oripovning «Munojot»ni tinglab» she'ridagi birinchi band mazmundan kelib chiqib, sokin, sekin tempda o'qiladi.

Qani ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag'rimni ohang.

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.

Ikkinchi bandda temp bir oz tezlashadi. Shoir qalbidagi iztirob, isyon, tug'yon ifodalangan uchinchi, to'rtinchi bandlarda avvalgi sokin temp o'rnini shiddatkor, keskip temp egallashi zarur:

Bas, yetar, chalg'uvchi, bas qil sozingni,

Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.

Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir,

Agar shu «Munojot» rost bo'lsa agar.

Agar aldamasa shu sovuq simlar,

Gar shu eshitganim bo'lmasa ro'yo.

Sen beshik emassan, dorsan tabiat,

Sen ona emassan, jallodsan dunyo!

So'ngi banddagi nutq tezligi xuddi birinchi banddagi nutq tezligi singari sokin, mayin beriladi:

Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar «Munojot»,
Kuyi shunday bo'lsa g'amning o'ziga
Danday chiday olgan ekan odamzod!

YUZ VA KO'Z HARAKATI

Badiiy o'qishda yuz va ko'z harakati, holati matn mazmunini tinglovchiga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Yuz va ko'zning qanday holatda bo'lishini, qanday harakat qilishini bandning mazmuni belgilaydi.

Agarda bandda shodlik, quvonch, baxtiyorlik ma'nolari ifodalansa, yuz va ko'zda ana shunga monand ifoda bo'lmog'i kerak. Matnda g'am, alam, iztirob mazmuni mavjud bo'lsa, yuz va ko'z ifodasi ana shu mazmunga mos bo'lmog'i kerak.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash kerakki, band mazmuniga mos bo'lmagan yuz va ko'z harakati tinglovchi g'ashiga tegadi, bachkanalikni yuzaga keltiradi.

O'quvchilarga, talabalarga bu masala uqtirilayotganda, ko'pchilikda uchrovchi quyidagi xatolar avvaldanoq tushuntirilmog'i kerak:

1. Ayrim talabalar badiiy matn o'qiyotganlarida yerga yoki xonadagi biror nuqtaga tikilib o'qiydilar. Bu mutlaqo noto'g'ridir. Bu xatoning kelib chiqishi sababi shundaki, talaba badiiy matnni bir joyda turib yodlagan bo'ladi. Agar u ko'zini xonada o'tirgan o'rtoqlariga qaratsa, diqqati bo'linadi, she'rni o'qiy olmaydi.

Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun badiiy matn yod olingach, uni uyning turli joylarida o'qib ko'rishi kerak. O'tirgan holatda, o'rnidan turib o'qishi zarur. Shunda diqqat bo'linsa ham, matnni o'qiy olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Ayrim talaba doskaga chiqib, o'qishni boshlashi bilan ko'zi shiftga qadalib qoladi. Bu nuqson talaba matn o'qishni boshlashi bilan o'zini nazorat qilishi unutishi tufayli yuzaga keladi. Badiiy o'qish jarayonida o'zini nazorat qilish, o'qishdan zavq ola bilish zarur.

Yoshlar orasida ko'zi «gapirmaydigan» — matn mazmuniga ko'zi mos kelmaydigan, ko'z ifodasi o'zgarmaydiganlari ham uchraydi. Bunday yoshlar uyda, oyna oldida ko'p mashq qilishlari zarur. Mashq uchun tanlangan matnlar rang-barang mavzularda bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Qayinzor qa'ridan uzildi bir o'q
Yurakda dog' qoldi, yurakda bir cho'g'.
Cho'lponing bor edi, Cho'lpon endi yo'q,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?
(M.Yusuf)

Oqib ketdi suvlarda Tohir,
Zuhro yig'lab qoldi qon bag'ir,
Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur, muhabbat qolur.
(M.Yusuf)

Sen kulib turibsan, har qanday shoir
Ko'zlaring o'tida erib ketadi.
Hofizi Sheroziy tirilib hozir,
Holingga dunyoni berib ketadi.
(E.Vohidov)

Qalpoq oldi Matmusa,
Qalpoq desa qalpoqday.

Uni kiyib Matmusa,
Yigit bo'ldi chaqmoqday.

(E. Vohidov)

4. Yuz ifodasida quyidagi holat ko'pchilikda uchraydi: badiiy o'qish jarayonida bir so'z, misra xotirasiga kelmay qolsa, talaba yuzini shunday burishtiradiki, kulgili holat yuzaga keladi. Yuqorida aytilganidek, badiiy o'qishga chog'langan kishi har qanday holatda o'zini boshqarishi kerak.

Qizlar matn o'qiyotganda, yuqoridagi holat yuz bersa — so'z yoki misrani adashtirib qo'ysa, darrov tilini chiqarish odati uchraydi. Bu holat ham o'zini nazorat qila olmaslik oqibatida ro'y beradi.

IMO-ISHORA

Badiiy o'qishda asarning g'oyaviy mazmunini, undagi tuyg'ulani tinglovchiga yetkazishda imo-ishoraning ham o'z o'rni bor. Imo-ishora deyilganda matn o'qiyotgan kishining qo'l, bosh, gavda, oyoq harakatlari tushuniladi. Imo-ishora matnda ifodalangan narsa, joy, holatni tinglovchi ko'z oldiga keltiradi. Masalan: M.Yusufning «Yo'qlov» she'ridagi quyidagi bandda quyidagicha imo-ishoralar qilish mumkin:

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Aytsam ado bo'lmas armonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Birinchi misrada «ko'ngil» so'zida she'r o'quvchi qo'li o'z ko'ksiga olib kelinsa, «osmonlaring bor» birikmasida esa qo'l bilan osmonga ishora qilinadi. Ikkinchi misrada qo'l kafti tinglovchi tomon ko'rsatilib, chap va o'ng tomonga harakat qildiriladi. Uchinchi misrada «o'tmishingni o'ylab» birikmasini o'qish jarayonida qo'l orqa tomonga cho'zilsa, to'rtinchi misrada qo'l bilan yer ko'rsatiladi.

Imo-ishorani amalga oshirishda turli predmetlardan foydalanish mumkin. Kitob, qalam, ro'molcha, ro'mol, stol, stul singari o'quv xonasida mavjud narsalar imo-ishoraning yanada yorqin chiqishiga yordam berishi mumkin.

Dramatik asarlar yuzasidan badiiy o'qish darsimda N-ismli talaba Gulbahor monologini ijro etayotib, ro'moldan yaxshi foydalandi. Gulbahor monologi tugashi jarayonida talaba boshidagi ro'mol ham sekin yerga tusha boshladi. Ro'molning bir uchi talaba qo'lida. U Gulbahorning hazin qo'shig'ini aytib, sekin xonadan chiqqa boshladi. Ro'mol polda sudralib, qo'shiq matnidagi tuyg'uni har bir talaba qalbiga ko'chirdi

Uzun, uzun arg'amchi
Yerda yotsa maylimi?
Essizgina Asqarjon :
Go'rda yotsa maylimi?

Talaba eshikni ochib, shu zaylda xonadan chiqib ketdi. Hamma talabalar kiprik qoqmay, lol bo'lib qoldilar Monolog tugasa ham, xuddi voqealar davom etishi kerakday, xonada jimjitlik hukmron edi.

Imo-ishora qo'llashda talabalarda uchrovchi xatolar borki, bularni talabalarga yaxshi uqtirib qo'ymoq kerak. Ayrim talabalar she'r o'qiyotib, she'r ohanggiga monand oyog'ini o'ynatib turadi. O'g'il bolalar so'z yoki misrani xotiriga keltira olmasa, qo'lini boshi orqasiga olib borib, boshini qashlay boshlaydi.

Qizlar she'r o'qiyotganda esa tugmani, sochni o'ynash singari holatlar kuzatiladi. Bularning hammasi talaba she'r o'qish jarayonida o'zini nazorat qilmasligi oqibatida ro'y beradi.

Ko'rib o'tilgan vositalarning hammasi bir she'r yoki g'azal, monolog, nasriy asarlardan olingan parchani o'qish jarayonida qo'llaniladi. Badiiy o'qishni o'rganish va o'rgatishga qirishgan adabiyot ixlosmandi vositalar mohiyatini chuqur anglamog'i, eng muhimi, badiiy matn o'qiyotganda ulardan foydalana bilmog'i zarurdir.

Aruz she'r tizimida matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash
R Ye J A :

1. Bir tovushning bir necha xil cho'ziqlarda o'qilish xususiyatlari
2. Tarkibida qo'sh undosh bo'lgan so'zlarning o'qilishi
3. Bir so'z tarkibidagi bo'g'inlarning boshqa ruknga qo'chish xususiyati
4. Tarkibida "ng" tovushi, "m" belgichi bo'lgan so'zlarning o'qilishi

ARUZ SHE'R TIZIMIDAGI MATERIALLARNI
BADIIY O'QISH

Badiiy o'qish borasida maktabdan tortib oliy o'quv yurtlarida ham uchraydigan eng katta nuqson aruz she'r tizimidagi materiallarni me'yorida o'qiy bilmaslikdir. Masalaning hunuk tomoni shundaki, maktab va oliy o'quv yurtlaridagi adabiyot muallimlarining ko'pchiligi bu ishning uddasidan chiqib olmaydilar.

Buning sabablaridan biri aruz she'r tizimi qonuniyatlarining murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, bu tizimdagi materiallarni badiiy o'qish borasida nazariy va metodik adabiyotlarning yo'qligidir.

O'zbek adabiyotshunosligida aruz she'r tizimi bo'yicha dissertatsiyalar yoqlandi (S.Mirzaev, U.To'ychiev), aruzni o'rganuvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratildi (Fitrat, H. Razzoqov, A. Rustamov). Aruz materiallarini qanday o'qish, uni qanday o'rgatish kerakligi haqida esa metodik qo'llanmalar yaratilmadi.

To'g'ri, A. Hojiahmedovning «Maktabda aruzni o'rganish» kitobida maktab darsliklaridan joy olgan aruz materiallarinn qanday o'rgatish haqida yaxshi ma'lumotlar bo'lsa-da, bevosita qanday o'qishni o'rgatish ko'zda tutilmagan. Ishning kirish qismida nomlari sanalgan metodik adabiyotlarda esa aruz haqidagi nazariy materiallarni qayd etishdan nariga o'tilmagan.

Biz Andijon Davlat pedagogika instituti filologiya kulliyotida badiiy o'qish kursini o'tish jarayonida to'plangan tajribalarimizga tayangan holda aruz materiallarini badiiy o'qishga qanday o'rgatish yo'llari haqida fikr yuritamiz.

Aruz she'r tizimini badiiy o'qishga o'rgatishga ajratilgan dastlabki soatlar o'qituvchi ma'ruzasi bilan boshlanadi. Ma'ruzada quyidagi jihatlariga talabalar diqqati tortiladi. Aruzdagi materiallarni badiiy o'qishga erishishning birinchi yo'li aruz bahrlari, vaznlarini nazariy jihatdan puxta bilishdir. Agar talaba bunday nazariy tayyorgarlikka ega bo'lsa, uning badiiy o'qish yo'llarini o'rganishi oson bo'ladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, aruz qonuniyatlarini bilishgina badiiy o'qishga to'la asos bo'la olmaydi. Aruz qonuniyatlarini bilgan kishi badiiy o'qish san'atini egallamagan bo'lsa, nari borsa, ifodali o'qishi mumkin. Aruz she'r tizimidagi materiallarni o'qishda vaznga tushib o'qish bir san'at bo'lsa, tinglovchi zavqini qo'zg'ay olish darajasida o'qish yana bir san'atdir. Shu boisdan ham A.Hayitmetov, A. Qayumov, A. Rustamov singari Navoiy ijodiyoti, aruz ilmi bilimdonlari oynai jahonda o'zlari olib boradigan ko'rsatuvlarda Navoiy g'azallarini o'zlari o'qib qo'ya qolmaydilar. Albatta, Navoiy g'azallarini o'qish uchun aktyorlar, badiiy o'qish san'atini egallagan talabalar jalb qilinadi.

Aruzdagi materiallarni badiiy o'qishga kirishgan kishi ko'p g'azallar yodlashi, ovoz chiqarib o'qishi, badiiy o'qish ustalari ijrolarini qayta-qayta tinglashi darkor. Bu borada Q. Mahsumov, T. Yunusxo'jaeva, R. Hamroev, Temurmaliq Yunusov, R.Ibrohimovalar ijrosi diqqatga loyiqdir.

Badiiy o'qishga chog'langan talabalar aruz vaznlarini bilishdan tashqari quyidagilarni yodda tutmoqlari kerak. Aruzdagi materiallar o'qilayotganda bir tovushning

o'zi misra yoki bayt tarkibida vazn talabiga ko'ra turlicha cho'ziqlikda o'qilishi mumkin. Masalan, Muqimiyning «Navbahor» g'azalidagi matla'ni olib ko'raylik:

Navbahor ochildi gullar! sabza bo'ldi bog'lar!

Suhbat aylaylik kelinglar! jo'ralar, o'rtoqlar!

Bayt tarkibidagi «Navbahor» so'zidagi «o» unlisi odatdagidek talaffuz qilinsa, «ochildi» so'zidagi «o» unlisi avvalgisiga nisbatan bir marta ortiq cho'ziq talaffuz qilinadi. G'azal qofiyasidagi «o» unlisi esa birinchi «o»ga nisbatan ikki marta ortiq cho'ziq talaffuz qilinadi.

Vazn talabiga ko'ra faqat «bog'lar», «o'rtoqlar» so'zlaridagina emas, g'azaldagi barcha qofiya bo'layotgan so'zlardagi «o» unlisi ana shu cho'ziqlikdata talaffuz qilinadi.

Bugina emas, mazkur matla'ni vazn talabiga ko'ra o'qish uchun «jo'ralar» so'zidagi «o'» tovushi ham «ochildi» so'zidagi «o» unlisi darajasida cho'ziq o'qiladi.

Bayon qilingan shartlarni bajargan talaba matla'ni vazn talabiga ko'ra to'g'ri o'qigan bo'ladi. Bu endi ifodali o'qishdir. Baytni badiiy o'qish uchun esa quyidagi ishlarni ham amalga oshirishi kerak. Ovozda bahor kelganidan mamnunlik, quvonch tuyg'ularini ifodalanib, yuz va ko'zda shodlik ifodasi berilishi kerak. Maktab o'quvchisi yoki talaba «sabza» so'zini tushunmasligi mumkin. O'qituvchi bu so'z «ko'kardi», «yam-yashil bo'ldi» ma'nolarini berishini aytadi (sharhli o'qish).

«Gullar», «kelinglar» so'zlaridan keyin, misralar oxirida pauza qilinadi. Baytni o'qiyotgan talaba qo'li bilan deraza ortidagi «ochilgan gullar»ni, «sabza bo'lgan bog'larni» ko'rsatadi. Xonada o'zini tinglayotgan o'rtoqlarini qo'li bilan, ovozi bilan suhbatga chorlaydi. Bayt o'rtacha tezlikda o'qiladi. Yuqorida aytilganlar hammasi a'lo darajada bajarilsagina, baytni o'kish badiiy o'qishga aylanadi.

Aruzdagi matnlarni o'qishda so'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, uning oldidagi unli cho'ziq o'qiladi. Talabalar o'qishida bu holatda shunday xato uchraydi: yuqoridagi qoidani bilmagan talaba baytni o'qigach sezadiki, vaznga tushmayapti. Baytni vaznga tushiraman deb, sun'iy ravishda bir unli qo'shib qo'ydi, masalan, ganj, naqd, subh, hajar singari so'zlar matnda kelganda, ular oldidagi unli cho'ziq o'qilishi darkor.

Navoiyda shunday bayt bor:

Jonda qo'ygach naqd ishqing qildi ko'nglimni halok,

O'tirur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Baytni to'g'ri o'qish uchun «naqd», «ganj» so'zlaridagi «a» unlisi cho'ziq o'qilishi kerak. Talabalar o'qishida esa «naqdi», «ganji» shaklidagi o'qish kuzatiladi.

Aruz materiallari o'qilayotganda vazn talabiga ko'ra bir so'zning ma'lum bo'g'inlari avvalgi ruknda qolgani holda, qolgan qismi keyingi ruknga qo'shib o'qiladi.

Masalan:

Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahhob ila

O'ynashib gohi tabiatni qilaylik chog'lar.

(Mukimiy)

Avvalo yuqorida eslatilganiga ko'ra «chog'lar» so'zidagi «o» unlisi «ahbob» «gohi» so'zlaridagi «o»ga nisbatan ikki marta cho'ziq o'qiladi. Hozirgi eslatilgan fikrga ko'ra ikkinchi misradagi «tabiatni» so'zi o'qilishida «tabiatni» shaklida bo'linadi. Vazn talabiga muvofiq so'zining «tabi» qismi oldidagi rukunga, «atni» qismi keyingi ruknga qo'shib o'qiladi.

O'ynashib gohi tabi / atni qilaylik chog'lar /.

So'zlar tarkibidagi bo'g'inlargina emas, vazn talabiga qo'ra tovushlar ham yo avvalgi, yo keyingi so'zlarga qo'shib o'qilishi mumkin.

Zulm ila qahru g'azab izhor qilmoq shunchalar.

Oshig'i bechoraga ozor bermoq shunchalar.

(Muqimiy)

Mazkur bayt o'qilishida «zulm», «ila» so'zlari alohida o'qilsa, vazn buziladi. Baytni to'g'ri o'qish uchun quyidagilarni hisobga olish kerak: «zulm» so'zidagi «m» undoshi «ila» so'ziga qo'shib, «zul/-mila» tarzida o'qiladi.

Bu o'rinda quyidagi holatga e'tibor berish zarur. Yuqorida so'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular oldidagi unli cho'ziq o'qiladi, dedik. Ammo, hozirgidek, ularning biri keyingi so'zga qo'shib o'qilganda, unli cho'ziq o'qilmaydi.

Baytii to'g'ri o'qish uchun «m»ni «ila»ga qo'shib o'qishdan tashqari «izhor», «ozor» so'zlaridagi «r» tovushi oldidagi «o» unlisi «qilmoq» so'zidagi «o» unlisiga nisbatan ikki marta cho'ziq o'qiladi. E'tibor bering:

Ishq istar bo'lsa Majnun aylagay payrovligim
Yo'lni ne bilgay kishi to rahnamo ko'rsatmagay —
(Bobur).

baytidagi «ishq» so'zidagi «i» tovushi cho'ziq o'qiladi. Agar shu so'z tarkibidagi «q» undoshi keyingi so'zga qo'shib o'qilishi zarur bo'lsa, unda «u» tovushi cho'ziq o'qilmaydi:

Ishq aro yuz ming malomat o'qiga bo'ldim nishon.
Bir kamon obro'da tuzlivdin nishone topmadim.
(Navoiy).

Bu baytdagi «ishq» so'zidagi «q» tovushi ishqaro» tarzida keyingi so'zga ko'shib o'qiladi.

Badiiy o'qishga tayyorlanayotgan matn tarkibida «'» belgisi uchrasa, ana shu belgi oldidagi unli cho'ziq o'qilishi kerak. Buning sababi shundaki, aruz she'r tizimidagi materiallarning ko'pchilig'i arab yozuvida bitilgan. Arab yozuvida «ayn» harfi bor. Hozirgi yozuvda esa bu harf yo'q. Hozirgi yozuvda berilgan aruz, materiallarida «ayn» o'miga -«'» belgisi qo'yilgan.

Mirzo Boburda shunday bayt bor:
Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Ikkinchi misradagi «she'r» so'zi o'qilganda, «e» unlisi cho'ziq o'qilmasa, vazn buziladi. Baytni to'g'ri o'qish uchun bundan tashqari «yoz» va «yor» so'zlaridagi «yo», «do'st» so'zidagi «o'», «ishq» so'zidagi «i» tovushlari cho'ziq o'qilish kerak.

Agar matndagi so'zlarda «ng» tovushi kelsa, uni «n-g» tarzida bo'lib o'qish vaznni buzadi. Aslida bu yerda ikkita harf bo'lsada, ular bir tovushni ifoda etadi.

Istadim sayr aylamakni men g'azal bo'stonida
Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida
(E. Vohidov).

Ikkinchi misradagi «kulmangiz» so'zida «kulmangiz», «senga» so'zi «sen-ga» tarzida o'qilmasligi kerak.

Aruz materiallarini o'qishda yana bir holatga e'tibor berish zarurdir. Ko'pipcha «g» tovushi baytlar ravonligini ta'minlash uchun «g'» tarzida o'qilishi talab etiladi:

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'ngildir, bu ko'ngil,
Xoru rasvo qiladurg'on bu ko'ngildir, bu ko'ngil.
(Lutfiy).

Qaro ko'zim, kelu mardumdiq emdi fan qilg'il,
Ko'zim qarosig'a mardum kibi vatan qilg'il.

Talabalarning aruzdagi materiallarni o'qish ko'nikmasini egallashida «bahru bayt», «bayt-barak» adabiy o'yini juda qo'l keladi. Talabalik yillarimizda bu adabiy o'yin sirlarini marhum ustozlarimiz: H.Razzoqov, Ulfat, Boqirlar o'rgatishgan edi. Davlat imtihonlariga rais bo'lib kelgan akademik V. Abdullaev bu adabiy o'yinni yanada takomillashtirishga doir qimmatli maslahatlar bergan.

Bu o'yinda qatnashmoqchi bo'lgan talaba aruz she'r tizimida bitilgan baytlarni ko'p yod olmog'i va zarur o'rinda tez xotirlay olish talab etiladi. «Bahru bayt» adabiy o'yin bo'lib, go'zallik,

nafosat bilan bog'liq bo'lgani uchun baytlar tanlanayotganda satirik, yumoristik mazmundagi baytlar yodlanmaydi.

O'yin turli shakllarda: bosqich talabalari o'rtasida, ikki guruh, yoki ikki kishi o'rtasida bo'lishi mumkin. O'yining dastlabki bosqichi ko'pchilik o'rtasida boshlanib, keyingi darslarda guruhlariga bo'linish maqsadga muvofiqdir.

O'yin ishtirokchilari quyidagilarni hisobga olishlari lozim: Boshlovchi kishi «A» harfi bilan boshlanuvchi bayt o'qiydi. Bayt qaysi harf bilan tugasa, unga javob beruvchi o'sha harf bilan boshlanuvchi baytni o'qishi kerak. Musobaqa ana shu tarzda davom etaverdi. Tomonlardan biri bayt topa olmay qolsa, bayt aytgan tomon o'sha harfga o'zi bayt o'qiy olgandagina g'olib sanaladi.

Bu o'yinda bant «A» bilan tugasa, «A» va «0» harflari bilan boshlanuvchi bayt o'qish mumkin. Buning sababn shundaki, arab yozuvidagi alif harfi «A» va «0» harflarini ifodalaydi. O'yin davomida «y», «e», «i», «yo» harflari biri o'rniga ikkinchisi o'qila beradi, Arab yozuvidagi «yoy» ana shu harflarni ifoda qiladi.

Agar bayt «ng» tovushi bilam tugasa, bu tovush bilan boshlanuvchi so'z bo'lmagani uchun «g» harfi bilan boshlanuvchi bayt o'qish mumkin. O'yinda yumshoq «h» va qattiq «x» harflari farq qilinmaydi.

Bayt-barak qoidalari ana shu tarzda tushuntirilgach, navbatdagi darsga baytlar yodlab kelishni topshiraman. Dastlabki darsda o'yinni o'zim boshlab beraman. Talabalar davom ettiradilar. Talabalardan bayt chiqmay qolgan o'rinlarda yana qatnashaman.

Birinchi darsdayoq talabalar o'rtasida bu adabiy o'yinga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Keyingi darslarda tarafma-taraf musobaqalar yaxshi natija beradi. Aruz bo'yicha oxirgi darslarga kelganda, ayrim talabalar butun guruh bilan tortishish darajasiga yetadilar.

«Bayt-barak» o'yiniga namunalar: Men:
Ashraqt min aksishamsil kasi anvar—ul xudo
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.
(A. Navoiy).

U:
Oshiq o'ldim bilmadi yor o'zgalarga yor emish
Olloh, olloh ishq aro mundoq balolar bor emish.
(A. Navoiy).

Men:
Shomi hijron ro'zg'oring tiyra nevchun qildi deb,
So'ramagil bu so'zni mendin subhi yo'q shominga ayt.
(A. Navoiy).

U:
To unutdi oshnolig' rasmin ul begonavash,
Oshino yig'lar mening holim ko'rib begona ham.
(A. Navoiy).

Men:
Meni shaydo qiladurg'on bu ko'ngildir, bu ko'ngil,
Xoru rasvo qiladurg'on bu ko'ngildir, bu ko'ngil.
(Lutfiy).

U:
Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi
Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor.
(Bobur).

Ana shu tarzda nazariy ma'lumotlar berib bo'lingach, amaliy mashg'ulot darslari boshlanadi. Amaliy mashg'ulot darsiga talaba bir g'azalni badiiy o'qishga tayyorlab kelishi vazifa qilib beriladi.

Qaysi g'azalni, kimning g'azalini tanlashni talaba ixtiyoriga qo'yimoq zarur. Mumtoz adabiyotni sevuvchi, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan talabalar Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Nodira

g'azallaridan tanlaydilar. Oson yo'ldan borishga intiluvchi talabalar Chustiy, Habibiy, E.Vohidov g'azallariga murojaat etadilarki, keyingi shoirlar zamondoshlarimiz bo'lib, ular g'azallarida talaba tushunmovchi so'zlar nisbatan kam bo'ladi, baytlar mazmunini sharhlash oson kechadi.

Tanlangan g'azal daftarga ko'chirib yoziladi. Har bir misradagi so'zlar ko'zdan kechiriladi. Tushunmagan so'zlar uchrasa, g'azal ostiga lug'at tuziladi. Baytlar mazmunn sharhlanadi. Masalan, talaba A, Navoiyning:

Nuqtai holing nechun shirin labing ustidadir,

Nuqta chun ostin bo'lur har qaydakim yozilsa lab, —

baytini ishlayotgan bo'lsin. Bayt quyidagicha sharhlanadi: Oshiq ma'shuqaning labi ustidagi nuqtadek holini ko'rib, taajjubga tushmoqda. Odatda lab yozilganda, nuqta pastda bo'lar ediku! Navoiy arab yozuvidagi harflar orqali harf o'yini — kitobat san'atini zavqbxash qilib tasvirlamoqda.

Sharhlab o'qish g'azal mazmunini, undagi nozik qochirimlar, nuqtadonlikni ochish bilan birga boshqa shoirlar ijodini eslash, tahlil qilayotgan bayt bilan boshqalarni taqqoslash imkonini beradi.

Navoiy ijodidagi yuqoridagi kitobat san'ati Furqat ijodida ham ko'rinadi. Furqat Navoiy aytgan fikrni dialog shakliga solib, yumor tuyg'usi bilan yo'g'irishga erishgan:

«Nuqta lab ustida bejodir», — dedim aydi kulib,

«Saxv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Furqatning lirik qahramoni ma'shuqaga savol berib, nuqta (hol)ning lab ustida turishi xatoku, desa, ma'shuqa kulib javob berayapti: «Oллоhning kotibi labni chizayotib, xato qilib, nuqtani pastga emas, lab ustiga qo'yibdi».

Xuddi shunday so'z o'yinini E.Vohidov ijodida ham ko'ramiz:

Nuqtadek bir holi bormish g'uncha labning ustida

Ul biri oshkor emishu ul biri pinhon emish.

Talaba ana shu tarzda g'azalni sharhli o'qib, tushunib olgach, uni yod oladi. Aruz materiallarini o'qishda eslatilgan qoidalarni qay biri matnda uchrashini belgilab qo'yadi.

Badiiy o'qishga tayyorgarlik hisoblangan mashq darsini shunday boshlayman: avval hammaning diqqatini o'zimga qaratib, g'azalni badiiy o'qish namunasini ko'rsataman. Shundan so'ng, navbati bilan talabalar tayyorlab kelgan g'azallar eshutiladi. Talabalar o'qish jarayonida xato qilsa, o'sha joyda to'xtatmaslik kerak. Mayli o'qib tugatsin. G'azalni o'qib bo'lgach, qanday o'qiganini talabalar yordamida tahlil qilaman. Talaba xatosini avval o'zidan so'rayman.

Masalan, talaba shunday o'qidi:

Ko'nglim ichra sarvi o'qdir, g'uncha paykon gul tikan,

Dahir bog'i ichra mundoq gulistone topmadim.

(Navoiy).

Boshqa talaba baytdagi «sarvi», «daxir» so'zlari noto'g'ri o'qilganini aytadi. Shunda ham g'azal o'qigan talabadan shu o'rinda qanday qoida borligini so'rayman. Agar u javob bera olmasa, boshqa talaba aytadi. Qoidani eslatgach, o'zim to'g'ri o'qish namunasini ko'rsataman. G'azal o'qigan talaba o'sha baytni to'g'rilab qayta o'qiydi:

Ko'nglim ichra sarv o'qdir, g'uncha paykon gul tikan,

Dahr bog'i ichra muqdok gulistone topmadim.

Bunday usulda qoidalar mustahkamlanadi, barcha talabalar bu xatoni endi qaytarmaydilar.

Darsning 10-15 minutini bayt-barak o'yini tarzida o'tkazaman. Darslar davomida talaba yod olgan baytlarini daftarga yozib boradi. Oxirgi darsda qaysi talaba qancha bayt yod olganini tekshiraman. Talaba daftaridagi baytlarning birinchi misrasini men o'qiyman. Ikkinchi misrasini talaba o'qiydi.

Tirishqoq talabalarim aruz she'r tizimi bo'yicha o'tkazilgan darslar yakunida 250-300 misraga yetib aruz materiallarini yod oladilar. Talabalarnint bo'lajak muallimlar ekanini hisobga olib, bitta darsni maktab darsliklarida berilgan aruz materialarini badiiy o'qishga bag'ishlayman.

G'azalni badiiy o'qishga tayyorlash namunasi. Boburning quyidagi g'azalini badiiy o'qishga tayyorlaylik. Avvalo, g'azal daftarga ko'chiriladi:

Sochining savdosi tushdi boshiga boshdin yana,

Tiyr bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana.
 Men xud ul tifli parivashga ko'ngil berdim vale
 Xonumonim nogahon buzilmagay boshdin yana.
 Yuz yomonlik ko'rib, ondin telba bo'lding, ey ko'ngil,
 Yaxshilikni yuz tutarsan ul parivashdin yana.
 Tosh urar atfol meni uyida forig' ul pari,
 Telbalardek qichqururmen har zamon toshdin yana.

5.Oyog'im yetguncha Boburdek ketar erdim netay,
 Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana
 Lug'at tuzamiz:

Tiyr — qora	tifl — bola
Ro'zg'or — tirikchilik, turmush	xonumon — butun borlig'im, bor bisotim.
Xud — o'z	aftol — bolalar
Bobur — Sher	forig' — holi, qutuldi
Boshdin — qaytadan	

Har bir baytni alohida badiiy o'qishga tayyorlaymiz.

Sochining savdosi tushdi / boshima boshdin yana /

Tiyr bo'ldi ro'zg'orim / ul qaro qoshdin yana //

Sochining savdosi birikmasida ma'no ko'chishi — istiora bor.

Yorning ishq boshimga qaytadan tushdi, «Bosh» so'zining ikkinchisida «qaytadan» degan ma'no bor. Ikkinchi misra: shuning uchun tirikchiligim ul qaro qosh tufayli yana qora bo'ldi. Baytni o'qishda «ro'zg'or» so'zidagi «o'» tovushi boshqa unlilarga nisbatan cho'ziq o'qiladi.

Men xud ul tifli pari / vashga ko'ngil berdim vale /

Xonumonim nogahon / buzilmag'ay boshdin yana //

Men o'zim u bola singari go'zalga ko'ngil berdim, bor bisotim qo'qqisidan qaytadan buzilmasa edi. «Tifli so'zidagi «di» bo'g'ini «pari» so'ziga qo'shib o'qiladi va «nari» so'zidan so'ng pauza qilinadi. «Parivash» so'zining «vash» bo'g'ini esa pauzadan so'ng keyingi ruknga qo'shib o'qiladi. «Ko'ngil» so'zi esa «ko'n-gil» tarzida emas «-ng»ni bir tovush tarzida o'qishni talab etadi. «Xud», «tifl» so'zlarining lug'atda berilgan ma'nolariga e'tibor tortiladi.

Yuz yomonlik ko'rib ondin / telba bo'lding, ey ko'ngil, /

Yaxshilikni ko'z tutarsen / ul parivashdin yana. //

Bu baytda «yomonlik» so'zidagi «k» tovushini «q» tarzida, «yaxshilikni» so'zidagi «k» ni «g'» tarzida o'qish baytning ravon o'qilishiga yo'l ochadi. «Ko'ngil» so'zining talaffuzi esa yuqoridagi «ko'ngil» so'zi kabi o'qiladi.

Mazmuni: Ey, ko'ngil ul parivashdan yuz yomonlik ko'rib, telba bo'ldingu, yana undan yaxshilik kutasan.

Tosh urar atfol meni / uyida forig' ul pari /

Telbalardek qichqirurmen / har zamon toshdin yana.//

Bolalar menga tosh otadilar, go'zal esa uyida bu tashvishlardan xoli, men esa toshlar zarbidan telbalardek qichqiraman. Lug'atda berilgan: «atfol», «forig'» so'zlari sharhlanadi.

Oyog'im yetguncha Bobur/dek ketar erdim netay /

Sochinin savdosi tushdi / boshima boshdin yana

Yorning ishq boshimga qaytadan tushmaganda sher singari oyog'im yetguncha ketar edim. «Bobur» so'zi ikki ma'noda ishlatilmoqda. 1. Sher. 2. Shoir tahallusi. Baytni o'qishda «Bobur» so'zidan keyin pauza qilinadi. «-dek» qo'shimchasi pauzadan so'ng keyingi ruknga qo'shib o'qiladi.

G'azal mazmuniga ko'ra o'rta tempda, o'rtacha ovozda o'qiladi.

**Barmoq, erkin she'r tizimi, dramatik, nasriy asarlar matnini badiiy o'qishga
tayyorlash
R Ye J A:**

4. Barmoq she'r tizimida matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash
5. Erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash
6. Dramatik asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash
7. Nasriy matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash

**BARMOQ SHE'R TIZIMIDAGI MATNLARNI
BADIY O'QISH**

Barmoq she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash ishi she'r tanlashdan boshlanadi. She'r tanlash talaba ixtiyoriga qo'yiladi. Talaba bilim darajasi, qiziqishi, badiiyatga munosabatiga ko'ra o'zi she'r tanlaydi. Mazkur tizim bo'yicha mashq darslarining biri maktab darsliklaridagi materiallarni o'qishga bag'ishlanadi.

Talaba tanlagan she'rini daftariga ko'chirib yozadi. Badiiy o'qish vositalari asosida she'rni daftarda ishlab chiqadi. Matn tayyor bo'lgach, uni yodlaydi. Talaba unda ifodali o'qishni, sharhli o'qishni mashk qilib, badiiy o'qishga tayyor bo'lib keladi.

Barmoq she'r tizimi bo'yicha birinchi dars mashk darsi bo'lib, talaba o'qishidagi yutuqlar, nuqsonlar talabalar yordamida tahlil qilinib, badiiy o'qish namunasi ko'rsatib beriladi. Ikkinchi darsda talaba o'qishi baholanadi. Har bir talaba yutug'i, kamchiligi o'qituvchi tomonidan izohlanib, baho e'lon qilinadi.

M. Yusufning «Yo'qlov» she'ri quyidagicha badiiy o'qishga tayyorlanadi: (Avvalo she'r daftarga yozib olinadi.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Aytsam ado bo'lmas armonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Bag'rimni o'rtar bir tanbur navosi,
Shumi shoiringga elning vafosi?..
Toshlarning ostidan kelib sadosi,
Hamzang yotgan Shohimardonlaring bor...

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Ko'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku og'ir olma so'zimni,
Qayinlarga aytib «Karo ko'zim»ni,
Sibirlarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyini sotib shoir bo'lganlar —
Mehrobingdan chiqqechayonlaring bor...

Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening fig'onlaring — mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.

Avvalo, misralardagi bo'g'inlar soni aniqlanib, turoqlanish tizimi belgilanadi. Fonetik va mantiqiy urg'u olgan bo'g'in va so'zlar, shundan kelib chiqib pauzalar o'rni ko'rsatiladi.

Yurtim, ko'nglingdek keng / osmonlaring bor / — II bo'g'in
Aytsam ado bo'l!mes / armonlaring bor./ — II bo'g'in.

Misralar II bo'g'indan iborat bo'lib, 6+5 shaklida turoqlangan. «Yurtim» so'zidan keyingi pauza tinish belgiga asosan yuzaga kelsa, «keng», «bo'lmas» so'zlaridan keyingi pauzalar turoqlar orasidagi to'xtamlardir. Har misra oxirida pauza qilinadi, «yurtim», «osmon», «ado» so'zlarida fonetik urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Shuning uchun talaffuzda bunga alohida e'tibor berish zarur.

Birinchi misrada «keng» so'zi, ikkinchi misrada «ado bo'lmas» so'zlari mantiqiy urg'u olmoqdaki, bu so'zlar boshqa so'zlarga nisbatan kuchli ohang bilan o'qiladi.

Ana shu tartibda she'rning har bir misrasi ishlab chiqiladi. She'rdagi bandlarda temp deyarli farq qilmasa-da, beshinchi bandda temp tezlashadi, intonatsiya kuchayadi. Bu bandning mazmunida «Qodiriyning sotib shoir bo'lganlar»ga muallif nafrati yorqin aks etgan. Yuqoridagi vositalar ana shu nafrat ifodasiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bandning birinchi misrasida uyushiq bo'laklar kelmoqdaki, ularning har biri mantiqiy urg'u oladi. Uyushiq bo'laklar o'qilayotganda, intonatsiya avvalgisiga nisbatan keyingisida kuchli bo'ladi.

Birinchi bandda «osmonlaring bor» so'zlarida o'quvchi qo'li bilan osmonni ko'rsatsa, «og'riydi jonim» birikmasida yuz va ko'zda joni og'riyotganini ifodalaydi, ikkala qo'lini ko'ksiga olib keladi.

To'rtinchi banddagi «qo'ling qadog'iga bosam yuzimni» misrasi o'qilishida o'quvchi kaftlarini ochib, ularga qaraydi. Beshinchi banddagi «Ana, yurishibdi kiyganlar» misrasida old tomonini qo'l bilan shunday ko'rsatish kerakki, o'tirganlar orqaga qarasin.

She'rni badiiy o'qishga tayyorlashda ayrim birikmalarni, misralarni sharhlash talab etiladi. Jumladan: «Hamzang yotgan Shohimardonlarning bor»... satrining mazmunida Hamzaning 1929 yidi shayxlar tomonidan toshbo'roi qilib o'ldirilgani, qabri Shohimardon — hozirgi Hamzaobodda ekani aytiladi.

«Jayrondek termulgan Cho'lponlarning bor» misrasida esa Cho'lpon haqida ma'lumot talab qilinadi. Cho'lpon andijonlik talantli shoir ekani, nohaq qamalib, qatl etilgani, bugun nomi oqlanib, asarlari nashr etilayotgani aytiladi.

To'rtinchi banddagi:
Qayinlarga aytib «Qaro ko'zim»ni,
Sibirlarda qolgan Usmonlaring bor, —

misralaridagi «Qaro ko'zim» so'zi sharhlanadi. Bu nom Alisher Navoiyning:

Qaro ko'zim kulu mardumliq emdi fan qilgil
Ko'zim qarosiga mardum kibi vatan qilg'il, —

matla'li g'azali bilan aytiladigan qo'shiqqa ishora ekani aytiladi. Bu qo'shiq xalqimiz o'rtasida juda mashhur bo'lib, uni Mulla To'ychi, Yunus Rajabiy kabi mashhur hofiz njro etganlar. Bu qo'shiq bugun ham xalqning sevgan qo'shiqlaridan biridir.

«Sibirlarda qolgan Usmon» — qatag'on yillari Cho'lpon, Qodiriy, singarn nohaq qamalib, Magadanda o'ldirilgan yorqin iste'dod egasi bo'lgan shoirimiz edi.

Ana shu tayyorgarlikdan so'ng she'rni badiiy o'kish mumkin. Bunda yuqorida aytilgan barcha vositalar bandlardagi mazmunni ravshan ifoda qilishga bo'ysundiriladi.

ERKIN SHE'R TIZIMIDAGI MATNLARNI BADIY O'QISHGA TAYYORLASH

Erkin she'r tizimidagi matnlarni badiiy o'qishga tayyorlash mazkur she'r tizimini barmoq she'r tizimidan farqli xususiyatlarini tushuntirishdan boshlanadi. Agar talaba bu xususiyatlarni yaxshi anglab olmasa, u nechog'lik badiiy o'qish vositalarini o'zlashtirgan bo'lmasin, badiiy o'qishni uddalay olmaydi.

Bu she'r tuzilishi inqilobdan so'ng paydo bo'lgan bo'lib, mashhur rus shoiri V. Mayakovskiy nomi bilan bog'liq. V. Mayakovskiy inqilobdan keyingi hayot shiddatini, tezkorlikni ifodalash uchun rus adabiyotidagi «slabo tonik» she'r tizimi mos kelmasligini anglab, yangi she'r tizimi yaratdi. Bu tizimning o'ziga xosligi shundaki, unda qofiya tizimi saqlangan holda boshqa shakliylar unsurlar (bo'g'inlar soni, turoq, band, radif, va b.) barmoqdagi singari har bir misrada tenglik, zarurlik xususiyatlarini yo'qotadi. Misralar zinapoyachalarga bo'linib, ma'no va mazmun shakliylar unsurlardan to'la ma'noda ustunlik qiladi.

Shoir g'oyaviy mazmundan kelib chiqib, hatto bir so'zni ham alohida misra shaklida berishi mumkin. V. Mayakovskiyning mashhur «Sovet pasporti» she'rining birinchi bandi quyidagicha:

Bo'riday g'ajirdim byurokratizmni
Har-xil mandatlarga yo'q menda ixlos,
Qog'ozbozlikni yo'q ko'rgani ko'zim.
Qurib ketmaydimi har qanday qog'oz!

Bu she'r tizimi o'zbek adabiyotiga 30-yillardan boshlab kirib keldi. G'.G'ulom, H. Olimjon, M. Shayxzoda singari shoirlarimizning ko'plab she'rlari mazkur she'r tizimi asosida yozilgan. Bu she'r tizimining o'zbek adabiyotiga kirib kelishini H. Olimjon xotiralarida ko'rish mumkin. H. Olimjon 1929 yilda Qrimda V. Mayakovskiy bilan uchrashdi. «...U birinchi bo'lib o'zining «So'l marsh» degan mashhur she'rini o'qiydi. Bu she'r, uning shu kechada hikoya qilganiga ko'ra, revolyutsiyaning dastlabki yillarida Petrograd matroslarining chaqirig'iga muvofiq, she'r o'qib berishga ketayotgan vaqtda, izvoshta yozilgan va to'g'ri matroslarning majlisiga borib o'qilgan ekan. U she'rni o'qir ekan, «so'l» so'zi har bir qaytarilganda, uning chap qo'li ko'tarilib tushar ekan. U chapaqay edi...

Mayakovskiy she'rni og'ir-og'ir o'qir, satrlarni bo'lib-bo'lib aytar, so'zlar orasida pauzalar qilar edi. Uning bunday mahorat bilan o'qishida har bir tovush katta bir mahorat qozonar va tinglovchida qoldirgan ta'siri oddiy she'r o'qishdagidan ko'ra yuz hissa ortiqroq edi».¹

Bo'lajak adabiyot muallimi erkin she'r tizimida yaratilgan she'rlarni badiiy o'qish darajasida o'qiy olishi zarur. Sababi maktab darslik va xrestomatiyalariga o'zbek shoirlarining ana shu tizimda bitilgan sara asarlari kiritilgan.

Erkin she'r tizimidagi she'rlarni badiiy o'qishga tayyorlash haqida tasavvur hosil qilish uchun H. Olimjonning «Baxtlar vodiysi» she'rini o'qishga tayyorlashni ko'zdan kechiraylik.

Mazkur she'rda har band boshida yoki oxirida «Ko'm-ko'k», «ko'm-ko'k», «ko'm-ko'k» so'zlari qaytariladi. She'rdagi ohang mana shu so'zlarni to'g'ri o'qish orqali aniqlab olinadi. Fonetik urg'u «ko'm» bo'g'inida «o'» tovushiga tushadi. «ko'k» bo'g'inidagi «o'» tovushi ham fonetik urg'u oladi. Ammo birinchi bo'g'inidagi urg'u ikkinchisiga nisbatan bir barobar keng olinishi kerak. Bu holat uchala «ko'm-ko'k»da ham qaytariladi. Sababi so'zlar takrorlanmoqda. Uyushiq bo'laklarga, takrorlangan so'zlarga mantiqiy urg'u berilishi zarur. Ana endi fonetik urg'uni, mantiqiy urg'uni hisobga olgan holda «Ko'm-ko'k»ni o'qib ko'ring.

Ko'm-ko'k,
ko'm-ko'k,
ko'm-ko'k... // .

Matn so'nggida uch nuqta turibdi. Tinish belgilar qoidalariga asosan uch nuqta kelgan joylarda pauza, pauza bo'lganda ham katta pauza qilinadi. Umuman «Baxtlar vodiysi» singari

¹ S. Azimov. Abadiyat, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T.: 1988, 79-bet

katta she'rlarda pauza favqulodda katta ahamiyat kasb etadi. She'r o'quvchi bandlar oxiridagi katta pauzalardan o'rinli foydalanmasa, she'ning yarmiga yetmay charchaydi, ovozi chiqmay qoladi. Oqibat ta'sirchanlik yo'qoladi. Pauzadan so'ng keyingi band o'qiladi:

Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar,
Po'lat yag'rinlarni ko'targan yerlar /
ko'm-ko'k... //

«Quyosh» so'zida fonetik urg'u «yo» tovushiga tushadi. Birinchi misra (ko'klam quyoshidan)dan keyin pauza qilinmay «qirlar» so'zidan keyin pauza qilinadi. Bu pauza ikki jihatdan zarurdir. Birinchi grammatik qoida (vergul)ga binoan, ikkinchidan, erkin she'r tizimidagi she'rlarda ma'lum fikr yakunidan keyin pauza qilinadi. «Ko'm-ko'k» so'zidan keyin esa katta pauza qilinadi. Ma'lum fikr yakuniga ko'ra «erlar» so'zidan keyin oddiy pauza qilinib, misra oxirida «ko'm-ko'k» so'zidan so'ng katta pauza qilinadi.

Salqin saharlarda uyqudan turgan /
Buloq suvlariga yuzini yuvgan /
Marmar havolarning qo'yniga cho'mgan /
Zilol bo'shliqlarga keng quloq qo'ygan /
Mustaqillik ishq bilan yongan dalalar /
ko'm-ko'k... //

Mazkur band o'rtacha ovoz bilan boshlanib, pastdagi har bir misrada ovoz asta-sekin ko'tarilib boradi. Ovozning asta ko'tarilishiga sabab shuki, sifatlovchilar (salqin, marmar, zilol) misra boshida qator kelmoqda. Ularning har biri mantiqiy urg'u oladi. Qoidaga binoan mantiqiy urg'u olgan so'zlar qator kelganda keyingisida urg'u kuchayib boradi.

Belgilangan o'rinlarda oddiy pauza, «ko'm-ko'k»dan so'ng esa katta pauza qilinadi. Mazkur bandda misralar bnr xil tempda o'qiladi. «yuzini», «yuvgan», «yongan» so'zlarida fonetik urg'u birinchi bo'g'inda bo'ladi.

Ufqimizniig hirslarini o'ziga tortgan!
Yelkasiga tarix bilmas g'alaba ortgan!
Ulug' yo'lda toliqmasdan tez ketayotgan!
Baxmal qirlar! keng bo'shliqlar, paxtazor yerlar /
ko'm-ko'k...

Bu band o'qilishidagi e'tibor talab jihat shundaki, band oxirida uyushiq bo'laklar kelmoqda. Qoidaga binoan uyushiq bo'laklarining har biri mantiqiy urg'u oladi, keyingi bo'lakda urg'u kuchliroq bo'lishi talab qilinadi. Qolgan o'rinlar belgilangan tarzda pauza qilish bilan o'qiladi.

Keyingi qismni o'qish alohida e'tibor talab qiladi. Sababi shundaki, «Tong pallasi» misrasidan boshlangan qism to:

Qarashlari nurga to'lgan
Bu ulug' vodiy
Ko'm-ko'k!.. //

satrlarigacha katta pauza qilinmaydi. Har bir fikr tugalligi ifodalangan joylarda kichik pauza qilish orqali, ovozdan o'rinli foydalanish orqali o'qishdagi badiiyat ta'min qilinadi.

«Ey Farg'ona» misrasi bilan boshlanuvchi keyingi bo'lakda undalmalar ko'p. Shuning uchun ovoz yuqoridagi bo'laklarga nisbatan baland, temp tez bo'lishi taqozo qilinadi. «Haydar kapitan» satridan keyin katta pauza qilinadi.

Keyingi bo'lak boshida «ko'm-ko'k» xuddi she'r boshidagi ohang va temp singari qaytariladi. «Pishinib», «terlab» satr-laridan so'ng katta pauza qilinadi.

Keyingi bo'lakda «ey» undov so'zi har bir satr boshida qaytariladi. Shu tufayli, bu so'z hamma satr boshida mantiqiy urg'u oladi. Ovoz «Ey Farg'ona» bo'lagidagi singari, baland, temp tez o'qiladi.

«Oppoq, momiq tan!» — satridan keyin katta pauza qilinadi. She'ning qolgan qismida quyidagi bo'lakka e'tibor berish kerak.

«Ey Farg'ona!

Mushkul kunlar bolasini tishida tishlab,
Yuvib, tarab, sevib, o'pib, quchib, opichlab,
Ey, baxtlarni balog'atga

Etkazgan ona! /

Bu yerda «Ey farg'ona» satridan keyin kichik pauza qilingach, «Tishida tishlab» satridan keyin yana kichik pauza qilib mantiqiy urgu oladi, ulardan keyin pauza qilinmaydi. «Etkazgan ona!» satrigacha pauzasiz o'qiladi, satrdan keyin katta pauza qilinadi.

Xulosa shuni, yuqoridagi kabi «Sen yetim emassan», «Turksib yo'llarida» kabi katta hajmdagi erkin she'rlar tizimidagi she'rlar o'qilishida ovoz va pauza alohida ahamiyatga egadir. Boshqa badiiy o'qish vositalaridan, xususan, ovoz va pauzadan mohirona foydalanish asosida she'rni o'qish uning g'oyaviy mazmunini, undagi tuyg'ularni tinglovchiga to'la va yorqin yetkazishga imkon beradi.

DRAMATIK ASARLARNI BADIY O'QISH

Badiiy o'qish faqat she'riy asarlar doirasi bilangina cheklanmasdan dramatik asarlarga ham mansubdir. Bo'lajak adabiyot muallimi dramatik asarlarni badiiy o'qishni bilish bilangina chegaralanmasdan uni o'rgatishni ham uddasidan chiqishi kerak.

O'rta maktab adabiyot fani dasturini ko'zdan kechirsak, rang-barang, bir-biriga o'xshamagan obrazlar ifodalangan dramatik asarlarni ko'ramiz. Bu asarlardagi xarakterlar dars jarayonida tushuntirilgan ekan, o'qituvchi o'sha xarakter xususiyatlarini ochuvchi birorta monologni darsda badiiy jihatdan o'qib berishi dars samaradorligini oshiradi.

Oliy o'quv yurtida dramatik asarlar matnini darsda o'qib o'rganish uchun soat ajratilmagan. Maktabda esa shunday soatlar mavjud. Oliy o'quv yurtida dramatik asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash o'rgatilar ekan, avvalo asardagi monolog, dialog, poliloglarpi o'qish, avtor remarkalarini o'qish o'ziga xos xususiyatlarga ega ekani uqtiriladi.

Butun asar syujetini, xarakterlar taqdirini bilmasdan turib, monolog, dialog, poliloglarni badiiy jihatdan o'qib bo'lmaydi.

Maktabdagi matn ustida ishlash darslari sharhli o'qish asosida olib boriladi. Drama o'qib bo'lingach, undan parchalar yod olish topshiriladi. Masalan, Hamzaning «Burungi saylovlar» dramasi o'tishdan oldin maktab lug'at doskasiga drama o'ld bo'lgan, o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan quyidagi so'zlar yozib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Ark — osmonning eng yuqorisi

Sarpayiq — kambag'al

Frisko'f — pristav (daha politsiya boshlig'i).

Ruku', sjud — nomoz o'qilganda egilish, bukilish, boshni yerga tegizish

Dodhoh — adolat qiluvchi, mingboshi

Xizr — payg'ambardan birining nomi

Ilyos — payg'ambarlardan birining nomi

Avsat — o'rta

Qurma — dehqonlardan hosil yig'ilgach, olinadigan soliq.

Juz'ya — g'ayridinlardan olinadigan soliq.

Chilton — Qirg'a ajralmas arvoqlar.

Firdavs — jannat

Kandidat — nomzod

G'arro — mag'rurlanish.

Sangisor — toshbo'ron.

Zindiq — dinga zid ish tutuvchi

Siosknoy otdel, svisknaya politsiya — qidiruv bo'limi

Avomunnos — oddiy xalq.

Mujorrad — tanho, yalang'och.

Zan etamiz — ta'qiqlaymiz.

Chaksa — o'ldiruv birligi, bir chaksa 5,3 kg. ga to'g'ri keladi.
Allon — un, don mahsulotlari bilan savdo qiluvchi shaxs.
Paliska — politsiya
Mirshabxona — mahalliy politsiya idorasi.

O'qituvchi drama fabulasini so'zlab berib, o'quvchilarning dramaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Dramaning 2-3-ko'rinishlari sinfda rollarga bo'lib o'qitiladi.¹ Matnni o'qish jarayonida o'quvchilar tushunmaydigan yuqoridagi so'zlar uchrasa, ular sharhlanadi.

Dars oxirida rollarni yaxshi o'qigan, so'zlarni to'liq sharhlagan o'quvchilar rag'batlantiradi, aksincha, yomon o'qigan o'quvchilarning kamchiliklari aytilib, tuzatiladi. Dramaning qolgan qismini uyda o'qish va asardan Qodirqul (125, 126, 134-bet-lar), Mirza (135-bet), Xolmat (141-, 142-betlar) monologlaridan birini yodlab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

Oliy o'quv yurtida esa badiiy o'qishga ajratilgan dars o'atlarini ozligi uchun, dramatik asarlarni badiiy o'qishga qanday tayyorlash tushuntirilgach, dramadan parcha yod olish topshiriladi. Maktab, oliy va o'rta o'quv yurtlarida qaysi monolog, dialogni, polilogni yod olishni o'quvchi ixtiyoriga qo'ygan ma'quldir.

Dramatik asar remarkalari o'qilganda quyidagilarni hisobga olish zarur. Remarkalar o'qilayotganda o'sha pardada tasvirlanayotgan voqealar ruhi, xarakterlar kayfiyatiga mos intonatsiya bilan o'qish kerak.

Masalan, Hamzaning «Zaharli hayot» tragediyasining uchinchi pardasida berilgan remarka o'qilayotganda ovoz siniq, temp sekin beriladi. Matndagi «yig'lab», «og'ir», «oxirgi kuni» so'zlariga mantiqiy urg'u berib o'qiladi.

«Faqirona maishatda ziynatlangan/ bir uy. / Uyning bir tarafida zo'r sandiq, uning ustida sandiqcha, yonida / besh-to'rt adad kitob terilgan. Uyning bir tarafida oddiy kravat ustida Maryamxonim yig'lab og'ir holda yotar. Bu uy Maryamxonimniki bo'lib, og'u ichgan oxirgi kuni /, yonida Sora yig'lab o'tiruvida parda ochilur». /

Hamzaning «Maysaraning ishi» komediyasi ikkinchi pardasidagi quyidagi remarka o'qilganda yuqoridagi holatdan boshqacha o'qilishi kerak. Sababi yuqorida g'am-alam, o'lim voqealari oldidagi remarka o'qilmoqda. Hozirgisida esa komik xarakter egasi bo'lgan Mullado'st kayfiyatiga, uning mopologndagi kinoya, qochirimlariga monand bo'lmog'i kerak.

Ovoz jarangdor, temp tez, intonatsiyada quvnoqlik kayfiyatiga xos tebranish berilishi kerak.

«Madrassa hujrasi / Tokchalarda ham turli ashyolar /, so'l tomonda mehrob /, mehrobda sandiq, / sandiq ustida ko'rpa, / ko'rpachalar /. O'ng tomonda darcha hamda hujraning qaznog'i bo'lib, /qaznoqda sahnga eshik ochilur, / Qaznovda ba'zi, / hujraning lavozimiga saqlangan eski-tuski ashyolar mavjuddir. / Mullado'st hujrani supirib qo'shiq aytib turganda / parda ochilur». /

Oliy o'quv yurtida talaba badiiy o'qish uchun tanlagan monologini yod olgach, qahramonning monolog so'zlash davridagi ahvoli, ruhiyati, o'zini tutishi, kiyinishi, yuz-ko'zining ko'rinishi, qiladigan harakatini ko'z oldiga keltirishi kerak. Monologni o'qish jarayonida alohida kiyim tayyorlamasa-da, boshqa vositalarni berishga harakat qilishi kerak. Ayniqsa, monologni o'qish jarayonida ularni ko'rsatish yaxshi natija beradi.

Masalan, Hamzaning «Zaharli hayot» tragediyasi oxiridagi Mahmudxon monologi mahorat bilan yozilgan. Monologda remarkalar shu qadar yaxish berilganki, ularni muvaffaqiyatli bera olish badiiy o'qishni yuksak bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

«Mahmudxon (lahadga qarab, ta'zim qilib). Assalomu alaykum // Yo ruh, / Maryam / (Gullarni ko'rsatib). Mana bu / Sizning mozingiz tuhfasini uchun, / jonim / (to'nni bir tarafga qo'yib, gulning bog'larini yechib) Mozingizga sochmoq uchun keltirdim-a // Jonim Maryamxon, (qabr ustina sohib) He, he suyuqli Maryam / (bir oz to'xtab turib, yurib) Qanday yarashdi, / Jonim Maryam / (orqaroqda qo'l qovushtirib turib, yana oldinroq kelib, yig'lamsirab). Jonim, / Maryam, Zoliming keldi...//

¹ Hamza. Mukammal asarlar to'plami, IV tom, Toshkent, Fan, 1981

Men dunyoda yashasam, yashamam // (yig'lab boshini qabr ustina qo'yar) Maryam,/ men sening yoningda yotaman,/ tiriklik menga harom./ Men / yashasam, / sensiz dunyoda bir kun turmam, degan edim. Men / inson / va'daga vafo qilaman. (Cho'chib, sarosimalanib, cho'ntagidan to'pponchani olib, o'rta kelib, ro'baro'ga qarab to'pponchani ko'rsatib) Kecha oqshom Maryamxon muhabbat qurboni edi, biz bugun insoniyat, / millat qurboni (boshini qimirlatib) mundog' jaholat, mundog' ilmsizlik, vahshatlik.-. // (ko'krak tugmalarini yechib yuborib) orqasida yashamoqdan o'lim lazzat...// (lahadga qarab, yalinib, yig'lab) Maryamxonim, mana men! hozir yoningga kiraman,/ amin bo'l,/ qiyomat kun ikkimiz qo'l tutishib, / janobi haq va rasul qoshida / bu shariat xoinlariga barobar da'vo qilishamiz. / Jonim, / Maryam / (to'ppopchani o'qlab, shoshilib ko'kragiga tirab) Men sensiz yashasam, o'z suyuqligim bo'lmagach, / dunyo harom...// Oh, jaholat /.. Dod, g'aflat / Faryod, zaharli hayot //

Otar, yiqilur. Bir tarafdin fonus ila Mahmudxon onasi Mavsum kelib, dod deb o'zini tashlar../

Talabalar dramatik asarlardan badiiy o'qish uchun matn tanlashda faqatgina monologlarnigina emas, ikki kishi bo'lib, dialoglarni yoki ko'pchilik bo'lib, poliloglarni ham o'qishga tayyorlashlari mumkin. Bunda ham monologni o'qishga tayyorlagapi kabi qayd etilgan holatlarni hisobga olish kerak. Dialog va polilogdagi o'ziga xoslik shundaki, monologda tinglovchiga qarab so'zlanisa, dialog va polilogda o'qish qatnashchisiga qarab so'zlanadi.

Masalan, «Zaharli hayot» tragediyasidan ikkinchi ko'rinishdagi Maryamxonim va Eshon dialoglarini badiiy o'qishga tayyorlash mumkin. Dialog va poliloglar o'qish uchun tayyorlanayotganda dramatik harakatga boy, xarakter xususiyatlari yorqin ko'rinayotgan o'rinlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

«Eshon. Er bo'lsa, / mana men. / Boshqa muddaong nima? / Yo bo'lak dard-marding bormi? /

Maryamxonim. (qichqirib, yig'lab) Bor / Bor / Muddaom bor, / Sen choldi men er qilmayman, / deyma-ku, / tag'in nima? /

Eshon. (barmog'ini tishlab, ohista peshonasiga qo'lini urib, yana achchig' bilan) Kim u muddaong, / ayt /

Maryamxonim. Bor dedim, bor! Aytib nima qilaman, bor!

Eshon. Xotiringni jam qil, /endi muddaongdan umidingni uz. /

Maryamxonim (yig'lab). Noumid shayton!.. // Men umidimni uzmayman! /

Eshon (jahl ila boshiga borib, engashib, qo'lini silkib), Seni mendan xalos topaman degan umiding ham bormi?

Maryamxonim. Bor, albatta, har tarafdin bor!»¹

NASRIY ASARLARNI BADIY O'QISH

Nasriy asarlarni badiiy o'qishga tayyorlash boshqa turdagi matnlar badiyo'qishga nisbatan kam e'tibor beriladi. Maktab hayotida nasriy asarlarni sinfda o'qish boshlang'ich sinflarda olib boriladi. To'g'ri, bu sinflarda oddiy o'qish, nfodali o'qish, sharhli o'qish amalga oshirilmasa-da, hali o'quvchilarda badiiy o'qish ko'nikmasi hosil bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi badiiy o'qish namunasini darsda ko'rsata olishi, ayrim talantli o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatini ibrat qilib ko'rsatish orqali o'quvchilarning badiiy o'qishga bo'lgan rag'batini kuchaytiradi.

Yuqori sinflarda esa matn ustida ishlash darslarida, badiiy o'qish darslarida nasriy asarlarni ham o'qishga e'tibor berish zarur. Adabiy kechalarda, turli yig'ilishlarda nasriy asar matnlari badiiy o'qishga tayyorlanganda g'oyaviy-badiiy yuksak asarlar matnlari tanlanishi zarur.

Oliy o'quv yurtlarida ham nasriy asarlarni bo'lajak muallim badiiy o'qish darajasida o'qiy olishga erishishi zarur. Oliy o'quv yurtida talaba nasriy matnni qanday tayyorlashga misol

¹ Hamza. Saylanma, II jild, Toshkent, G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979 29-30 betlar

ko'raylik. Boshqa turlarda bo'lgani singari talaba o'ziga yoqqan, qalbiga ta'sir qilgan matndan parchani daftariga ko'chirib yozadi.

Masalan, O'.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asaridagi quyidagi parchani olaylik.

«Bahor/ devorlarning oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi. / Bahor / ariqlarning ko'ngay sohillaridan boshlanmaydi. / Bahor / qabristondan boshlanadi. To'ng'ich chuchmomalar / eng avval, / sukutga cho'mgan qabriston ustida / ma'yus qo'ng'irog'ini chaladi. Bag'ri qon qizg'aldoqlar / Birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi. Kim bilsin/ Tabiat marhumlar ruhiga yilda bir marta ko'rsatadigan marhamati / , ehtimol / shudir. Cho'g'dek lovullagan qizg'aldoqlar, / saf tortgan gulsafsarlar orasida marmar toshlar ko'rinadi / Oqmarmar, / ko'k marmar, / qora marmar... // «Onajon / sizni toabad unutmamiz» / , «Onajon / qildingiz bizga jon fido/E voh, taqdir sizdan ayladi judo» / «Onajon, / xotirangiz qalbimizda mangu yashaydi...» //

Bu so'zlarning har bitta harfiga / qanchadan-qancha / ko'z yoshi tomganini bilaman / Ehtimol / bular inson bolasining hayotda aytgan eng rost so'zlaridir. / Faqat... / Har gal ularni o'qiganda / bir narsani o'ylayman. / Mana shu so'zlarni yurak-yurakdan iztirob bilan aytgan farzand / onasi hayotligida qanchalik ko'nglini ololdi ekan? / Xotiningga qimmatbaho po'stin olib berayotganida / onasiga bir kiyimlik ko'ylak qo'shib olish / yodidan chiqmadimikan? / O'z uyini chet el mebeli bilan to'ldirib qo'yganida / onasiga aqalli bo'yradekkina gilamcha / sovg'a qilishni unutmamimikan?

Mabodo/tabiat marhumlarga qayta jon ato qilsayu/ onalar tirilib qolsaG`hayot paytida mehr berganmi?/ bermaganmi / - baribir / farzandini maqtab gapirgan bo'lardi...//

Qabr ustida qo'ng'iroq chalgan chuchmomalar, / lovullab yongan lolaqizg'aldoqlar / onalarning farzandini yupatish uchun /takdim etgan che-chaklari bo'lsa ajab emas»...//

Matnni yodlashdan oldin fonetik urg'u, mantiqiy urg'u, pauzalar o'rnini belgilab olinadi. Yuqoridagi belgilangan talablar asosida matn yod olinadi. Matnni o'qishda ovoz o'rtacha beriladi. Mantiqiy urg'u olgan so'zlarda ovozni tebrantirish matn mazmunidagi mungni yanada bo'rttirishga imkon beradi. Ayniqsa, qabr toshlariga yozilgan matnlarni o'qishda intonatsiya katta ahamiyat kasb etadi.

Matnga e'tibor berilsa, ikkinchi abzatsda fikrlar to'qnashadigan o'rinlar bor. «Xotini — onasi», «o'z uy — ona uyi» kabi. Ana shu abzats o'qilayotganda, o'rtadagi pauzagacha ovoz balandroq, temp esa tezroq beriladi. Pauzadan so'ng esa ovoz ham, temp ham sekinlanib, ovoz tebranishiga alohida ahamiyat beriladi.

Ovoz balandroq, tem tezroq.

Ovoz ham, temp ham pastlaydi.

Xotiniga qimmatbaho po'stin Pauza Onasiga bir kiyimlik ko'ylak olib berayotganida qo'shib olish yodidan chiqmadimikan?

Matnni o'qishda yuz, ko'zda ma'yus ifoda beriladi. Yuqoridagi kabi qiyosiy fikrlar berilayotganda yuz-ko'zda alam, iztirob ifodasi beriladi.

Kulliyotimizda o'tkazilgan adabiy kechalarda A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi Qumush maktublari, Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi Gulnor o'g'irlangan kechadagi Yo'lchi holati tasviri, P.Qodirovning «Bobur» romanidagi shoirning o'limi tasviri kabi matnlar katta muvaffaqiyat bilan o'qilgan.

XORIJIY MANBALAR

1. Адамивич Н.А.Карсия Т.М.Вразительное чтение в начальных классих, М., 1963
2. Толутков. Методика прсподповакия литератур. М., 1962
3. Теория словесности М., 1963

KURS ISHLARI MAVZULARI

1. Badiiy O`qishda urg`uning roli.
2. Talaffuzdagi nuksonlarni yo`qotish yo`llari.
3. Badiiy o`qishda tempdan foydalanish usullari.
4. Badiiy o`qishda yuz, ko`z harakati.
5. Mimikadagi nuqsonlarni yo`qotish usullari.
6. Badiiy o`qishda imo-ishoradan foydalanish yo`llari.
7. Barmoq she`r tizimi va uning o`ziga xos xususiyatlari
8. Aruz she`r tizimining o`ziga xos xususiyatlari.
9. Aruzdagi matnlarni o`qishda hijo, juzv, rukn va bahrlarning o`rni.
10. Erkin she`r tizimi, uning o`ziga xos xususiyatlari
11. Erkin she`r tizimidagi she`rlarni o`qishda ovozdan foydalanish usullari.
12. Erkin she`r tizimi oid matnlarni o`qishda pauzaning ahamiyati.
13. Badiiy o`qish vositalarini nasriy asar o`qishda qo`llash usullari.
14. Dramatik asarlarni o`qishga tayyorlashda matn ustida ishlash.
15. Monologlarni o`qishda xarakter xususiyatlarini berish yo`llari.

MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI

1. Badiiy o`qish vositalari haqida ma`lumot.
2. Ovoz va uning turlari.
3. Urg`u turlari haqida ma`lumot.
4. Pauza. Pauza turlari: oddiy, katta, grammatik, mantiqiy pauzalar.
5. Talaffuz haqida ma`lumot.
6. Temp. Badiiy o`qishda undan foydalanish usullari.
7. Aruz she`r tizimining o`ziga xos xususiyatlari.
8. Aruzdagi matnlarni o`qishda baxrlar, haqidagi bilimning bo`lishi:
9. Arizda bir unlining bir baytning o`ziga turli cho`ziqlikda o`qilishi mumkinligi. Erkin she`r tizimi, uning o`ziga xos xususiyatlari haqida ma`lumot.
10. Bu tizimdagi she`rlarni o`qishda ovozdan foydalanish usullari.
11. Erkin she`r tizimi oid matnlarni o`qishda pauzaning ahamiyati.
12. Dramatik asarlarni o`qishga tayyorlashda matn ustida ishlash.
13. Monologlarni o`qishda xarakter xususiyatlarini berish yo`llari
14. Nasriy asar matni ustida ishlash.
15. Badiiy o`qish vositalarini nasriy asar o`qishda qo`llash usullari

Annotasiya (Taqriz)

O'quv –uslubiy majmuada « Ifodali o'qish » kursini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

O'quv –uslubiy majmua oliy ta'lim muassasalari - 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 3 –kurs talabalari uchun muljallangan.

O'quv –uslubiy majmuada « Ifodali o'qish » kursini o'qitish bo'yicha testlar, nazorat uchun savollari, tarqatma materiallar, o'quv qo'llanmalari, xorijiy manbalar, normativ hujjatlar, baholash mezonlari ham keltirilgan.

O'quv –uslubiy majmua Andijon davlat universiteti ARM bo'limi qog'oz va elektron variantda foydalanish uchun topshirilgan .

Mualliflar haqida ma'lumot

**Filologiya fanlari nomzodi, dosent
Jalilov Baxrom Jalilovich**



Jalilov Baxrom Jalilovich 1969 yilda Andijon davlat pedagogika instituti yillarda Andijon Davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti tamomladi. 1970 yildan Andijon davlat universitetida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlagan. 1980-1986yillarda Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti dekani, keyinchalik o'quv ishlari bo'yicha prorektori, rektor vazifasilarida ishlagan. 1996 yildan Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida dosentii vazifasida ishlamoqda.

B. Jalilov ilmiy salohiyatining yuksakligi, o'z ishiga jiddiy yondoshishi, dunyoqarashining kengligi va barkamol insoniy fazilatlari bilan universitet professor-o'qituvchilari hamda talabalar o'rtasida alohida obro'ga ega. U o'z fanining bilimdoni, jonkuyar, halol ustoz ekanligi bilan ajralib turadi. B. Jalilov talabalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashdek oliy maqsad yo'lida butun kuch va bilimini safarbar etib kelmoqda.

Uning bugungi kunga qadar 2 ta monografiya, 10 dan ziyod o'quv –uslubiy qo'llanmalari, 60 dan ziyod ilmiy maqolalari chop etilgan.. Hozirda uning raxbarligida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jalilov Baxrom Jalilovich oilali, 4 nafar farzandi va nafar nabiralari bor. U yoshlarni milliy istiqlol g'oyalariga tayangan holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Foydali maslahatlar

O'quv-uslubiy majmuada ifodali o'qishga bag'ishlangan bir qator masalalar yoritilgan. Ifodaldi o'qish malakasini egallashni istagan talabalar majmuaning ma'ruza matn qismi bilan tanishib chiqsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Majmuadagi mavzular yuzasidan testlar tuzish va badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, ularni ifodali o'qishni mashq qilish va amalda qo'llash talabalarning bilimini yanada mustahkamlaydi.

Majmuada berilgan mustaqil va kurs ishlari mavzularini o'rganish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Majmuada berilgan xorijiy manbalar haqida ma'lumot internet saytlaridan olingan bo'lib, talabalarning ulardan foydalanishi kelgusida fanni qiyosiy o'rganish metodining shakllanishiga asos bo'ladi.

NORMATIV HUJJATLAR

O‘ZBYEKISTON DAVLAT STANDARTI

O‘zbekiston uzluksiz ta’limining

Davlat ta’lim standartlari

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar

mazmuniga qo‘yiladigan

TALABLAR

Rasmiy nashr

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Toshkent

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti

SO'Z BOSHI

1 ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini Rivojlantirish markazi;
- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

2 TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201_ yil «__» _____ dagi ____ - sonli buyrug'i. *Mazkur standart O'zbekiston Respublikasi hududida amalga kiritilishi (amal qilishining to'xtatilishi) va unga o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risidagi ma'lumotlar «O'zstandart» agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko'rsatgichlarda chop etiladi.*

Mazkur standart O'zbekiston Respublikasi xududida rasmiy chop etish xuquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

II

MUNDARIJA

	bet
1 Qo'llanilish sohasi	1
2 Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar	2
3 Ta'lim yo'nalishining tavsifi	2
4 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi	3
5 Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar	5
6 Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari	13

7	Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga belgilangan talablar	23
7.1	Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar	23
7.2	Ta'lim dasturlarining tadbiq etilishi	24
7.3	Malakaviy amaliyotlarni tashkil etish talablari	24
7.4	O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha talablar	25
7.5	Ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlash talablari	25
7.6	O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasi bo'yicha talablar	26
8	Bakalavr tayyorlash sifatini baholash	27
9	Eslatma	28
10	Davlat ta'lim standartining amal qilish muddati	28
11	Ilova	29
12	Bibliografik ma'lumotlar	30

O‘Z B E K I S T O N D A V L A T S T A N D A R T I

O‘zbekiston uzluksiz ta’limining

Davlat ta’lim standartlari

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy

bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan

TALABLAR

Gosudarstvennyye obrazovatelnye standarty

nepreryvnogo obrazovaniya Uzbekistana

Gosudarstvennyy obrazovatelnyy standart

vysshego obrazovaniya

TREBOVANIYa

k neobxodimomu sodержaniyu i urovnyu

podgotovlennosti bakalavra po napravleniyu

5120100 – Filologiya i obuchenie yazыkam (uzbekskiy yazыk)

State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan

State Educational Standards of Higher Education

REQUIREMENTS

Necessary for content and level of Bachelors in

5120100 – Philology and teaching languages (uzbek language)

Amal qilish muddati « ____ » _____ 201_ yildan

I Qo'llanish sohasi

1.1 Oliy ta'limning mazkur davlat ta'lim standarti (OT DTS) 5120100 – *Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.2 Oliy ta'lim muassasasi mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda DTS asosida ta'lim dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.3 OT DTSning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda asosiy ta'lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchi jamoalari;

- ta'lim yo'nalishining asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi va dekanat);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

2 Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar

Mazkur standartda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos ravishda atamalar va ta'riflardan foydalanilgan:

kasbiy faoliyat turi – ta'lim yo'nalishiga o'zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat ob'ektiga ta'sir qilishning metodlari, usullari, uslublari va tavsifi;

kompetensiya – ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilimlar, amaliy malakalar va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyati;

modul – tarbiyalash va o'qitishga yo'naltirilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo'lgan o'quv fani (kursi) yoki o'quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi;

ta'lim yo'nalishi – muayyan kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlarining majmui;

kasbiy faoliyat ob'ekti – predmetlar, voqeliklar, jarayonlar va faoliyat doirasida harakatga yo'naltirilgan tizimlar;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat ob'ektlarining majmui;

bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari (bakalavriat dasturi) – talabalarning tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv rejasi, o'quv kurslari, predmetlari, fanlari (modullari)ning dasturlari, malakaviy amaliyotlar dasturlari, o'quv jarayoni jadvali va mos ravishdagi ta'lim texnologiyalarini amalga oshirilishini ta'minlovchi o'quv-uslubiy majmulari metodik materiallar;

profil – asosiy ta’lim dasturining aniq kasbiy faoliyatning muayyan turi yoki ob’ektiga yo’nalganligi;

o’quv-o’rganish natijalari – o’zlashtirilgan bilimlar, amaliy malakalar, ko’nikmalar majmui;

o’quv sikli – mos ilmiy yoki kasbiy faoliyat doirasidagi bilimlar va amaliy malakalarni o’zlashtirish va ko’nikmalarni shakllantirishni ta’minlovchi asosiy ta’lim dasturlaridagi fanlarning majmui.

ARM - axborot resurs markazi;

ITI – ilmiy-tadqiqot ishlari;

OTM - oliy ta’lim muassassasi;

O’UM - o’quv-uslubiy majmua.

3 Ta’lim yo’nalishining tavsifi

3.1 Ushbu ta’lim yo’nalishini qamrab oluvchi oliy ta’limning asosiy ta’lim dasturlari amalga oshiriladi, uni nazariy va amaliy mashg’ulotlarini to’liq o’zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o’tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) xamda oliy ma’lumot to’g’risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi

3.2 Asosiy ta’lim dasturining me’yoriy muddati va mos malaka(daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Asosiy ta’lim dasturining muddati va bitiruvchilarning malakasi

Ta’lim dasturining nomi	Malaka (daraja)	Ta’lim dasturini o’zlashtirishning me’yoriy muddati
Bakalavriat ta’lim dasturi	Bakalavr	4 yil

4 5120100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili) ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohasi

5120100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili) – ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo’nalishi bo’lib, o’zbek tilining shakliy-mazmuniy tuzilishi va xususiyatlari hamda o’zbek adabiyoti materiallarini tizimli suratda o’rganish, o’zbek tili boyligi, sintaktik qurilishi imkoniyatlaridan badiiy ijod sohasida foydalanish, badiiy asar yaratish va uni tahlil qilish jarayonini o’z ichiga oladi.

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- badiiy asarni adabiy va lisoniy tahlil etish hamda uning metodlarini o’zlashtirish;
- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo’lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo’lishi;
- Vatan tarixini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo’yicha o’z nuqtai nazarini bayon etishi hamda ilmiy asoslay olishi, milliy g’oya asosida faol hayotiy o’rinni egallashi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo’lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olishi;
- insonlar orasidagi jamiyatga, atrof-muhitga bo’lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga ola bilishi;

– adabiyot va til bilimi to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, tahlil qilish, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish metodlarini egallash, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olishi;

– bakalavriatning mos yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– adabiyot va til sohasiga oid yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, o‘zini takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

– sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan baquvvat sport bilan shug‘ullanib borish zarurati haqida ilmiy tasavvurga va e‘tiqodga ega bo‘lishi, o‘zini jismonan takomillashtirish;

– kompyuter texnologiyalari va sohaga oid dasturlash imkoniyatlaridan foydalangan holda ish yuritish;

– tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi tizimli yondoshuv usullarini tahlil jarayoniga tadbiiq etish;

– sohaga oid dasturiy ta‘minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi bilan qurollanish;

– kasbiy ta‘lim didaktikasi;

– kasbiy ta‘lim pedagogikasi va metodikasi;

– o‘qitishning didaktik vositalari;

– ta‘limning elektron vositalari;

– sohaning o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim tizimidagi o‘rni va roli.

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati ob‘ektlari

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatining ob‘ektlari - o‘zbek tilida yaratilgan badiiy matnlar; fikr ifodalashda potensial ma‘no yasovchi materiallar; nutqning yaratilish jarayoni; muloqot birliklari; badiiy-estetik kommunikatsiya; matn talqini, tushunish va idrok etish, ta‘lim jarayoni me‘yoriy hujjatlari, pedagogik texnologiyalar, ta‘limning texnikaviy vositalarini o‘rganish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari:

• ilmiy va ilmiy-tadqiqot;

• O‘MKHT tizimida pedagogik faoliyat;

• OAV da muxbirlik, noshirlik va muharrirlik faoliyati;

• adabiy-tanqidiy faoliyat;

• tashkiliy-boshqaruv faoliyati kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta‘lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta‘lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr ta‘lim dasturini o‘zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va ixtisoslikning tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalar belgilanadi:

Ilmiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati:

– filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchi;

– namunaviy metodikalar va boshqalar bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

– ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

– o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

– ilmiy seminarlar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

– ilmiy-texnikaviy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

O‘MKHT tizimining mos ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat (pedagogik tayyorgarlikdan so‘ng):

– umumta‘lim maktablarida o‘zbek tili va adabiyotidan dars berish va o‘quv-metodik ishlarni olib borish;

– O‘MKHT tizimining mos ta‘lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

– O‘MKHT tizimining mos ta‘lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

– zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

– o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

– mustaqil ta‘lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish.

OAV da muxbirlik, noshirlik va muharrirlik faoliyati:

- ommaviy axborot vositalarida muxbirlik va muharrirlik;
- nashriyot va tahrir sohasida musahhih va muharrir;
- noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim;
- arxiv va adabiyot muzeylarida ekskursovod, ilmiy xodim;
- teatrdad adabiy emakdosh.

Adabiy-tanqidiy faoliyat:

-matbuotda e‘lon qilingan asarlarni taqriz qilish;

-adabiy jarayon masalalari va badiiy asarlarni tahlil qilish;

-ilmiy-adabiy jarayonda faol ishtirok etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

- filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbqiq qilish;
- pedagogik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

4.5 Ta‘limni davom ettirish imkoniyatlari

Bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin turdosh ta‘lim yo‘nalishlarining magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha ta‘limning vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadigan ikki yildan kam bo‘lmagan muddatda magistraturada o‘qishni davom ettirishi mumkin.

Pedagogik faoliyatni olib borganda o‘z malakasini har uch yilda oshirib turishi kerak.

5 Bakalavrning tayorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar

5.1 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi quyidagi **umumiy malakaviy kompetensiyalarni** egallagan bo‘lishi kerak:

a) umumiy malakaviy kompetensiyalar:

- intellektual, madaniy, ma‘naviy, jismoniy va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi va bu qobiliyatni amalda qo‘llay bilishi;
- tarixiy meros va madaniy an‘analarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy va madaniy farqlarni tolerantlik bilan qabul qilishi;
- tarixiy jarayonni yurituvchi kuchlarni va uning qonuniyatlarini tushunishi; tarixda zo‘ravonlik va zo‘ravonlik qilmaslikning roli, tarixiy jarayonda, jamiyatning siyosiy tuzilmasida insonning o‘rnini tushunishi;
- o‘zining shaxsiy dunyoqarashi orqali ijtimoiy va shaxsiy kabi ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- axloqiy va huquqiy me‘yorlar hamda majburiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat‘iyat ko‘rsatishi;
- fikrlash madaniyatini egallagan bo‘lishi, og‘zaki va yozma nutqini argumentlangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- egallagan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartirishi;
- hayot faoliyati xavfsizligi sharoitlarini umumiy baholashga qobil bo‘lishi, ishlab chiqarish xodimlari va aholini bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariya, halokatlar, tabiiy ofatlardan himoya qilish asoslarini va shikastlashning zamonaviy vositalarini qo‘llashi, ular oqibatlarini bartaraf qilishning asosiy tadbirlarini qo‘llay bilishi;

- kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, matematik tahlil va modellash, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida jamiyatning rivojlanishiidagi axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informatsion xavfsizlikning asosiy talablariga, jumladan, davlat sirini himoya qilish talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- internet tarmog'idan axbrotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- so'zlashuvdan kam bo'lmagan darajada bitta xorijiy tilni egallagan bo'lishi;
- mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sog'liqni mustahkamlashdan metodik to'g'ri foydalanish vositalarini egallagan bo'lishi, to'laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta'minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning kerakli darajasini egallashga tayyor bo'lishi kerak.

b) kasbiy kompetensiyalar, jumladan:

Umumkasbiy kompetensiyalar:

- kasbiy faoliyatda til va adabiyot bilimlarini o'zlashtirishda zamonaviy metodlarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik sohaslarini modellash va tahlil qilishda hamda ularni hisoblashda zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- badiiy asarni lisoniy va adabiy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- tahlil jarayonida zamonaviy metod va usullarni ishlatish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha faoliyatning ishlab chiqarish va texnologik masalalarini fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy yechish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchi; namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish; ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish; o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalar ishida ma'ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirok etish; ilmiy-texnikaviy va sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash.

- Internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish qobiliyatiga ega bo'lishi; ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik sohaga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- umumta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyotidan dars berish va o'quv-metodik ishlarni olib borish; O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish;

- O'MKHT tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish; zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish; o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish; mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

OAV da muxbirlilik, noshirlik va muharrirlik faoliyatida:

- ommaviy axborot vositalarida muxbirlilik va muharrirlik ishlarini amalga oshirish, mustaqil maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash qobiliyatini shakllantirish;

- nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, sohaga oid risola va monografiyalar bo'yicha musahhih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;

- noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim bo'lib faoliyat yuritish;

- arxiv va adabiyot muzeylarida ekskursovod, ilmiy xodim sifatida ishlash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;

– teatrdagi adabiy emakdosh sifatida ssenariylarni o‘qish, tahrir qilish va rejissyor hamda aktyorlarga badiiy asar mohiyatini tushuntirish.

Adabiy-tanqidiy faoliyatda:

- matbuotda e‘lon qilingan asarlarni taqriz qilish, ularga matbuot orqali munosabat bildirish va badiiy mukammal asarlarni yoshlarning ma‘naviy tarbiyasiga jalb qilish;

- adabiy jarayon masalalari va badiiy asarlarni tahlil qilish va o‘z xulosalarini matbuot, ilmiy nashrlarda e‘lon qilish;

- ilmiy –adabiy jarayonda faol ishtirok etish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish; pedagogik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarini rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

5.2 Ta‘lim dasturlari bo‘yicha bakalavrlarning bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar

5.2.1 Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo‘yicha talablar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar qismi bo‘yicha talablar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo‘yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yilgan talablar» asosida belgilanadi.

5.2.2 Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha talablar

Bakalavr:

- matematika dunyoni bilishning o‘ziga xos usuli, uning tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- sonlar va mulohazalar matematikasi asoslari;
- kombinator matematika va graflar nazariyasi asoslari;
- ehtimollar nazariyasi va matematik statistika asoslari;
- ma‘lumot o‘lchovlari, sifatleri, tasniflari;
- ma‘lumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish muammolari;
- kompyuterdan foydalanish va kompyuterda dasturlar tuzish;
- kompyuterning tuzilishi (qurilmalari);
- operatsion tizimlar (MSDOS, Microsoft Windows);
- amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point va Microsoft Paint);
- algoritm asoslarida kompyuterning ishlash prinsiplari, algoritmik amallar ketma-ketligini tuzish va jarayonlarni hayotga tatbiq etish;
- dasturlash (programmalash) tillari;
- tabiiy tillar grammatikasidagi muammolar;
- o‘zbek tilining axborot uslubi;
- tabiiy tillarda standartlashuv, optimallashtirish jarayonlari;
- umumiy lingvistikaning formal va aksiomatik nazariyalari;
- lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish;
- tillarga o‘qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash va kompyuter tarjimai dasturlari;
- organizm va muhitning o‘zaro ta‘siri, organizmlar majmuasi, ekotizimlar;
- tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari va tabiatdan maqsadga muvofiq foydalanish, tabiatni buzmas texnologiyalar yaratishning kelajagi;
- tabiatshunoslikning eng yangi kashfiyotlari, texnik qurilmalar yaratishda ulardan foydalanish istiqbollari;
- fizik, kimyoviy va biologik modellash;
- inson bioijtimoiy tabiatining biosfera bilan birligi nuqtai nazaridan o‘z kasbiy faoliyatining oqibatlari **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- matematika fanining predmeti;
- ijtimoiy sohalaridagi matematik modellar ishlab chiqilishi;
- o‘zbek tili grammatikasini formallashtirish muammolari;
- kombinator matematika asoslari, kombinatorikaning asosiy qoidalari;
- chekli to‘plamlar. Chekli to‘plamlar ustida amallar. O‘zaro bir qiymatli moslik;

- graflar nazariyasi asoslari. Graf tarifi. Uchlar va qirralar. Grafning geometrik interpretatsiyasi. Qo‘shnchilik va tegishlilik. Uch darajasi. Graf osti. To‘liq graf. Qo‘shnchilik va tegishlilik matritsalarini;
- ehtimollar nazariyasi. Tasodifiy hodisalar uchun elementar model. Hodisa va ular ustida amallar. Hodisaning statistik, klassik va geometrik ta‘rifi. Hodisa va ehtimolning aksiomatik ta‘rifi. Ehtimollar fazosi. Ehtimolning hisoblash formulalari. Shartli ehtimol. Hodisalarning bog‘liqligi. To‘la ehtimol formulasi;
- matematik mantiq asoslari. Mantiq funksiyalari. Mantiq funksiyalarining berilish usullari. Mukammal diz’yunktiv normal forma. To‘liqlik. {&, V, -} sistemaning to‘liqligi;
- fayllar bilan ishlash. Fayllarni ko‘chirish va nusxasini olish. Fayl nomini o‘zgartirish. Fayllarni yo‘qotish. Fayllar haqida ma’lumotni ko‘rish. Fayllarni izlash. Katalog (papka) hosil qilish. Hujjatni ochish va saqlash;
- kompyuter viruslaridan himoyalash. Kompyuter virusi namoyon bo‘lishi. Viruslardan himoyalashning asosiy vositalari. Viruslar bilan kurashuvchi ba’zi programmalar (antiviruslar);
- Windows operatsion tizimida ishlash;
- amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) bilan ishlash;
- mexanika, elektr va magnetizm, tebranishlar va to‘lqinlar, kvant fizikasi, statistik fizika va termodinamika, kimyoviy tizimlar, moddalarning reaksiyaga moyilligi, kimyoviy identifikatsiya, ekologiyaning asosiy tushunchalari, qonunlari va modellari;
- fizika, nazariy mexanika, kimyo va ekologiyadagi nazariy va tajribaviy tadqiqot usullari;
- inson atrof-muhitini fizik, kimyoviy va biologik hodisalarning zararli ta’sirlaridan himoya qilish vositalari va usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- Windows operatsion tizimida ishlash. Masalalar paneli. Asosiy menyu (Start menu). Ulardan foydalanish;
- fayllarni ko‘chirish va nusxasini olish. Fayl nomini o‘zgartirish. Fayllarni yo‘qotish. Fayllar haqida ma’lumotni ko‘rish. Fayllarni izlash. Katalog (papka) hosil qilish. Hujjatni ochish va saqlash;
- kompyuter viruslaridan himoyalashning asosiy vositalaridan foydalanish;
- kompyuter viruslari. Funksiya va buyruqlar. Oynalar bilan ishlash;
- amaliy dasturlar (Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point Microsoft Paint) bilan ishlash;
- rascal dasturlash tilida ishlash;
- tabiiy tillar formal nazariyasi (o‘zbek tili misolida). O‘zbek, rus va ingliz tillarini qiyosiy tahlil qilish;
- o‘zbek tilining axborot uslubi;
- leksikologiya va morfologiyada formallashtirish (so‘z, so‘z ma’nolari, so‘z turkumlari, qo‘shimchalar, so‘z yasash jarayoni);
- sintaksisda formallashtirish (gap bo‘laklari, gap konstruksiyalari);
- o‘zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasi. O‘zbek tili grammatikasining simvollari, formulalari, aksiomalari, keltirib chiqarish qoidalari, teoremlari bo‘yicha;
- o‘zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha;
- o‘zbek tili grammatikasini rivojlantirish istiqbollari aniqlash;
- lingvistik masalalarni kompyuter vositasida yechish yo‘llari;
- kompyuterda lingvistik masalalarni yechish muammolari. Lingvistik masalani birlamchi qo‘yilishi, matematik tilda qo‘yilishi, yechish algoritmi, yechish dasturi, kompyuterda masalani yechish;
- tabiiy tillarning kompyuter lug‘atlari (tub so‘zlar va yasama so‘zlar, atoqli otlar va geografik nomlar, so‘z haqida grammatik ma’lumotlar, sinonimlar, so‘z shakllari)dan foydalanish;
- tillarga o‘qitish va bilimlarni baholash algoritmlari;
- matnlarni tahrirlash algoritmlari (mexanik, imlo va shevaga xos, grammatik, uslubiy xatolar);
- kompyuterda inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha- inglizcha tarjima algoritmi (gapni tahlil qilish, tarjima qilish);
- o‘zbek tilida fe‘lning tuslanishi. Analiz va sintez dasturlari;
- lingvistik kompyuter dasturlarini takomillashtirish;
- fizik, kimyoviy va biologik modellarni tekshirish;
- ishlab chiqarish jarayoni va texnik vositalarda fizik, kimyoviy, biologik tizimlarning eng oddiy modellardan foydalanish;
- tabiiy fanlarning turli sohalarida qo‘llanadigan sonli ko‘rsatkichlar kattaliklari tartibini qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

5.2.3 Umumkasbiy fanlar bo‘yicha talablar

Bakalavr:

- o‘zbek shevalarining tarqalishi va tasnifi;
- o‘zbek shevalarining fonetik- grammatik xususiyatlari;
- sheva va adabiy til munosabati, o‘zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiyot qonuniyatlari;
- o‘zbek tilining asosiy shevalari;
- til sathlarining tarkibi, imlo qoidalari;
- hozirgi o‘zbek adabiy tili morfemikasi, so‘z yasalishi, semasiologiyasi, fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi;

- qadimgi turkiy til va uning asosiy manbalari;
- qoraxoniylar davri adabiy tili va manbalari;
- chigʻatoy adabiy tili va manbalari;
- XIX- XX asr oʻzbek adabiy tili va manbalari;
- tilshunoslik fanining tarixi;
- tilshunoslik metodlari;
- tilshunoslik taʼlimotlari va maktablari;
- zamonaviy tilshunoslik yoʻnalishlari;
- bakalavr talabalar xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos xususiyatlarini bilish, yozma adabiyot namunasidan ogʻzaki ijod namunasining farqi;
- adabiyot tarixining madaniyat tarixidagi oʻrni;
- adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari;
- mumtoz adabiyot janrlarining paydo boʻlishi va taraqqiyoti;
- yangi oʻzbek adabiyotini mumtoz soʻz sanʼatidan farqlari;
- yangi oʻzbek adabiyotining asosiy xususiyatlari;
- yangi oʻzbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- yangi oʻzbek adabiyotining yirik namoyandalari;
- adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari;
- adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi;
- adabiy nazariy tafakkur taraqqiyoti;
- jahon va turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, davrlari;
- jahon adabiyoti tarixida adabiy ijodiy metodlar;
- jahon va turkiy xalqlar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari;
- jahon adabiyotining mashhur namoyondalari ijodi;
- tanqidchilikning adabiyotshunoslikdan farqlari;
- hozirgi adabiy jarayonning asosiy xususiyatlari;
- oʻzbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining yirik namoyondalari ijodi;
- turkiy tillarning tarqalishi va tasniflari;
- turkiy tillarning umumiy va xususiy belgilari;
- zamonaviy turkiy tillarning fonetik-grammatik xususiyatlarini qiyoslash asoslari;
- turkiy tillarning tarixiy va hozirgi grammatik kategoriyalari va ularning variantlari;
- turkiy xalqlar folklori;
- turkiy xalqlar yozma adabiyoti tarixi;
- zamonaviy turkiy xalqlar adabiyoti;
- ona tili va adabiyot oʻqitishning prinsiplari va metodlari;
- ona tili va adabiyot oʻqitish nazariyasi va amaliyotining mazmuni;
- ona tili hamda adabiyot oʻqitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi asoslari *haqida tasavvurga ega boʻlishi*;
- shevalarni tasniflash tamoyillari va usullari;
- oʻzbek shevalarining lingvistik geografiyasi;
- hozirgi oʻzbek adabiy tilining tushunchaviy-terminologik apparati;
- oʻzbek tili sathlarining asosiy xususiyatlari;
- oʻzbek tili grammatikasini ilmiy tadqiq paradigmasi;
- nutq variatsiyasi va sinonimiyasi;
- “Devonu lugʻotit turk”ning qiyosiy turkiyshunoslikdagi oʻrni;
- Xorazm yodnomalarining til taraqqiyotidagi roli;
- Navoiy izdoshlarining adabiy til rivojidadagi oʻrni;
- til va yozuvning paydo boʻlishi;
- til oilalari. Genetik va morfologik tasnif;
- fonologiya, fonetika, morfologiya, sintaksis;
- grafika, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya;
- xalq ogʻzaki ijodi janrlarini bir-biridan ajrata olish, har bir janrning oʻziga xosligini izohlash;
- oʻzbek mumtoz adabiyoti matnlarini tahlil qilish;
- yangi oʻzbek adabiyotining yetuk namunalari;
- alohida yozuvchilar ijodi;
- eng yangi asarlar matni;
- vaqtli matbuot materiallari;
- adabiyot nazariyasi asoslari;
- adabiy tur va janrlar;

- adabiy yo‘nalish va ijodiy metod masalalari;
- badiiy uslub va poetika asoslari;
- turkiy filologiyaning yo‘nalishlari va maktablari;
- qadimgi va hozirgi turkiy tillarning ijtimoiy mavqei hamda taraqqiyot yo‘llari;
- turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy o‘rganish metod va usullari;
- turkiy tillar fonetik-grammatik xususiyatlaridagi o‘zgarishlar;
- turkiy xalqlar adabiyotshunosligi tarixini;
- turkiy xalqlar adabiyoti bo‘yicha asl manbalarin;
- ona tili va adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari;
- ona tili va adabiyot ta‘limini rejalashtirish yo‘llari;
- ona tili va adabiyot darslarining turlari;
- ona tili hamda adabiyotidan zamonaviy dasturlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- sheva materiallarini to‘plash, saralash va tahlil qilish;
- shevaga xos matnning fonetik, leksik hamda grammatik belgilarini farqlash;
- tilning ijtimoiy faoliyatga egaligini aniqlash;
- til siyosati haqida fikr bildirish olish;
- lug‘atlar bilan ishlash;
- til materialini tahlil eta olish;
- adabiy til me‘yorlari va uslublarini farqlash;
- hozirgi o‘zbek tilining funksional hamda uslubiy imkoniyatlaridan ijodiy foydalana olish;
- arab va fors imlosining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- o‘qish tarzi, so‘z yasalishi qoidalarini aniqlash;
- arab va fors tillari grammatikasini qiyoslash;
- qadimgi run, arab yozuvidagi manbalarni farqlash;
- arab alifbosidagi matnlarni o‘qish;
- manba matnlarini transkripsiya qilish;
- arab alifbosida yozish.
- arab va fors imlosida yozishni bilish;
- so‘z yasalishi va grammatik qoidalarini bilish;
- matnni o‘qish va tushunish;
- matnni tarjima qilishda lug‘atdan foydalana bilish;
- olgan bilimlari natijasida matnni to‘laligicha o‘qiy bilish;
- matnni to‘liq tarjima qilish;
- arab va fors imlosida xatosiz yoza bilish;
- xalq og‘zaki ijodi asarlarini g‘oyaviy va badiiy jihatdan tahlil etish, obrazlar tizimiga tavsif bera olish;
- og‘zaki ijod asarlarini ilmiy talablarga binoan yozib olish va uning pasportini to‘ldirish;
- badiiy matnni talqin va tahlil etish;
- ijodkor uslubini tekshirish;
- mustaqil ilmiy matn yozish;
- antik davr adabiyoti va mifologiyasini tahlil etish;
- XIX asr jahon adabiyotidagi realistik tamoyillarni ajrata bilish;
- XX asr jahon adabiyotining asosiy konsepsiyasi, modernizm, ekzistensializm va boshqa adabiy yo‘nalishlarning mohiyatini anglash;
- tanqid va adabiyotshunoslik yutuqlari, hozirgi o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari, badiiy va tanqidiy asarlar hamda vaqtli matbuot materiallarini tahlil eta olish;
- mumtoz adabiyotdagi poetik san‘atlarni bir-biridan farqlay olish;
- umumta‘lim maktablarining davlat dasturida qayd etilgan og‘zaki ijod namunalarini sinflar bo‘yicha adabiy o‘qitish talablariga binoan o‘quvchilarga o‘rgatish;
- ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotining yangilanish bosqichlari, yangi adabiyotning shakl va mazmunida yuz bergan o‘zgarishlar, mumtoz va yangi adabiyotning uzviyligi hamda yangi adabiyot bilan bugungi adabiyotning bog‘lanishlarini tushuntira olish;
- qo‘lyozma va tosh bosma manbalardan foydalana bilish;
- adabiyot tarixiga oid nazariy adabiyotlarni tahlil qila olish;
- yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotini davrlashtirish;
- badiiy asarlar mazmuni va shakliy o‘ziga xosligini aniqlash;
- jahon adabiyotida olgan bilimlarini amaliy faoliyatda tatbiq etish;
- adabiyotshunoslikning tahlil metodlaridan foydalanish;
- taqriz yozish;

- ilmiy asarlarni konspekt qilish;
- turkiy tillarga xos lisoniy hodisalarni qiyosiy tahlil eta bilish;
- qadimgi va hozirgi turkiy tillarning oʻrni va asosiy belgilarini baholay olish;
- turkiy tillarga xos lingvistik hodisalarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil etish;
- til hodisalarini oʻzaro farqlash va umumlashtirish yoʻllarini bilish.
- turkiy xalqlar adabiyoti asl manbalarini oʻqish;
- ona tili va adabiyotidan ish rejalarini tuza olish;
- ona tili va adabiyoti darslarining reja konspektini tuza olish;
- dars mashgʻulotini va nazorat ishlarini tahlil qila olish **koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.**

5.2.4 Ixtisoslik fanlari boʻyicha talablar

Bakalavr:

- filologiya sohasidagi asosiy muammolarni tushunishi;
- oʻz ixtisosligi doirasida muayyan tadqiqot sohasining obʻektlari;
- asosiy obʻekt va jarayonlarga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabatlar;
- filologik muammolar va ularni hal qilish yoʻllari **haqida tasavvurga ega boʻlishi;**
- ixtisoslik fanlarining tushunchaviy apparati;
- ixtisoslik fanlarining metod va usullari;
- ixtisoslik fanlarining ilmiy-tadqiq mavzularini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- badiiy-lisoniy tahlil etish;
- oʻzbek tili va shevalari namunalarini yozib olish, toʻplash va nashrga tayyorlash;
- oʻzbek adabiyoti namunalarini oʻqish, tarjima va tahrir qilish **koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.**

Bakalavr maxsus tayyorgarligiga aniq talablar oliy taʼlim muassasasi tomonidan belgilaniladi. Bunda maxsus kurs bloki mazmunidan kelib chiqiladi.

Bakalavr ixtisosligiga qoʻyiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yoʻnalishi boʻyicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy taʼlim muassasasi tomonidan belgilanadi

6 Taʼlim dasturining mazmuni va komponentlari

6.1 5120100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarni tayyorlashning taʼlim dasturi taʼlimning kunduzgi shakli boʻyicha 4 yil oʻqishga moʻljallangan boʻlib, quyidagi vaqt taqsimotiga ega:

Nazariy va amaliy taʼlim	136 hafta
Malakaviy amaliyotlar	16 hafta
Bitiruv malakaviy ish	5 hafta
Joriy va davlat attestatsiyalari	19 hafta
Taʼtillar	28 hafta
Jami	204 hafta

6.2 Talaba haftalik oʻquv yuklamasining maksimal hajmi 54 soat, shundan auditoriyadagi oʻquv yuklamasi – 32 soat, qolgan soatlar hajmi mustaqil taʼlim uchun ajratiladi.

6.3 Joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyalarni hisobga olgan holda taʼlim dasturining umumiy hajmi 4 yillik oʻquv davri uchun haftalik oʻquv yuklamalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6.4 Taʼlim dasturini oʻzlashtirishda bir qator masalalar yoki integrallashtirilgan kurslar muammolari boʻyicha talabalarning mustaqil taʼlimi koʻzda tutiladi.

6.5 5120100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) taʼlim yoʻnalishi boʻyicha taʼlim dasturining zaruriy mazmuni

6.5.1 Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning zaruriy mazmuni «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» bloki boʻyicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qoʻyilgan talablar» asosida belgilanadi.

6.5.2 Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar

6.5.2.1 Oliy matematika:

Elementar matematika asosiy tushunchalari. Haqiqiy sonlar. Ratsional va irratsional sonlar, xossalari. Ko'phadlar. Ko'phadlar ustida amallar, qisqa ko'paytirish formulalari. Chiziqli va kvadrat tenglamalar, tengsizliklar. Tekis figuralar, xossalari, yuzalari. Trigonometriya elementlari.

Tekislikda analitik geometriya. Tekislikda analitik geometriyaning sodda masalalari: ikki nuqta orasidagi masofa; kesmani berilgan nisbatda bo'lish; uchburchakning yuzini hisoblash. To'g'ri chiziqning turli xil tenglamalari. To'g'ri chiziqlarga doir asosiy masalalar: ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak, paralellik va perpendikulyarlik shartlari, nuqtadan to'g'ri chiziqqa masofa, ikki parallel to'g'ri chiziq orasidagi masofa. Koordinatalarni almashtirish: qutb koordinatalari, parallel ko'chirish va o'qlarni burish. Ikkinchi tartibli chiziqlar: aylana, ellips, giperbola, parabola va ularning kanonik tenglamalari. Ikkinchi tartibli chiziqlar klassifikatsiyasi. Ikkinchi tartibli chiziqlarni kanonik ko'rinishga keltirish.

Oliy algebra elementlari. Determinantlar va ularning xossalari. Kramer qoidasi va Gauss usuli. Matritsalar, matritsa ustida amallar. Teskari matritsa. Chiziqli sistemani matritsaviy usulda yechish. Kompleks sonlar va ularning formalari. Muavr formulalari. Algebraning asosiy teoremasi. Kubik va to'rtinchi darajali tenglamalarni yechish: Kardano formulasi va Ferrari usuli. Yuqori darajali tenglamalarning ratsional ildizlari. Viet teoremlari. Gerner sxemasi. Ratsional kasrlarni oddiy kasrlarga yoyish.

To'plamlar va funksiyalar. Limit. To'plamlar va ular ustida amallar. Elementar funksiyalar, ularning aniqlanish va o'zgarish sohalari. Elementar funksiyalar, turlari va ketma-ketliklar. Ketma-ketlik va funksiya limiti. Uzluksizlik, uzilish turlari. Ajoyib limitlar.

Funksiya hosilasi va differensial. Funksiya hosilasi. Hosilaning geometrik, iqtisodiy va mexanik ma'nolari. Hosila hisoblash qoidalari. Hosilalar jadvali. Yuqori tartibli hosila. Differensial. Differensiallashtirish jadvali va hisoblash qoidalari. Hosila tushunchasining iqtisodiy tadbiqlari.

Funksiyani to'liq tekshirish. Differensial hisobning asosiy teoremlari. Ferma, Roll, Lagranj, Koshi teoremlari va iqtisodiy mazmuni. Teylor va Makloren formulalari. Lopital qoidalari. Funksiyalarni tekshirish: o'sish va kamayishi, ekstremumlari, botiqlik va qavariqligi, asimptotalari. Ekstremum topish qoidalari. Ekstremumga doir masalalar.

Aniqlash integral. Aniqlash integral. Aniqlash integral jadvali. O'zgaruvchilarni almashtirish va bevosita integrallash. Ko'p uchraydigan integrallar. Bo'laklab integrallash. Ratsional kasrlarni integrallash. Algebratik irratsionalliklarni integrallash. Eyler almashtirishlari. Binomial differensial integrali. Trigonometrik funksiyalarni integrallash.

Aniq integral. Aniq integral, xossalari. Egri chiziqli trapetsiya yuzi. Nyuton-Leybnits formulasi. Aniq integralda integrallash usullari. Xosmas integrallar. Yoy uzunligi, jism hajmi, sirt yuzasini hisoblash.

6.5.2.2 Informatika:

Informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha asosiy tushunchalar. Informatika fani tarixi va hozirgi holati. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hozirgi jamiyatda tutgan o'rni. Zamonaviy EXMLarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, arxitekturasini. Kompyuterlarning texnikaviy ta'minoti. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari (printer, monitor, skaner, modemlar, tovush, tasvir kartalari va boshqalar).

Kompyuterning dasturli ta'minoti. Sistema dasturlari. Amaliy dasturlar. Kompyuter tili. Opreatsion sistemalar. Kompyuter ishlashini ta'minlaydigan boshqaruvchi dasturlar. Drayverlar. Ma'lumotlarni tashkil qilish va saqlashning fayl sistemasi. Disklar, kataloglar va fayllar. Fayl nomi. Faylga yo'l. Fayl va papkalarni izlash.

Zamonaviy Windows dasturlari muhitida ishlash. Windows operatsion sistemalari. Windowsning ishlash shartlari. Uning afzalliklari va kamchiliklari. Ish stoli va uning elementlari. Masalalar paneli, uni sozlash va paneldagi belgilar. Windowsning menyu sistemasi. Asosiy menyu va uning tarkibi. Kontekst menyu va u bilan ishlash. Menyudagi shartli belgilar. Windows da ishlashni optimallashtiruvchi programmalar. Diskni tekshirish va defragmentatsiya qilish. Windowsning sozlovlari bilan ishlash. Windows da fayl va papkalar bilan ishlash. Provodnik.

Windowsning multimedia imkoniyatlari. Windows multimedia imkoniyatlari va ulardan foydalanish qoidalari. Multimedia obektlar yaratish va ular bilan ishlash.

Fayllarni arxivlash va kompyuter viruslaridan himoyalash. Fayllarni arxivlash va ochish turlari, zaruriyati. Viruslar va ulardan himoyalash choralarini. Antivirus dasturlari.

MS Wordda hujjatlar bilan ishlash. MS Wordda Darchalar bilan ishlash. Ish sohasi. Asosiy asbob tugmachalari. Matnni ajratish. Matnni formatlash amallari. Hujjatni tahrirlash. MS Wordda ob'ektlar bilan ishlash. MS Wordda grafika. «Risovanie» paneli bilan ishlash. WordArt ob'ektlari. MS Wordda jadvallar bilan ishlash. MS Wordda oddiy veb-sahifalar yaratish. MS Wordning servis imkoniyatlari.

MS Power Point programmasi yordamida ko'rgazmalar yaratish. MS PowerPoint muharriri. Vazifalari. Oynasining tashkil etuvchilari. Slaydlar bilan ishlash. Shablon va fon. MS PowerPoint da ob'ektlar bilan ishlash, Animatsiya o'rnatish. Ko'rgazmalar tayyorlash. Boshqaruv tugmalari. MS Power Pointda oddiy veb-sahifalar yaratish.

MS Excel elektron jadvalda ishlash. MS Excel darchasining tuzilishi. Katakchalar bilan ishlash. Ularning absolyut va nisbiy manzillari. O'lchamlari. Varaqlar bilan ishlash. Ma'lumotlarni kiritishning avtomatik yo'llari. Satr va ustunlar ustida amallar bajarish. Funksiya va formulalar bilan ishlash. Diagrammalar. Ma'lumotlarni tartiblash va filtrlash.

Grafik muharrirlar. Vektorli va rastri kompyuter grafikasi. Paint, Adobe Photoshop dasturlari. Paint dasturidan foydalanish. Paint oynasi elementlari, asboblari paneli, ranglar palitrasi. Adobe Photoshopda tasvirlarni qayta ishlash. Qatlamlar va ranglar palitrasi. Filtrlar bilan ishlash.

Kompyuter tarmoqlari. Tarmoqda ishlash. Internet va elektron pochta. Lokal va global kompyuter tarmoqlari. Internet manzillari, qaydnomalari. Zamonaviy Mijoz-server texnologiyalari. Turli tipdagi fayllar bilan ishlash. Tarmoqda ma'lumotlarni izlash tizimlari. Elektron pochta.

Web sahifalar va hujjatlar yaratish hamda ular bilan ishlash. World Wide Web (WWW) ga kirish. HTML tili. Web sayt tarkibi va uni yaratish. Gipermurojaat. Web-sayt elementlari. Web-hujjatlarni avtomatik qayta ishlash uchun FrontPage dasturi. FrontPageda Web-sayt yaratish. Gipermurojaat hosil qilish.

Masofali ta'lim. Masofali ta'lim to'g'risida umumiy tushunchalar, imkoniyatlari va afzallik tomonlari. Masofali ta'limning elementlari. Elektron darsliklar.

Tarjimon programmalari va ulardan foydalanish. Promt turkumidagi dasturlar. Avtomatik tarjima va uning sozlovlari. Ma'lumotlarni avto-tarjima qilish.

Axborotlarni himoyalash. **Ma'lumotlarni himoyalash usullari. Internetda xavfsiz ishlashni tashkil qilish. Kriptografik usullar. Internetda axborot havfsizligi masalalari**

6.5.2.3 Demografiya asoslari:

Demografiyaning nazariy asoslari. Demografik tadqiqotlar uslublari va usullari. Demografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari. Demografik terminlar va tushunchalar. Demografiyaning tarixiy shakllanishi. Demografik jarayonlar va ularning rivojlanish qonuniyatlari. Demografiya, geodemografiya, demogeografiya. Aholi geografiyasi va demografiya.

Aholi haqida ma'lumotlar va ularning manbalari. Aholi ro'yxatlari va ularning tashkil etilishi. Joriy aholi hisobi. Doimiy aholi va mavjud aholi. Aholi zichligi va uning mintaqaviy xususiyatlari.

Urbanizatsiya va uning demografik asoslari va geografiyasi. Aholi migratsiyasi, uning turlari va yo'nalishlari. Jahon aholisi, O'rta Osiyo va O'zbekiston aholisi.

Demografik jarayonlar. Aholining jins, yosh, irqiy, milliy, ijtimoiy tarkibi. Aholi va uning ko'rsatkichlari. Demografik koeffitsientlar: umumiy va maxsus, ularning turlari va hisoblash usullari. Aholining tabiiy harakati. Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish. Bolalar o'limi va uning omillari. Reprodukativ mayl. Nikohda va nikohsiz tug'ilish. Tabiiy ko'payish va aholi takror barpo bo'lishi. Oila tarkibi va vazifalari. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

Demografik prognoz. Aholi umumiy sonini prognoz qilish. BMT prognozlari. Prognozlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

6.5.2.4 O'lkashunoslik:

Kirish. Kursning o'rganish ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Geografiya fanlari sistemasida o'lkashunoslikning o'rni. O'lkashunoslikning turlari, geografik o'lkashunoslik. O'lkashunoslikning tarix, arxeologiya, etnografiya va toponimika bilan aloqalari. O'lkashunoslikning rivojlanish tarixi.

O'lkashunoslikning asosiy manbalari: arxeologik, etnografik, toponimik manbalar, arxiv hujjatlari va muzey ekspozitsiyalari.

O'lkashunoslik va geografik o'lkashunoslikning tashkiliy shakllari: davlat o'lkashunosligi, jamoat o'lkashunosligi, maktab o'lkashunosligi va maktabdan tashqari o'lkashunoslik. O'lkashunoslikda kuzatuv ishlari. Ekskursiya va uni o'tkazish bosqichlari. Maktab o'lkashunosligi.

Ta'lim jarayonida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. Sinfdan tashqari o'lkashunoslik ishlari.

O'lkashunoslik muzeylarini tashkil qilish.

6.5.2.5 Ekologiya:

Ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikni ajralmas bir bo'lagi ekanligi. Atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan oqilona foydalanishga oid davlat siyosati, dasturlari va rejalari. Xalqaro hamjamiyatning umume'tirof etilgan huquq normalari orqali ekologik ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb muammolaridan biri ekanligi. Ekologiyaning nazariy-ilmiiy asoslari.

Tabiat-inson-jamiat munosabatlari va uning davriy rivojlanishining oddiy, iqtisodiy va ekologik munosabat shakllari. Tabiat-inson-jamiat munosabatlarini uyg'unlashtirish zarurati. Ekologiya fanining kelib chiqishi, tushunchasi, rivojlanish bosqichlari, maqsadi va vazifalari. Ekologiyaning fanlar o'rtasida tutgan o'rni, ekologik fanlar tizimi. Ekologiyani fanlararo aloqadorligi va uzviylik qoidalari. Ekologik konsepsiyalar va prinsiplar. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash zarurati. Respublikamizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash muammolari. Globallashtirish jarayoni, uning respublikamiz uchun ijobiy va salbiy ta'siri.

Ekosfera va Geosfera tushunchasi. Biotsenoz, biogeotsenoz undagi bog'lanishlar. Energiya, ozuqa zanjiri. Ekotizim – ekologiyaning ob'ekti ekanligi. Ekotizimlarning tasniflanishi. Biosfera – global ekotizim. Noosfera – “tafakkur qobig'i”. Ekotizimlarning xilma-xilligi va ularning tuzilishi. Producerslar, konsumentlar, reducerslar – ekotizimlarning funksional birliklari. Biogeotsenoz haqida tushuncha va uning ekotizimdan farqi. Ekotizimlarda energiya oqimi va uning hosil bo'lishi. Ekotizimlarda fotosintez jarayoni va biologik mahsuldorlik. Ekotizimlarda oziqa zanjiri va trofik darajalar. Ekotizimlarda biokimyoviy sikllarning tuzilishi. Ekotizimlarning rivojlanishi. Ekotizimlar o'zgaruvchanligiga organizmlarning moslashuvi. Moddaning aylanma harakati va energiya oqimi. Ekotizimlar barqarorligi va dinamikasi. Ekotizimni belgilovchi ko'rsatkichlar. Tabiiy va sun'iy ekotizimlar. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda tarqalgan ekotizimlar.

6.5.2.6 Kompyuter lingvistikasi:

Tabiiy tillarning kompyuter lug'atlari. Tub so'zlar lug'atlari. Yasama so'zlarni berish. Atoqli otlar va geografik nomlar lug'atlari. Tillarga o'qitish va bilimlarni baholash algoritmlari.

O'qitish algoritmlari. Bilimlarni baholash algoritmlari.

Matnlarni tahrirlash algoritmlari. Mexanik, imlo va shevaga xos xatolar. Xatolarni topish algoritmi. Xatolarni tuzatish algoritmi.

Kompyuterda tarjima algoritmi (inglizcha-o'zbekcha). Ingliz tilidagi gapni tahlil qilish algoritmi.

Tarjima qilish algoritmi.

O'zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasi. O'zbek tili grammatikasining simvollar. O'zbek tili grammatikasining formulalari. O'zbek tili grammatikasining aksiomalari. O'zbek tili grammatikasining keltirib chiqarish qoidalari. O'zbek tili grammatikasining teoremlari.

O'zbek tili grammatikasining aksiomatik modelini rivojlantirish yo'llari.

6.5.3 Umumkasbiy fanlar

6.5.3.1 Hozirgi o'zbek adabiy tili:

Adabiy til tushunchasi. O'zbek adabiy tilining shakllanish manbalari va qonuniyatlari. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Hozirgi o'zbek adabiy tili sathlari. Ular orasidagi munosabat.

Nazariy fonetika. Fonetika – o'zbek adabiy tilining tovushlari tizimini o'rganuvchi sath sifatida. Fonologiya – nutq tovushlarini o'rganuvchi sath. O'zbek tilida so'zning fonetik strukturasi va uning asosiy xususiyatlari. Fonema va uning variantlari. Fonetik hodisalar va ularning ko'rinishlari. O'zbek tilida urg'u, bo'g'in va ularning turlari. Ohang, so'z va gap ohangi, shuningdek, uning hususiyatlari. O'zbek grafikasi taraqqiyoti. Imlo masalalari, o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari. O'zbek adabiy tilining orfoepik tizimi.

Nazariy grammatika. Morfemika – tilning morfem strukturasi haqidagi ta'limot. Morfemalar tasnifi va xususiyatlari. So'z yasash tizimi. O'zbek tili so'z yasash tizimi bo'yicha qarashlar. Morfologiya – so'z shakllari haqida ta'limot. So'zlarni turkumlarga ajratish asoslari. So'z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. O'zbek tilining sintaksis tizimi. So'z birikmasi va u haqdagi qarashlar. So'z, gap, so'z birikmasi munosabatlari. Sodda gap sintaksisi. Qo'shma gap sintaksisi. Sintaksisda paradigmatika hamda sintagmatika. Shakl va mazmun munosabati. Sintaksisga formal-funksional va mazmuniy yondoshuv.

Semasiologiya. Leksikologiya. So'z ma'nolarining taraqqiyoti. Lug'aviy birliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra guruhlanishi: omonimlar, sinonimlar, antonimlar. Atamalar tizimining shakllanishi, lug'atchilik taraqqiyoti.

O'zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyoti. Tinish belgilari va ularning qo'lanish xususiyatlari. Tinish belgilari va gap qurilishi xususiyati o'rtasidagi bog'lanish.

O'zbek adabiy tilining me'yoriy shakllanishi. Adabiy til me'yori tushunchasi.

Tarixiy grammatika. O'zbek tili tarixining O'rta Osiyo olimlari tomonidan o'rganilishi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o'zbek tili tarixini o'rganishda asosiy manba sifatida. Alisher Navoiyning «Muhokamatul- lug'atayn» asari turkiy (o'zbek) tili tarixini o'rganish manbai. O'zbek tili tovushlarining tarixiy evolyutsiyasi. O'zbek tilida so'z tarkibining o'zgarishi, tarixiy so'z yasallishi va so'z yasovchi formantlar. Grammatik shakllarning tarixiy rekonstruksiya. O'zbek tilida gap qurilishining tarixiy ko'rinishlari va xususiyatlari.

Stilistika asoslari. Nutq uslublari, uning adabiy til me'yorlariga munosabati. Nutq uslublari tasnifi, uslub turlarining qo'llanish xususiyatlari. Nutq uslublarning til materiallari: leksikasi, grammatik shakllari. Uslubiy sinonimiya. Rasmiy-idoraviy uslubning takomili masalalari. Uslublarning qiyosiy o'rganilishi, ularda qo'llangan vositalar tadqiqi. Uslublarda til birliklarining imkoniyatlarini o'rganish

Amaliy fonetika. O'zbek tili nutq tovushlari tasnifi. Talaffuzda yuz beradigan fonetik hodisalar. Tovush va harf munosabati tahlili. Aksentuatsiya, intonatsiya va boshqalar bilan bog'liq hodisalar. Fonologik tahlil ko'nikmasi va malakasini shakllantirish. Imlo va orfoepiya munosabatidagi umumiy hamda xususiy jihatlar, ularning adabiy til me'yoriga munosabatini aniqlash.

Amaliy grammatika. So'z tarkibi tasnifi, so'zning ma'noli qismlarga ajratish, morfemalarning funksional-semantik, strukturaliy, pozitsion tavsifi. Grammatik ma'no va grammatik shakllardagi aloqadorliklarni farqlash. Grammatik kategoriyalar oppozitsiyasi, sinonimiyasi. So'z turkumlarini ajratish, ularning gapdagi vazifasini belgilash tamoyillari, so'z turkumlarining ko'chishi.

So'z birikmasi va so'zlarning grammatik munosabatga kirishish yo'llari, so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqa tiplarini ajratish. Gap tuzilishi hamda gap turlarining tahlili. Qo'shma gaplarni semantik-funksional tavsiflash va tahlil etish.

Amaliy stilistika. Uslublarda til birliklarining qo'llanilishi tahlili, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Nutq uslublari o'rtasida farqlar va umumiylikni til materiallari asosida dalillar. Turli matnlar tadqiqida qiyosiy-chog'ishtirma metoddan foydalanish. Til birliklari qo'llanilishida umumiy hamda xususiy tomonlar tahlili. Nutq uslublarning lingvistik tahlili. Uslubiy sinonimiya va uning ko'rinishlarini farqlash.

6.5.3.2 Til tarixi:

Til tarixi fani tarkibiga «Qadimgi turkiy til», «Eski o'zbek tili va yozuvi», «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi», «O'zbek adabiy tili tarixi» fanlari kiradi.

Qadimgi turkiy til. Kursning tarix, adabiyot, geografiya, xalq og'zaki ijodi, etnografiya va ularning har bir davri (X asrgacha) bilan bog'liqligi. Yozuvlar tarixi, xususan, O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari tarixi xaqida dastlabki ma'lumot. Qadimgi turkiy til, xususan, runik va uyg'ur yozuvlari bitiklari tili.

Eski o'zbek tili yozuvi. Arab-fors yozuvi asosida yaratilgan turkiy (eski o'zbek tili) yozma yodgorliklar. Ularning til xususiyatlarini o'rganish. Arab xati turlari, raqamlar, abjad hisobi, ta'rix san'ati, yozuvning isloh qilinishi.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. O'zbek xalqi va tilining tarixi, uning o'rganilish darajasi, turkiy tillar va ularning tasnifi, o'zbek xalqi va tilining shakllanishi, o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalalari. O'zbek tili tarixining fonetik-fonologik tizimi, morfem- morfologik strukturasi, undagi mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, so'z yasallish evolyutsiyasi hamda so'z birikmalari, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gap turlari, ularning tarixiy taraqqiyot etaplari.

O'zbek adabiy tili tarixi. Adabiy tilning asosiy taraqqiyot bosqichlari. Uning madaniyatimizdagi ahamiyati, adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari, adabiy til va dialektlar, adabiy til uslublari. Har bir davr tilining fonetik, leksik, grammatik farqlanishlari.

Turk-runik yodgorliklari tili. Qadimgi turk-runik yozuvi. Bu yozuvning Sharqiy Yevropadagi runik yozuvlardan farqi va o'xshash tomonlari. Qadimgi turk-runik yozuvining so'g'd yozuvi bilan aloqasi. Turk-runik yozuvining deshifrovkasi va paleografikasi. Qadimgi turk tili fonetikasi, grammatikasi va leksikasi.

Qoraxoniylar davri yozma yodgorliklar tili. Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va Zamaxshariyning ilmiy merosi. Chig'atoy adabiy tili. Temuriylar davri adabiy yodgorliklar tili. Navoiyning turkiy til taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi. Navoiyning tilshunoslik merosi. Bobur asarlarining til xususiyatlari. XVII-XIX asrlar yozma yodgorliklari tili. XX asr boshlaridagi o'zbek yozma matnlarining til xususiyatlari.

6.5.3.3 Tilshunoslik nazariyasi:

Tilshunoslikning boshqa fanlar orasidagi o'rni. Tilshunoslik predmeti. Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati. Tilshunoslik fanining vujudga kelishi. Til ijtimoiy hodisa sifatida. Til fikr ifodalashning vositasi ekanligi. Tilning ijtimoiy vazifalari. Til haqidagi fanning ichki qurilishi. Tillarning umumiy va xususiy tomonlari. Lisoniy tadqiqot an'analari. Tilshunoslik maktablari. Umumiy tilshunoslikning yetakchi muammolari: tilshunoslik ob'ekti, tilning ichki (strukturaviy) bo'linishi, funksiyalanishi, tarixiy taraqqiyoti, semiotik tabiati, lisoniy

universalialar, lingvistika fanining metodlari, tadqiqot paradigmaları, til fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Jahonning mashhur tilshunoslari. Hozirgi tilshunoslikning dolzarb masalalari. Til va tafakkur. Til va nutq. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Tillarning genetik, tipologik va areal tasniflari. Grafika. Orfografiya. Orfoepiya. Punktatsiya. Fonetika. Fonologiya. Morfologiya. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologik kategoriyalar. Sintaksis. So'z birikmasi. Gap. Sintaktik kategoriyalar. Matn. Leksika. Semantika.

6.5.3.4 Arab (fors) tili:

Arab yozuvi, arab (fors) tili fonetika, morfologiya, sintaksis va leksikologiyasi. Arab (fors) tili tovush tarkibi va uning alifboda ifodalanishi, harflarning talaffuzi, ularning yozilishi va o'qilishi. Unli va undosh harflar. Qisqa va cho'ziq unilarning yozuvda ifodalanishi. Arab (fors) tiliga doir so'zlar yasalishi, vaznlar, arabiy (forsiy) konstruktsiya va ifodalarning turkiy yozma yodgorliklaridagi o'rni. Arab lug'atchiligi, undan foydalanish qoidalar va o'zbek mumtoz adabiyoti; arab (fors) tili lug'at boyligi dars jarayonida so'z yodlash, uyga vazifa berish, matnlarni o'qish orqali o'zlashtirish. Arab (fors) tilida so'z tarkibi. Ot kesimli sodda yig'iq gap. So'roq va ko'rsatish olmoshlari. So'roq gapning yasallishi. Izofa va uning imlosi. Izofa zanjiri. Otlarda son kategoriyasi. Egalik affiksleri. Kesimlik kategoriyasi (asosiy predloglar). Fe'l. Fe'l negizlari va tarkibi. Fe'l zamonlarining yasallishi. Sifatdoshlar va ravishdoshlar. Arab (fors) tilida "birlik" va "noaniqlik"ning ifodalanishi. Fe'l mayllari. Sifat va uning darajalari.

6.5.3.5 O'zbek dialektologiyasi:

O'zbek dialektologiyasi predmeti. O'zbek dialektologiyasi tarixi. O'zbek shevalarini o'rganish metodlari. Transkripsiya. O'zbek shevalarining tasniflari. Qarluq lahjasi. Qipchoq lahjasi. O'g'uz lahjasi. O'zbek dialektal zonallari va azonal hududlar. Sheva va adabiy til munosabati. Sheva va adabiy til ontologiyalari orasidagi farq. Shevaning adabiy tilga asos bo'la olmasligi. Tayanch sheva birliklari haqidagi ta'limot. O'zbek shevalari fonetikasi, grammatikasi va leksikasi. Dialektologik lug'atlar. O'zbek shevalari atlaslari.

6.5.3.6 O'zbek xalq og'zaki ijodi:

O'zbek xalq og'zaki ijodi manbalari. O'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari. Qadimgi turk asotirlari. Xalq og'zaki ijodida janrlar tipologiyasi. Doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa janrdagi ijod namunalari. Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyot bilan hamqadam taraqqiyoti. Hozirgi zamon og'zaki ijod namunalari xususiyatlari.

6.5.3.7 O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi:

Adabiyot tarixining madaniyat tarixidagi o'rni. Adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Islomga qadar o'zbek adabiyoti. Ilk turk-islom davlatlaridagi adabiyot. Somoniylar, xorazmshohiylar va g'aznaviylar sulolalari davri adabiyoti. Mo'g'ul istilosi davri o'zbek adabiyoti. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Alisher Navoiy va uning adabiy davri. XVI-XIX asrlar adabiyotining xususiyatlari. Tasavvuf adabiyoti va uning manbalari. Adabiy muhit va maktablar. Buxoro xonligida badiiy adabiyot. Shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalari davri adabiyoti. Xiva adabiy muhiti va uning namoyandalari. XIX asr Xiva adabiy maktabi manbalari. Qo'qon adabiy maktabi. Umarxon davri adabiyoti. XIX asrning o'rtalarida Qo'qon adabiy muhiti. Saroydan tashqaridagi xalq adabiyoti manbalari. Adabiyotlarning o'zaro ta'siri va aloqasi.

6.5.3.8 Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti:

XIX asrning II yarmi - XX asr boshi o'zbek adabiyotidagi keskin o'zgarishlar. Jadidchilik va jadid adabiyoti. Yangi adabiyotning shakllanish manbalari va ilk qadamlari. Yangi maktablar va didaktik-ta'limiy adabiyot. Matbuot va adabiyot. O'zbek publitsistikasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Teatr va adabiyot. Yangi adabiy tur va janrlar. Vazn o'zgarishlari. Milliy uyg'onish g'oyalarining badiiy talqini. An'anaviy obraz-timsollarning yangi ma'no va mazmun kasb etishi. Yangi obraz va timsollarning kirib kelishi. Yangi o'zbek she'riyati, realistik proza, zamonaviy adabiyotshunoslikning qaror topish manbalari.

6.5.3.9 Yangi o'zbek adabiyoti tarixi:

XX asr boshlari o'zbek adabiyotidagi o'zgarishlar. Sho'rolar davri adabiyotining xususiyatlari. 20-30 yillar adabiyoti. Mafkuraviy tazyiq va adabiy jarayon. II jahon urushi va urushdan keyingi davr adabiyoti. 60-80 yillar adabiyotidagi o'zgarishlar. Qayta qurish davridagi adabiy ko'tarilish. Istiqlol davri adabiyoti va uning xususiyatlari. Milliy mafkura va badiiy ijod.

6.5.3.10 Jahon adabiyoti tarixi:

Jahon adabiyoti tarixining asosiy tamoyillari va davrlashtirish. Antik davr adabiyoti tarixi. Yunon va Rim adabiyoti tarixi. Tragediya va komediya. O'rta asrlar g'arb adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Ritsarlik adabiyoti. Yevropa adabiyotida uyg'onish davri. Italiyada uyg'onish. Fransiya da uyg'onish. Angliyada uyg'onish. Shekspir ijodi. XVP-XVSh asrlar Yevropa adabiyotida ma'rifatchilik va realizmning taraqqiyoti. D. Defo, D. Didro, F. Shiller va I. V. Gyote. Yevropa va Amerika adabiyotining XIX asrdagi kamoloti. Tanqidiy relizm adabiyoti. Rus adabiyotida realizm.

L.Tolstoy va F.M.Dostoevskiy ijodi. XX asr chet el adabiyotidagi asosiy adabiy oqimlar va konsepsiyalar. Modernizm, postmodernizm, ekzistensializm. Jahon adabiyotidagi hozirgi adabiy jarayon.

6.5.3.11 Adabiyotshunoslik nazariyasi:

Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqida ta’limot. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Ularning o’zaro bog’liqligi. Adabiyot tarixi, adabiy tanqid va adabiy jarayon. Adabiyot nazariyasi asoslari. Badiiy asar va uning tahlil tamoyillari. Adabiy tur va janrlar. Lirik, epik va dramatik tur. Lirik janrlar. Roman janri. Badiiy uslub va metod muammolari. Badiiy tasvir vositalari. Badiiy san’atlar. Badiiy asar tili. Adabiy yo’nalish va maktablar.

Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti. Adabiyotshunoslikdagi akademik maktablar. San’at nazariyasi. Badiiy adabiyot spetsifikasi. Badiiy asar yaxlitligi va tizimli tahlil. Adabiy tur va janrlar tipologiyasi. Adabiy jarayonning umumiy masalalari

6.5.3.12 O’zbek adabiy tanqidchiligi tarixi:

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Adabiy tanqidchilikning o’ziga xos xususiyatlari. Adabiy tanqidchili tarixiga bir nazar. Mumtoz adabiyot tarixi va adabiy tanqidchilik. Milliy adabiyotshunoslikning shakllanishida matbuot va matbaa vositalarining roli. XX asr boshlari adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning vujudga kelishi. Fitrat, Cho’lpon, Abdulla Qodiriyning adabiy tanqidiy qarashlari. Adabiy tanqid tarixi – adabiy asarlar va jarayonni baholovchi mezon sifatida. Adabiy tanqidchilikda shakl va uslublar xilma-xilligi. O’zbek munaqqidlari. M.Qo’shjonov va O.Sharafiddinov ijodi. Bugungi yosh adabiyotshunos va munaqqidlar xususida

6.5.3.13 Hozirgi adabiy jarayon:

XX asr adabiyotining insoniyat tarixidagi o’rni. XX asar adabiyotidagi asosiy yo’nalishlar. Hozirgi adabiy jarayonning asosiy tamoyillari. Mustaqillik davrida yaratilgan badiiy asarlar. She’riyat, nasr va dramaturgiya. Hozirgi yoshlar she’riyati va nasri. Modernizm to’g’risidagi bahslar. Bugungi dramaturgiya muammolari. Hozirgi adabiy jarayonga xos qonuniyatlar. Milliy istiqlol davrida yaratilgan badiiy-estetik kashfiyotlar. Istiqlol davri nasri va nazmi. Mustaqillik davrida yaratilgan o’zbek romaniga xos xususiyatlar.

6.5.3.14 Turkiy filologiyaga kirish:

Turkiy tillarning jahon tillari orasida tutgan o’rni. Turkiy tillarning tasniflari. Eng qadimgi turkiy tillar. O’rxun-Enisey yodgorliklari tili. Qadimgi uyg’ur tili. Qoraxoniylar davri turkiy tili. Chig’atoy tilining qardosh turkiy adabiy tillar shakllanishidagi roli. Mamluklar tili. Volgabo’yi turklari tili. Zamonaviy turkiy tillar.

6.5.3.15 Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi:

Fanning boshqa fanlar orasidagi mavqei. Turkiy tillarning Oltoy tillari orasidagi o’rni. Turkiy tillarning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari. Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasiga Qoraxoniylar davrida asos solinishi. Turkiy tillarga oid tasniflar. Turkiy tillarning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik qurilishi. Turkiy tillar fonetikasi, leksikasi va grammatikasini rekonstruksiyalash tamoyillari. Turkiy tillarning mo’g’ul, tungus-manchjur, ugor-fin, eroniy tillar bilan aloqasi. Turkiyshunoslikdagi etimologik tadqiqotlar. Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasini yaratish tamoyillari va qiyosiy-tarixiy metodning roli. Qiyosiy-tarixiy fonetika. Qiyosiy-tarixiy morfologiya. Qiyosiy-tarixiy sintaksis. Qiyosiy-tarixiy leksikologiya.

6.5.3.16 Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi:

Turkiy xalqlar adabiyotining xalqlar ijtimoiy madaniyat hayotidagi o’rni. Turkiy xalqlar adabiyotining asosiy bosqichlari. Turkiy xalqlar folklori. Turkiy xalqlar yozma adabiyoti tarixi. Turk adabiyotida tasavvuf. Tanzimot davri turk adabiyoti. Zamonaviy turk adabiyoti. Ozarbayjon, Qozoq, Qirg’iz, Turkman folklori, yozma adabiyoti tarixi, zamonaviy adabiyot.

6.5.3.17 Ona tili va adabiyot o’qitish metodikasi:

Ona tili o’qitish metodikasi fanining predmeti. Til ta’limining asoslari. Til ta’limi metodlari va usullari. Ona tili bo’yicha sinfdan uyushtiriladigan mashg’ulot turlari. Til darslari metodikasi. Bog’lanishli nutqni o’stirish metodikasi. Yozma ishlarni o’tkazish, tekshirish va baholash yo’llari. Dars tahlili metodikasi.

Adabiyot o’qitish metodikasi fanining predmeti. Adabiy ta’limning asoslari. Turkiston maktablari va madrasalarida adabiyot o’qitilishi tarixi. Adabiyot o’qitish metodlari. Badiiy matn ustida ishlash. Maktab germeneytikasi. Adabiyot bo’yicha sinf va maktabdan tashqari ishlar. Fakultativ mashg’ulotlarni uyushtirish. Yozma ishlar o’tkazish, tekshirish va baholash metodikasi. Adabiyot darslari tahlili.

6.5.3.18 Pedagogika:

Pedagogikaning nazariy asoslari. Metodologik fanlar: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika fanlaridagi o'zgarishlarning pedagogik jarayonga yangicha nuqtai nazarni shakllantirishdagi roli. Tarbiyaning uzviyligi va usluksizligi, milliy g'oya va milliy mafkura tarbiyasi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan hamkorligi.

Metod haqida tushuncha. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari va uni tadbqiq etish jarayoni. Metodning metodologik tasnifi. Pedagogik tadqiqot metodlari.

Insonning shakllanishida irsiyat, tarixiy, evolyutsion-ijtimoiy, biologik muhit va tarbiyaviy omillarning roli. Tarbiyada milliy g'oya va milliy mafkura, bolalarning psixologik va fiziologik davrlarga bo'linishini hisobga olish.

Tarbiya jarayonining bolalar yosh xususiyatlarga bog'liqligi. Tarbiya jarayoni va tarbiya metodlari. Tarbiyada psixologik omillar va insoniy sifatlar. Huquqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya.

Didaktika-pedagogikaning ta'lim nazariyasi va amaliyoti asoslarini o'rgatuvchi bo'lim ekanligi. Didaktika: ta'lim nazariyasi va asoslari. Mutaxassislikka tayyorlashda ta'lim jarayonining o'rni. Ta'limning mazmuni. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim metodlari va vositalari.

Ijtimoiy pedagogika asoslari. Jamoa tarbiya ob'ekti sifatida. Jamoani rivojlantirish bosqichlari. Oila jamiyatning kichik yacheykasi. Oiladagi bola tarbiyasida bolaning fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Pedagogik mahorat asoslari. Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari. Pedagogik faoliyatning maqsadi.

6.5.4 Ixtisoslik fanlari

Ixtisoslik fanlari ro'yxati va mazmuni kadrlar buyurtmachilarining talablari va bakalavrlar tayyorlashning ushbu yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

6.5.5 Malakaviy amaliyot

Folklor amaliyoti

Amaliyot o'tkaziladigan manzilga yetib olish. Ishga tayyorgarlik ko'rish. Amaliyot ishtirokchilariga xavfsizlik texnikasi haqida ma'lumot berish. Mahalliy xalq og'zaki ijodi yuzasidan tanishuv suhbatini uyushtirish. Respodentlar bilan materiallar yozib olish jarayonida muomala etikasiga amal qilishni o'rgatish. Material yozib olish texnikasi bilan tanishtirish. Guruhlarni kichik zvenolarga ajratish va har bir zvenoni o'z hududi bilan tanishtirish. Mahalliy aholidan xalq qo'shiqlari, topishmoq, maqol, tez aytish namunalarini yozib olish. Yozib olingan namunalarni qiyoslash, farqlarni aniqlash. To'plangan materiallarni tartiblashtirish, oqqa ko'chirish, hisobot uchun ma'lumot to'plash. Aholidan mahalliy hududda o'tkaziladigan marosimlar ro'yxatini aniqlash. Marosimlarni o'tkazish tartibini izohlash. Aholidan epik asarlardan namunalar yozib olishni boshlash. Respodentlardan mazkur asarlarni o'rganish tarixlarini yozib olish. Ekspeditsiya davomida alohida e'tibor qozongan respodentlar bilan suhbat o'tkazish. Hududda avval yashagan ijrochi va ijodkorlar haqida ma'lumot olish. Malakaviy amaliyot davrida yozib olingan materiallarni tartibga solish. Amaliyot bo'yicha hisobot tayyorlash. Folklor amaliyoti davomida to'plangan materiallarni tartiblashtirish. Amaliyot rahbarlariga hisobot topshirish.

Dialektologik amaliyot

Amaliyot haqida ma'lumot berish. Amaliyotga boriladigan hududni aniqlash. Belgilangan hudud shevasiga oid xususiyatlarni talabalarga eslatish. O'rganiladigan hudud shevasi vakillari bilan mo'ljallangan ilmiy va amaliy mazmundagi reja asosida guruh talabalarining muloqatlarini uyushtirish. Muloqotlarni yozib olish va ularni dialektologik materiallar sifatida yozib, transkripsiya qilish.

Yozib olingan sheva matnlarini guruhlab, alohida daftarlarga yozish, ularni amaliyot rahbarlariga topshirish. Amaliyot oxirida talablarni baholash.

Malakaviy amaliyot

Amaliyot o'tashi rejalashtirilgan nashriyot yoki ommaviy axborot vositalari tahririyatlari hamda ular tarkibidagi bo'limlar bilan tanishish. Nashriyot yoki tahririyatning mehnat intizomi va ichki tartib-qoidalari bilan tanishish va ularga to'la rioya qilish. Nashriyot yoki tahririyatning belgilangan mas'ul xodimlar tomonidan texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar olish. Amaliyot ob'ektining o'zi birlashtirilgan bo'limida maxsus mas'ul xodimlar rahbarligi ostida ish jarayoni bilan tanishish.

Qo'lyozmalarni qabul qilish bilan to'liq tanishish. Tahrir amaliyoti bilan to'liq tanishish. Nashriyot yoki tahririyat tomonidan belgilangan rahbar tavsiyasiga bilan muayyan topshiriq olish. Materiallarni taqrizlash malakasini

hosil qilish. Korrektura, tuzatish belgilaridan foydalanib, matn ustida ishlay olish malakasini shakllantirish. Matnning elektron nusxasini tayyorlash, uni nashr talablari asosida shakllantirish. Tahrir qilingan matnni elektron nusxa bilan solishtirish va tahrirda tuzatilgan o'rinlarni elektron nusxaga o'tkazish. Matnni so'nggi tahrirdan chiqarish va bu jarayonda matbaaning texnik talablari doirasida shakllantirish. Matn korrekturasi, musahhihlik ishlarini birinchi va ikkinchi korrektura o'qish orqali amalga oshirish. Musahhihlar tomonidan kiritilgan tuzatishlarni matnga o'tkazish va matnni texnik muharrir ko'rigiga tayyorlash. Nashrga tayyorlangan matnni co'nggi nazardan o'tkazish va matbaa talablari bo'yicha shakllantirish.

Materialni e'lon qilishga tayyorlashning barcha bosqichlari bilan to'liq tanishish. Bajargan ishlari bo'yicha amaliyot kundaligini muntazam ravishda to'ldirib borish. Amaliyot o'tkazish joyidan belgilangan rahbarning topshiriq va ko'rsatmalarini to'la bajarish. Tahririyatning ommaviy tadbirlarini tashkil etishda va o'tkazishda faol ishtirok etish.

Amaliyot bo'yicha hisobot tayyorlash va amaliyot rahbariga belgilangan vaqtda topshirish.

Pedagogik amaliyot

Kirish anjumanida ishtirok etish. Ta'lim tizimi bilan tanishish. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalarini belgilab olish. Dars kuzatish va tahlil qilish yo'llari. O'quvchi va talabalarning jismoniy, ruhiy hamda aqliy taraqqiyotiga doir ma'lumotlarni to'plash, tizimga solish, tahlil qilish. Belgilangan sinf va kurslarda tegishli fanlardan dars o'tish va uning tahlilida ishtirok etish. Bir o'quvchi yoki talabaga atroflicha tavsifnoma yozish. Yakuniy anjumanni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok qilish.

6.5.6 Bitiruv malakaviy ish (loyihasi)

Bitiruv malakaviy ish(loyiha)lar mavzui ta'lim muassasasining bitiruvchilarini chiqaruvchi kafedralari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining talablarini, shuningdek zamonaviy fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish filologik: tilshunoslik, adabiyotshunoslik yoki shu sohadagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida bo'lishi mumkin.

Talabaga bitiruv malakaviy ishi(loyiha) topshirig'i, odatda, u uchinchi kursni tugatgandan so'ng beriladi. Ish (loyiha) to'rtinchi kurs davomida, shuningdek, mazkur standartda bajarish uchun ajratilgan vaqt mobaynida bajariladi.

7 Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan sharoitlarga bo'lgan talablar

7.1 Bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishiga belgilangan umumiy talablar

7.1.1 Ta'lim dasturini ishlab chiqishda OTM respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy tarmoqlari, boshqaruv va xo'jalik yuritish sub'ektlari uchun fundamental, ayniqsa, yuqori va innovatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar ehtiyojini hisobga olishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalari asosiy ta'lim dasturini fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot, texnologiya va ijtimoiy soha rivojlanishini hisobga olgan holda muntazam ravishda yangilab turishi lozim.

7.1.2 Ta'lim dasturini ishlab chiqishda OTM tomonidan bitiruvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini (ijtimoiy o'zaro ta'sir, o'z-o'zini tashkil qilish va boshqarish, tizimiy-faoliyat tavsifidagi kompetensiyalarni) shakllantirishdagi imkoniyatlari aniqlangan bo'lishi kerak. OTM o'zining ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishga, shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga mas'ul.

OTM o'quv jarayonini ijtimoiy-tarbiyaviy rivojlantirishga, talabalarining ijtimoiy tashkilotlar ishida, sport va ijodiy to'garaklarda, magistr'larning ilmiy jamiyatlarida ishtirokiga ko'maklashishi lozim.

7.1.3 Kompetentli yondoshuvni amalga oshirish o'quv jarayonida mashg'ulotlarning faol va interfaol (kompyuter simulyatorlari, ishbilarmonlar o'yini, muayyan vaziyatlarni ko'rib chiqish va h.k.) shakllarini o'tkazishni, talabalarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida auditoriyadan tashqari ish bilan birgalikda jahon pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning samarali strategiyalari, metodlari va uslublarini keng qo'llashni nazarda tutishi kerak.

Faol va interfaol shakllarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning ulushi dasturning asosiy maqsadi, o'qiyotgan kontingent xususiyatlari va muayyan fan mazmuni bilan aniqlanadi. Talabalarining akademik guruhlar uchun ma'ruza turidagi mashg'ulotlar auditoriya mashg'ulotlarining 50 % idan ortmasligi kerak.

7.1.4 Talabalar o'quv yuklamasining maksimal hajmi asosiy ta'lim dasturi va ta'lim dasturiga OTM tomonidan qo'shimcha belgilanadigan fakultativ fanlarni o'zlashtirish bo'yicha auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) ta'lim bilan birgalikda haftasiga 54 akademik soatdan oshmasligi kerak.

7.1.5 OTM talabalar uchun o'qish dasturini, bo'lishi mumkin bo'lgan individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni inobatga olgan holda, shakllantirishda real ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashga mas'ul.

7.1.6 O'quv dasturini shakllantirishda OTM talabalarni ularning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishga, talabalar uchun tanlov fan(modul, kurs)lari majburiy ekanligini tushuntirishi kerak.

7.1.7 Talabalarda bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarni to'liq shakllantirish uchun OTM ta'lim dasturi o'quv fanlari (modullari) bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni qamrab olishi kerak.

7.2 Ta'lim dasturlarining tadbiq etilishi

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash ta'lim dasturi rivojlantiruvchi o'qitish, axborot texnologiyalari va o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanilgan holda tayyorlashning ushbu yo'nalishi bo'yicha akkreditatsiya qilingan oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi kerak.

Talabalar xorijiy tillarni o'zlashtirishi, xorijiy tillarni o'qituvchilar o'qitishi hamda buning uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi bakalavrlarni tayyorlashda bosh vazifa bo'lishi kerak.

Malakaviy amaliyotlar zamonaviy korxonalarda, tashkilotlarda va ITlarda o'tkaziladi, ular talabalarni amaliyot dasturlarida ko'zda tutilgan ish joylari bilan ta'minlashlari kerak.

O'qish davrida talaba kamida ikkita Davlat attestatsiyalarini (gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy va chet tili fanlaridan) topshiradi va bitiruv malakaviy ishini himoya qiladi. Davlat attestatsiyasi mos integrallashgan kurslar bo'yicha o'quv jarayoni tugallangandan keyin topshiriladi.

7.3 Malakaviy amaliyotlarni tashkil etish talablari

Amaliyotlar bakalavriat asosiy ta'lim dasturining majburiy bo'lagi hisoblanadi. Amaliyotlar o'quv yoki o'quv-ishlab chiqarish mashg'ulotlari ko'rinishida bo'lib, talabalarining kasbiy-amaliy tayyorgarlanganligiga bevosita yo'налgan bo'ladi. Bakalavrlarni tayyorlashning ta'lim dasturi o'qiyotganlar to'rtta amaliyotni – folklor, dialektologik, malakaviy va pedagogik amaliyotlarini o'tishni o'z ichiga oladi.

O'qishning birinchi yilida folklor amaliyoti o'tkaziladi, maqsad – og'zaki ijod namunalarini to'plash, ularni tahrir qilish, nashrga tayyorlash va o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha zaruriy talablar bilan tanishtiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirgan talabalar amaliyot natijasi va hisoboti baholash mezonlari asosida baholanadi.

Dialektologik amaliyotda o'rganiladigan hudud shevasi vakillari bilan mo'ljallangan ilmiy va amaliy mazmundagi reja asosida guruh talabalarining muloqatlari uyushtiriladi. Muloqotlarni yozib olinadi va ular dialektologik materiallar sifatida transkripsiya qilinadi. Yozib olingan sheva matnlari guruhlanib, alohida daftarlarga yoziladi va amaliyot rahbarlariga topshiriladi. Amaliyot oxirida talabalar baholanadi.

Malakaviy amaliyot o'tkazishdan maqsad- talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasb ko'nikmalarini hosil qilish va takomillashtirish, mutaxassislik mahoratini oshirish, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga jalb qilishdan iborat.

Amaliyot nashriyotlar va ommaviy axborot vositalari tahririyatlarida o'tkaziladi. Talabalarda kasbiy-amaliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishga diqqat qaratiladi.

Pedagogik amaliyotda talabalar ta'lim tizimi bilan tanishadi. Dars kuzatish va tahlil qilish yo'llarini o'rganadi. O'quvchi va talabalarining jismoniy, ruhiy hamda aqliy taraqqiyotiga doir ma'lumotlarni to'playdi, tizimga soladi, tahlil qiladi. Belgilangan sinf va kurslarda tegishli fanlardan dars o'tadi va uning tahlilida ishtirok etadi. Yakuniy anjumanni tayyorlash va o'tkazishda qatnashadi.

Talabaning ilmiy-tadqiqot ishi amaliyotning bir bo'lagini tashkil qilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishi bitiruvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlashga ko'maklashadi. U bitiruvchini 8 semestrda kafedraning ilmiy ishida albatta ishtirok etishini, kurs ishlarini kasbiy (maxsus) siklning bazaviy fanlari mavzusi bo'yicha bajarilishi va himoya qilinishini, talabalarining talabalar ilmiy jamiyati yo'nalishi bo'yicha ilmiy ishda ishtirok etishini va bitiruv malakaviy ishini kafedraning ilmiy mavzusi bo'yicha bajarilishini nazarda tutadi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishining tashkil qilinishi quyidagilar bilan ta'minlanishi kerak:

- kurs ishlarining har yili yangilanadigan mavzulari haqida o'qiyotganlarni o'z vaqtida xabardor qilish;
- chiqaruvchi fakultet (kafedra)ning ilmiy mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi uchun laboratoriyalarda o'qiyotganlarni ish joyi bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasasining axborot resurs markazida mustaqil ilmiy-tadqiqot ishini olib borish imkoniyatini taqdim etish;
- talabalar ilmiy jamiyatining konferensiyalarini tashkil qilish;
- talabalar ilmiy konferensiyasi g'oliblariga mamlakatning boshqa oliy o'quv yurtlariga ma'ruzalar bilan chiqish imkoniyatlarini taqdim etish.

7.4 O'quv jarayonini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha talablar

Bakalavriat asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish o'qitilayotgan fanning ixtisosligiga mos, odatda, bazaviy ta'limga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlar bilan va tizimiy ravishda ilmiy yoki ilmiy-metodik faoliyat bilan shug'ullanayotgan kadrlar bilan ta'minlanishi kerak.

Ixtisoslik fanlari o'qituvchilari o'qitilayotgan fan profiliga mos bazaviy ta'limga yoki ilmiy darajaga ega bo'lishlari kerak. Ta'lim jarayoniga amaldagi tegishli tarmoq tashkilotlari, korxonalari va muassasalarining rahbarlari va yetakchi mutaxassislari o'qituvchilikka jalb etilishi mumkin.

7.5 Ta'lim jarayonini o'quv-metodik va axborot resurslari bilan ta'minlash talablari

Asosiy ta'lim dasturi asosiy ta'lim dasturining hamma o'quv kurslari, fanlari (modullari) bo'yicha o'quv-metodik hujjatlar va materiallar bilan ta'minlanishi kerak.

Asosiy ta'lim dasturining amalga oshirilishi har bir o'qiyotgan asosiy ta'lim dasturidagi fan (modul)larning to'liq ro'yxati bo'yicha shakllanadigan ma'lumotlar bazasi va kutubxona fondidan foydalanish huquqi bilan ta'minlanishi kerak.

Asosiy ta'lim dasturi bo'yicha har bir o'qiyotgan o'rnatilgan me'yorlarga mos ravishda ta'lim dasturiga kiruvchi kasbiy siklning har bir fani bo'yicha o'quv va o'quv-metodik chop etilgan yoki elektron nashrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Axborot-resurs markazining asosiy fondi oxirgi 10 yilda (gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy siklning bazaviy fanlari uchun – oxirgi 5 yilda) chop etilgan hamma sikllarning bazaviy qismi fanlari bo'yicha o'quv adabiyotining chop etilgan va yoki elektron nashrlari bilan but qilingan bo'lishi kerak.

O'quv adabiyotidan tashqari qo'shimcha adabiyot fondi rasmiy ma'lumotnoma-bibliografik va davriy nashrlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ta'lim dasturini to'liq amalga oshirish uchun OTMning ARMDa ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida keltirilgan fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv-uslubiy adabiyotlar va chet elda chop etilgan hamda internet tizimidagi axborot manbalari har bir talabaga yetarli darajada bo'lishi kerak.

Mamlakatimizdagi va chet eldagi oliy ta'lim muassasalari, korxonalari va tashkilotlari bilan operativ ravishda axborot almashish, zamonaviy kasbiy ma'lumotlar bazalari, axborotlar va qidiruv tizimlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavni tayyorlash jarayonida asosan quyidagi pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- o'qitishning interfaol metodi,
- muammoli o'qitish texnologiyasi,
- o'yinli texnologiyalar,
- tanqidiy fikrlash rivojlanishining pedagogik strategiyalari,
- shaxsiy yo'nalganlik asosidagi pedagogik texnologiyalar,
- o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar,

o'qitishni differentsiatsiyalash,

o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi,

dasturiy o'qitish texnologiyasi,

o'qitishning kompleks metodlari (loyihaviy metod, tarmoqli rejalashtirish metodi, aqliy hujum, assotsiogrammalar metodi va h.k.)

7.6 O'quv jarayonining moddiy-texnika bazasi bo'yicha talablar

Bakalavr tayyorlashning asosiy ta'lim dasturini amalga oshiruvchi OTM o'quv dasturida nazarda tutilgan va amaldagi sanitar va yong'inga qarshi qoidalar va me'yorlarga mos keladigan moddiy-texnika bazasiga ega bo'lishi kerak; bu moddiy-texnik baza fanlar va fanlararo tayyorgarlikning hamma turlarini, o'qiyotganlarning laboratoriya, amaliy va ilmiy-tadqiqot ishi o'tkazilishini ta'minlashi kerak.

Bakalavr dasturini amalga oshirish uchun minimal zarur bo'lgan moddiy-texnikaviy ta'minot ro'yxati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ma'ruza (potok yoki guruhlar) auditoriyalari;
- seminar mashg'ulotlari uchun auditoriyalar;
- ilmiy-tadqiqot ishini o'tkazish uchun laboratoriyalar.

Mavjud moddiy baza quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- illyustrativ materiallarni namoyish qilish uchun turli apparaturalar – ma'ruzalarni o'tkazish;
- laboratoriya ishlari dasturiga mos ravishda jihozlar – bazaviy fanlar bo'yicha laboratoriya-amaliy ishlarni bajarish;
- laboratoriyaning amalga oshirilayotgan ilmiy mavzusiga mos ravishda jihozlar – ixtisoslik (maxsus) fanlar bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarish;
- axborot tizimlaridan foydalanish uchun kompyuterlar – seminar mashg'ulotlarini o'tkazish, lingafonli kabinetlar – xorijiy tillar bo'yicha mashg'ulotlar.

8 Bakalavrlar tayyolash sifatini baholash

8.1 Oliy ta'lim muassasasi tayyorgarlik darajasi sifatini kafolatli ta'minlashga majbur, jumladan, quyidagi yo'llar bilan:

- ish beruvchilar vakillarini jalb qilgan holda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi sifatini ta'minlash bo'yicha strategiyani ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlari monitoringini o'tkazish, ularni davriy taqriz qildirish;
- talabalar bilimi va amaliy ko'nikmalari darajasini, bitiruvchilar kompetensiyalarini ob'ektiv baholash protseduralarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilar tarkibining kompetentligini ta'minlash;
- ish beruvchilar vakillarini jalb qilgan holda faoliyat (strategiya)ni baholash va boshqa ta'lim muassasalari bilan taqqoslash uchun muvofiqlashtirilgan mezonlar bo'yicha muntazam ravishda tahlil qilishni o'tkazish.

8.2 Bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat – oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan nazoratning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom asosida o'tkaziladi;

yakuniy davlat nazorati davlat ta'lim standartiga muvofiq fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasini va bitiruv ishi himoyasini o'z ichiga oladi;

davlat-jamoat nazorati oliy ta'limning boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladi;

tashqi nazorat Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi Boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste'molchilari tomonidan ularning mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

8.3 Har bir fan bo'yicha bilimlarni joriy va oraliq nazorat qilishning muayyan shakli va o'quv jarayoniga tadbiq etilishi OTM tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi va talabalar e'tiboriga o'qishning birinchi oyi davomida yetkaziladi.

8.4 Talabalarning o'zlashtirishi joriy nazorati va oraliq attestatsiyasi dasturlari ularning bo'lajak kasbiy faoliyati sharoitlariga maksimal yaqinlashtirilishi uchun sharoitlar OTM tomonidan yaratilishi kerak. Buning uchun muayyan fan o'qituvchilaridan tashqari tashqi ekspertlar sifatida ish beruvchilar, turdosh fanlardan dars beruvchilar va bovalar bu jarayonga faol jalb qilinishi kerak.

8.5 Yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavr bitiruv malakaviy ishi himoyasini o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuni, hajmi va tuzilmasiga bo'lgan talablar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazish haqidagi Nizom asosida oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

8.6 Oliy ta'lim muassasasi:

- ushbu standartdagi talablarga rioya qilinishi va oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizomda nazarda tutilgan bakalavr tayyorlashning sifati;

- professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-yordamchi xodimlar malakaviy talablarga to'la mos kelishi;
- har bir integrallashtirilgan kurs fanlarining kurs dasturida nazarda tutilgan o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv-uslubiy majmualar, shuningdek, mustaqil ta'lim va mustaqil tayyorgarlik uchun materiallar bilan ta'minlanganligi;
- o'quv jarayonining moddiy-texnikaviy ta'minlanganligi uchun to'la mas'uldir.

9 Eslatma

9.1 Oliy ta'lim muassasasiga:

- ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta'minlagan holda talabaning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o'quv materialini o'zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o'quv fanlari bloklari uchun 5% oralig'ida, blokga kiruvchi o'quv fanlari uchun 10% oralig'ida o'zgartirish;

- o'quv fanlari mazmuniga fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritish;

- bitiruv malakaviy ish (loyiha) mavzusini belgilash oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

9.2 Kurs ishlari (loyihalari) muayyan o'quv faoliyatining bir turi sifatida ko'riladi va ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

9.3 Davlat ta'lim standartini bilish professor-o'qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

10 Davlat ta'lim standartining amal qilish muddati

10.1 Davlat ta'lim standarti o'rnatilgan tartibda tasdiqlanib, "O'zstandart" agentligida davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin amal qilish muddati – 5 yil.

10.2 Davlat boshqaruvining vakolatli ogranlari tomonidan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etish to'g'risida yangi tartib-qoidalar qabul qilinsa DTSlarning amal qilish muddati o'zgarishi mumkin.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**OLIIY TA’LIM MUASSASALARIDA
TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA
BAHOLASHNING REYTING TIZIMI TO‘G‘RISIDA**

N I Z O M



Toshkent 2010

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUYRUQ

Toshkent shahri

“29” avgust 2010 yil № 333

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-modda, 295-modda) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 20 iyuldagi 341-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 29-son, 332-modda) muvofiq, shuningdek oliy ta‘lim muassasalari talabalarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i (ruyxat raqami 1981, 2009 yil 10 iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 yil, 28-son, 330-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab o‘n kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

Vazir :

B.Xodiev

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat

qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida

N I Z O M

(Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ruyhatidan o'tkazilgan.

Topshiriqqa binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ruyxatidan qayta o'tkazilgan.)

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-modda, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

ye) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan **“Yozma ish”** (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun **“Yozma ish”** yoki **OTKS** (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov)) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan **40%** fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

9. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi **100 ballik** tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga – **30 ball**;

joriy va oraliq nazoratlarga – **70 ball** (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda **70 ball** kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

12. Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – **100 ball** tizimda baholanadi.

14. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) **86-100 ball** uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikr olish;

mustaqil mushohada yuritish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

b) **71-85** ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

v) **55-70** ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi **0-54** ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
bilmaslik.

15. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

16. Namunaviy mezonlarga muvofiq mutaxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholashmezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.

17. Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

18. Talabning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_r = \frac{V \cdot O'}{100}$$

bu yerda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

19. Fan bo'yicha joriy, oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning **55 foizi** saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha **55** va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning **55 foizi** saralash ball qilib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan balning **55** va undan yuqori foizidagi balni to'plagan talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

20. Talabning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalariga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o'tkazish muddati

21. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi **2 haftasi** mobaynida o'tkaziladi.

22. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

23. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

24. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi **55 balidan** kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzidor hisoblanadi.

Akademik qarzidor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

25. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan **3 (uch) a'zodan** kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

26. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

27. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "**O'quv rejasida ajratilgan soat**" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "**Fandan olingan baho**" ustuniga esa **100 ballik** tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

28. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, **2 (ikki) kun muddat ichida**) talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

29. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarining fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

30. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

31. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

32. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

33. Talabalarining nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

34. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

35. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

36. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

37. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

BAHOLASH MEZONI

Baholash turlari bo'yicha ballar taqsimoti

Soatlar			joriy baholash (45 ball)						oraliq baholash (45ball)						yakuniy baholash
			Amaliy			mustaqil ish			Maʼruza			mustaqil ish			
maʼruza	amaliy	mustaqil ish	soni	bali	jami ball	soni	bali	jami ball	soni	Bali	jami ball	soni	bali	jami ball	bali
14	24	20	1	25	25	1	10	10	1	25	25	1	10	10	Og`zaki

NAZORAT TURLARINI O'TKAZISH TARTIBI

4. Joriy nazorat o'tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg'ulotlarni tekshirish;
- test sinovlari o'tkazish;
- nazorat ishlarini o'tkazish;
- og'zaki so'rov.

5. Oraliq nazoratni o'tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

- kollokvium;
- og'zaki so'rov;
- test sinovlari o'tkazish;
- yozma ish.

6. Yakuniy nazoratni o'tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida Ifodali o'qish fanidan og'zaki tartibida o'tkaziladi. Savollar variant ko'rinishida ham berilishi mumkin.

“Ifodali o'qish” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Ifodali o'qish” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat 1 marta o'tkaziladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat shakli (yozma, og'zaki, kollokvium, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Ifodali o'qish" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi maksimal 100 ballik tizimda baholanadi.

YaN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-35 ball va ON-35 ball qilib taqsimlanadi

Talabaning "Ifodali o'qish" fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagi mezonlar asosida baholanadi

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	A'lo	- xulosa va qaror qabul qila olish; - ijodiy fikrlay olish; - mustaqil mushohada yurita bilish; - olgan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish; - mavzular mohiyatini to'la bilish va aytib bera olish; - boy uslubiy tasavvur va fikrlashga ega bo'lish; "Ifodali o'qish" faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Yaxshi	- mustaqil mushohada yurita olish; - auditoriyada olgan bilimlarini amalda qo'llay ola bilish; - mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; "Ifodali o'qish" faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi kerak	Qoniqarli	- uslubiy xolatlar mohiyatini tushunish; - mavzular mohiyatini bilish, aytib berish; "Ifodali o'qish" faniga oid termin va tushunchalarni izohlay olish;
0-54 ball bilan talabaning bilim darajasi quyidagi holatlarda baholanadi	Qoniqarsiz	- uslubiy xolatlar mohiyatini tushunib yetmaslik; "Ifodali o'qish" fani bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; "Ifodali o'qish" faniga oid termin va tushunchalarni izohlay bilmaslik;

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot Q}{100}$ bu yerda:

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

Q - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari	
		maks	O'zgarish oraliq'i
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	10	0-10
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	15	0-15
Jami JN ballari		35	0-35

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	10	0-10
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-10
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	15	0-15
Jami ON ballari		35	0-35

Yakuniy nazorat "Og'zaki" shaklida o'tkazilishi belgilanganligi uchun u maksimal 30 ballik tizimda o'tkaziladi.

Yakuniy nazoratda "Og'zaki" javoblarnilarni baholash mezonlari

"Ifodali o'qish" fani bo'yicha talabaning og'zaki javoblari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqorida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi.